

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo' l yozmahuquqida

УДК:338. 32(519)

ББК:65.5(5кoр)

И-14

IBRAIMOV BOHODIR MUXAMMADJON O'G'LI
KOREYA RESPUBLIKASINING TEXNOLOGIK RIVOJLANISH
XUSUSIYATLARI

5A231001--Xorijiy mamlakatlariqtisodiyotivamamlakatshunoslik
(UzoqSharqmintaqasimamlakatlari)

Magistr
akademikdarajasiniolishuchunyozilgan
dissertatsiya

Ilmiyrahbar:
i.f.n dots. Melibayeva G. A.

Toshkent-2014

Magistratura bo'limi boshlig'i:

Alimova R. R.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. Koreya Respublikasining texnologik rivojlanishining ilmiy asoslari.....	7
1. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida xalqaro ilmiy-texnikaviy va ilmiy hamkorlikning roli.....	7
2. Koreya Respublikasidagi modernizatsiyalash sharoiti va dastlabki shartlari.....	14
3. Koreya Respublikasida ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlari.....	28
I bob bo'yicha xulosa.....	40
II bob. Koreya Respublikasida texnologik rivojlanish siyosatining asosiy omillari.....	42
1. Hozirgi davrda Koreya Respublikasining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni.....	42
2. Koreya Respublikasidagi erkini iqtisodiy hududlarilg'or texnologik markazlar sifatida	55
3. Koreya Respublikasining texnologik rivojlanishida yangil "Yashil texnologiyalar" strategiyasining roli.....	64
II bob bo'yicha xulosa.....	70
III bob. Koreya Respublikasining texnologik rivojlanish istiqbollari	72
1. Koreya Respublikasining postindustrial davrda rivojlanish istiqbollari.....	72
2. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida Koreya Respublikasi rivojlanish tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....	85
III bob bo'yicha xulosa.....	92
Xulosa.....	94
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	98

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat hayotida jiddiy o'zgarishlar, tub yangilanishlar ro'y berdi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda yangicha tafakkur tarzi shakllanmoqda, jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy hayotida fuqarolarning real ishtirokini ta'minlash va uning kafolatli tizimini yaratish mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning negizini tashkil etmoqda. Bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish foydadan holi bo'maydi, albatta.

Koreya Respublikasining oxirgi 30-40 yil ichidagi iqtisodiy o'sishi uni asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat Osiyoda balki jahonda ham eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqdi. Janubiy Koreya bozor iqtisodi yo'lini tanlab olgan. Hozirda mamlakat nominal YaIM bo'yicha dunyoda 15-o'rinni va xarid qobiliyati bo'yicha 12-o'rinni egallagan holda, jahonning sanoati eng rivojlangan 20 ta mamlakat (G20) qatoridan joy olgan. Bu yuqori daromadli rivojlangan mamlakat o'zining ko'zga ko'ringan sanoati bilan "Rivojlangan mamlakatlar Iqtisodiy Rivojlanishi va Hamkorlik Tashkiloti" (OECD) ga ham a'zodir. Shu bilan birga Koreya Respublikasi 1996-yilda Butun Jahon Savdo Tashkiloti (WTO)ga a'zo bo'lgan, Osiyo-Tinch Okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) da faol ishtirok etib kelmoqda. Shu bilan birga Koreya Respublikasi Osiyoda Yaponiyadan keyingi 2-davlat nomiga ham sazovor bo'ldi. Deyarli resurslarga ega bo'lmagan va territoriyasiga nisbatan ko'p aholiga ega bo'lgan Koreya Respublikasi katta ichki harid bozorini yaratib, keyinchalik eksportga asoslangan siyosatni olib bordi.

Hozirgi kunda Koreya Respublikasi taraqqiyotining barcha sohalarida, ayniqsa, ishlab chiqarishni yangi sohalarini tashkil qilishda yuqori darajadagi fan-texnikaning o'rni juda muhim. Global moliyaviy inqiroz sharoitida inqiroz ta'sirini iloji boricha kamaytrish, ishlab chiqarishni yangi sohalarini kashf etish, yuqori darajali texnologiyalarni yaratish Koreya hukumatining o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda 2008-yilda Koreya Respublikasining yetakchi universitet, ilmiy izlanish institutlarning tanilgan olimlari tomonidan "747" iqtisodiy dastur ishlab chiqilgan.

Koreyada yuqori darajali fan-texnikaning yaratilishini ahamiyati shundan iboratki, buning natijasida mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida yuqori o'sish sur'ati ta'minlanadi.

Koreya Respublikasi hukumati bunday ekologik toza texnika va texnologiyalar ishlab chiqarish va yo'lga qo'yishga yuqoridagi dastur bo'yicha besh yillik muddatni belgiladi (2009-2013-yillar), bu yo'nalish bo'yicha ushbu muddat davomida 1,56-1,81 mln. kishi uchun ish o'rinlari yaratildi.¹

Har bir xorijiy davlatning iqtisodiy rivojlanish tarixi va tajribasini o'rganish vaqtida ularni bizning yurt sharoitlari va zamonasiga to'g'ri kelish-kelmasligini hisobga olish kerak. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "Dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash ham buning amaliy namunasidir.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi. Gap biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'risida borayotgani yo'q. Aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi."²

Hozirda O'zbekiston va Koreya Respublikalarining o'zaro har tomonlama aloqalari jadal rivojlanib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda, Koreya Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot yo'lini chuqurroq o'rganib, ushbu aloqalarni yanada yuqori darajaga olib chiqish zarur.

Magistrlik dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari: Ishning maqsadi Koreya Respublikasining texnologik rivojlanish xususiyatlarini ochib beruvchi

¹Otchet_EUSPb_South-Korea.2012

²I.A. Karimov. "Ўз йўлимизнинг шарт-шароити ва заминлари". - Тошкент

ma'lumotlarni umumlashtirish, tartibga solish va tahlil qilish hisoblanadi. Maqsaddan kelib chiqib ushbu vazifalar qo'yilgan:

Koreya Respublikasi iqtisodiyotining texnologik rivojlanishining ilmiy asoslarini o'rganish;

Koreya Respublikasi iqtisodiyotining texnologik rivojlanishining asosiy omillarini tahlil qilish;

Koreya Respublikasi iqtisodiyotining texnologik rivojlanishining istiqbollari baholash.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Magistrlik dissertatsiyasining tadqiqot obyekti sifatida Koreya Respublikasi iqtisodiyoti ko'rib chiqildi. Tadqiqotning predmeti sifatida esa Koreyada texnologik taraqqiyotning xususiyatlari o'rganildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Koreya Respublikasining texnologik rivojlanishining xususiyatlari xorijiy olimlardan jumladan MGIMO prof. Koreyashunoslik kafedrasi mudirasi Suslina S. S³. ЖонгВонЛи⁴, ГимАНХо⁵, Li Jong Gvon⁶, Dak Vu Nam⁷, A.C. Булатова⁸, Kim Yung Xang, Chon De Van⁹. Hamda o'zbek olimlaridan i.f.n. dots. Alimov A. M., prof. Bekmuradov A. Sh., i.f.n dots. Melibayeva G. A¹⁰, Muminov N. G.¹¹ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan.

Mavzuning asosiy masalalar va farazlari: Koreya Respublikasining texnologik rivojlanish xususiyatlarini ochib beruvchi ma'lumotlarni umumlashtirish, tartibga solish va tahlil qilish hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining uslubiyati va uslublari: Dissertatsiyani yozish vaqtida ekstrapolyatsion, taqqoslama tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

³Экономика Республики Корея: новые перспективы и вызовы. (статья) // «Проблемы Дальнего Востока. М.: 2013, №3. (в соавторстве с Самсоновой В.Г.).

⁴«Успехи и неудачи экономики Кореи и её перспективы», 2006 г

⁵Понятие экономика в Кореи. Сеул, 2002 (koreystilida).

⁶«Успехи и неудачи экономики Кореи и её перспективы», 2006 год

⁷Опыт экономического развития Республики Корея в условиях рыночной системы», 1993.

⁸Страны и регионы мира: экономико-политический справочник / . – М.: Проспект, 2010. – 704 с.

⁹Экономическая сотрудничество между Кореи и Узбекистаном : тенденции и перспективы экономика и финансы №3. 2011, s70-77

¹⁰Muminov N.G., Melibayeva G.A. Особенности финансовой системы Республики Кореи // экономика и финансы . №4, 2010,

¹¹«Внешнеэкономические связи Република Корея» учебное пособие Ташкент УМЕД 2011 год.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati: Ishda umumlashtirilgan Koreya Respublikasi texnologik rivojlanish asoslari, iqtisodiy istiqbollari, mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini, texnologik rivojlantirish strategiyalari bo'yicha oliy ta'lim tizimida "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti" va "Koreya iqtisodiyoti" fanlarini o'qitish jarayonida foydalansa bo'ladi.

Magistrlik dissertatsiyaning ilmiy yangiligi: Koreya Respublikasi texnologik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, muammolari va istiqbollarini o'rganish hamda tahliliy qarashlar orqali O'zbekiston Respublikasida texnologik rivojlanishining takliflar kiritish.

Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi: Magistrlik dissertatsiyasi 3ta bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB.KOREYA RESPUBLIKASINING TEXNOLOGIK RIVOJLANISHINING ILMIY ASOSLARI

1. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida xalqaro ilmiy-texnikaviy va ilmiy hamkorlikning roli

XX asrning asosiy xususiyatlaridan biri fan va texnikaning misli ko`rilmagan darajada rivojlanishi bo`ldi. So`nggi yuz yil davomida XIMning yangi axborot-texnologiya tuzilmasi vujudga keldi va shakllandi. Uning negizini Jahon axborot va texnologiyalar bozori (JATB) tashkil etadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan axborot - bu bizni qiziqtirayotgan ob'ekt to`g`risidagi bilimlarimiz hajmini kengaytiruvchi yangi ma'lumotlar yig`indisi bo`lib, u quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflandi: foydalanish jarayonida yo`qotilib ketmasligi, moddiy predmetlar amortizatsiyasiga nisbatan boshqacha «qarish» mexanizmiga egaligi va universal qiymat bahosining mavjud emasligi.

Texnologiya jahon bozoriga ishlab chiqarishning usul va uslublari, shuningdek, uni tashkil etish hamda boshqarish ko`rinishlarito`g`risidagi ilmiy-texnik bilimlar majmuasi sifatida chiqadi. Har qanday yangi texnologiya ma'lum «hayotiy tsikl»ni o`tadi. U yaratilgandan so`ng marketing, reklama kabi omillarga bog`liq ravishda o`z iste'molchisiga ega bo`luvchi tovar hisoblanadi xalos. Keyinchalik, muvaffaqiyatli joriy etilsa, bu texnologiya o`zining yaratuvchisiga foyda olib keladi, foyda miqdori vaqt o`tishi bilan maksimumga erishadi va shundan so`ng kamayib boradi. «Hayotiy tsikl»ning oxirgi bosqichida texnologiya zamonaviylashtiriladi yoki yangisi bilan almashtiriladi.

Shunday qilib texnologiya-tovarni tijoriy mavjud bo`lish bosqichlari har qanday mahsulotning «tug`ilish, yetuklik va qarish» bosqichlariga mos keladi. Biroq boshqa tovarlardan farqli o`laroq, axborot va texnologiyalarning qiymati ko`chmas mulk va qimmatli qog`ozlar qiymatiga o`xshaydi, ya'ni ulardan foydalanishdan keladigan foyda miqdoriga bog`liq bo`ladi va

texnologiya/axborotlar bozorida sotish davomida vujudga keladigan qo'shimcha daromad bilan belgilanadi. Bu yerda gap texnologik renta xususida ketyapti.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, JATBning ob'ektlari - bu moddiy (qurilmalar) va nomoddiy (turli ko'rinishdagi axborotlar, ishlab chiqarish tajribalari va bilimlar) ko'rinishidagi intellektual faoliyat natijalaridir. JATBda davlat tuzilmalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, xususiy kompaniyalar va jismoniy shaxslar-mutaxassislar qatnashadi. Ma'lumotlar va texnologiyalar jahon bozori juda tez rivojlanmoqda. 90-yillarning o'rtalariga keliboq, axborot va texnologiyalar tarmog'i AQSh YaIMining salkam 75 foizini ta'minlagan. Mamlakat faroonligi manbalari an'anaviy ishlab chiqarish omillaridan axborot resurslari tomon ko'chmoqda.

Ijod jarayoni, ayniqsa, ilmiy-texnik sohadagi ijod qilish jarayoni rivojlangan mamlakatlarda taraqqiyotga yordam beruvchi yo'ldoshgina emas, balki taraqqiyotning asosiy omiliga aylanib bormoqda, zero bu jarayon ishlab chiqarish sohasiga kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Alohida davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarining differentsialashuvi kuchaymoqda, natijada milliy iqtisodiyotlarning ilmiy-texnik yetukligi darajasidagi farq ortib bormoqda. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya va Buyukbritaniya ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga dunyoning qolgan barcha mamlakatlarining birgalikdagi xarajatlaridan ko'proq mablag' sarflaydi. Bu besh davlatning ichida AQShning ulushi 50 foizdan oshadi. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa yangi industrial davlatlarning qoloqlikni bartaraf etish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, tashqi bozorlarga o'z tovarlari bilan chiqish uchun yangi texnologiya va axborotlarga qiziqishi ortib bormoqda.

JATBda xalqaro ayirboshlashning kengayishiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida TMKlar faoliyatini keltirish mumkin. Yirik TMKlar raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish jarayoniga texnologiyalar bilan yorib kirish uchun o'zlarining ilmiy-tadqiqot markazlarini yaratishmoqda. O'rta va kichik kompaniyalarga kelsak, ular zarar ko'rmaslik uchun yirik kompaniyalardan

axborot va texnologiyalar sotib olishga majburlar. JATBning rivojlanishiga harbiy ishlab chiqarishni konversiyalash jarayoni ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq yo'l innovatsion faoliyat deb ataladi. Xalqaro tajribalardan ma'lumki, bu jarayonning asosiy unsuri - ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni tijoratlashtirish, axborot bilan ta'minlash va xodimlar treninggiga ixtisoslashuvchi innovatsion-texnologik markazlar (ITM)ni yaratishdir. ITMlar ko'plab o'rta va kichik korxonalarni birlashtiruvchi kongomeratlar sanaladi. Davlat esa bunday markazlarga ilmiy-ishlab chiqarish va servis erkin iqtisodiy hududlari doirasida ilg'or loyihalar va yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun o'ziga xos «inkubator»larni yaratish orqali ko'maklashishi mumkin.

ITMlardan tashqari innovatsion faoliyatda ITTKI bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlariga ega bo'lgan TMKlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ilmiy-texnikaviy yangiliklarga qilinadigan xarajatlar «IBM» va «Kodak» kompaniyalari savdodan tushgan daromadlarining 6 foizigacha miqdorga yetadi, «Voyets»da — 5,5 foiz, «Xerox»da esa — 4,7 foiz. Sotib olingan patentlar va lisenziyalarning 4/5 qismi xalqaro korporatsiyalarga to'g'ri keladi.

Innovatsion faoliyatning kengayib borishi yangi kashfiyotlar va resurslarni tejovchi texnologik jarayonlarni joriy etishga asoslangan ilm sig'imli tovarlarni ishlab chiqarish bilan bog'liqliki, ular xarajatlarni kamaytirish va buyumning iste'mol xususiyatlarini yaxshilashni ta'minlaydi. Dunyoning yetakchi mamlakatlri ITTKIga katta miqdorda byudjet assignatsiyalarini ajratishadi. Masalan, Yaponiyada bu maqsadlarga YaIMning 3, AQShda - 2,54, Frantsiyada — 2,34, Germaniyada — 2,26, Buyukbritaniyada — 2,05 foizi sarflanadi.

Axborot va texnologiyalar bilan xalqaro ayirboshlash hamkorlar o'rtasidagi uzoq muddatli o'zaro aloqalar jarayonini aks ettiradi. U axborot/texnologiyalarni tanlash va sotib olish, ularni aniq lokal sharoitlarni hisobga olgan holda o'zlashtirish, keyinchalik modifikatsiyalash yoki boshqa yangi, zamonaviylariga almashtirishni nazarda tutadi.

Axborot-texnologiyalar ayirboshlash kanallari

Ko'rinishi	Xususiyati
davlatlararo	ilmiy-texnikaviy hamkorlik dasturlari yoki tashqi savdo bitimlari bo'yicha
firmalararo	xorijiy hamkorlar bilan keng ko'lamdagi shartnomalar bo'yicha
firma ichidagi	bir korporatsiya tuzilmalari o'rtasida, ya'ni turli mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi shaxobchalar va sho'ba korxonalar o'rtasida

Manba: Nazarova G. Xaydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T. 2005 y.

Keyingi yillarda aynan firma ichidagi axborot-texnologiyalar yetkazib berish xalqaro ayirboshlash kanallari ichida, ayniqsa, patent-lisenziya savdosi sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ayirboshlashga tasvif berishda shuni qayd etish joizi, ayirboshlash ham tijoriy, ham notijoriy ko'rinishlarda mavjud bo'lishi mumkin. Hamma narsa sotuvchi va xaridor (ishlab chiqaruvchi va iste'molchi) o'rtasidagi bitimda pul to'lovlarining amalga oshirilish oshirilmasligiga bog'liq.

Notijoriy ko'rinishlardan boshlaylik, ular quyidagilarni ko'zda tutadi:

- ma'lumotlar manbalari (maxsus adabiyotlar, Internetning axborot massivlar, ma'lumotlar bazasi kabilar)dan tekin foydalanish;
- konferentsiya, ko'rgazma va klublarda olimlar va kashfiyotchilar o'rtasidagi shaxsiy aloqalarda g'oyalar, tamoyillar, yangiliklar bilan ayirboshlash;
- mutaxassislarning chet ellardagi davlat va xususiy kompaniyalarda tajriba ortirib kelishi;
- ilmiy texnikaviy kadrlarning vaqtinchalik yoki qaytib kelmaslik asosidagi migratsiyasi.

Notijoriy transfertda yetakchi o'rinni patentlashtirilmagan (mualliflik huquqi to'g'risidagi guvohnoma bilan himoyalangan) ma'lumotlar va texnologiyalar egallaydi.

Intellectual faoliyat natijalarini tijoriy ayirboshlashga kelsak, ularning ichida eng keng tarqalgan ko'rinishlari ichida quyidagilarni qayd etib o'tish joiz: texnologiyalarni moddiy ko'rinishda sotib olish-sotish va ijaraga olish, patent-lisenziyalar ayirboshlash, bozorda nou-xaular sotish, injiniring, franchayzing, konsalting.

Texnologik qurilmalarni oldi-sotdisi umuman olganda tovar va xizmatlar savdosi sohasiga kiradi. Binobarin, yuqoridagi qarab o'tilgan barcha holatlar (qurilmalar va texnologiyalarni ijaraga olish, xususan lizing) unga ham xosdir. Boshqa tijoriy ko'rinishlarga kelsak, bu yerda patentli-litsenzion ayirboshlash muhim rol o'ynaydi. Huquqiy nuqtai nazardan patent - bu uning egasiga o'z kashfiyotini ma'lum hududda ma'lum vaqt oralig'ida tanho ishlab chiqarish, sotish huquqini beruvchi hujjat hisoblanadi.

Ilmiy yangilarni joriy etish muddatlarini qisqartirish zaruriyati lisenziyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Lisenziya axborot-texnologiyalar ayirboshlash sohasida yangilik muallifining uchinchi shaxslarga o'z kashfiyotidan vaqtincha va ma'lum shartlar asosida bonus to'lovi evaziga foydalanishga ruxsat etishidir.

Ishbilmorlik amaliyotida lisenziyalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- oddiy lisenziya - litsenziatga (xaridorga) lisenziya ob'ektidan ma'lum chegarada foydalanish huquqini beradi, litsenziar (patent egasi, kashfiyot muallifi) esa lisenziyani boshqa shaxslarga ham sotishi mumkin;
- maxsus lisenziya - litsenziat lisenziya ob'ektidan ma'lum bozorda tanho foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- to'la lisenziya - patentdan foydalanishning barcha huquqlari xaridorga o'tadi, ya'ni u amalda sotiladi;
- chaparasta lisenziya - ikki hamkor o'rtasida lisenziyalarni o'zaro ayirboshlashni nazarda tutadi;
- oshkor lisenziya - patent egasining lisenziyani har qanday shaxsga taklif etishga tayyorligini ko'zda tutadi;

- majburiy lisenziya - lisenziyalarni oldi-sotdisi jarayoniga ma'lum vaziyatlarda davlat organlarining ishtirok etishi mumkinligidan dalolat beradi;
- hamrohli lisenziya - qurilmalarni yetkazib berish ilova qilinadi.

Agar lisenziya sotuvchi lisenziyalanayotgan ob'ekt masalasida sir saqlanishidan manfaatdor bo'lsa, opsiya kelishuvdan foydalaniladi. Unga ko'ra xaridor lisenziya umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida pul o'tkazadi va sir saqlash sharti bilan axborotlarga ruxsat oladi va shundan keyin uni sotib olish masalasini hal etadi. Agar u lisenziyani sotib olsa, o'tkazilgan pul bitimning umumiy hajmida hisobga olinadi, agar xariiddan voz kechsa, avans to'lovi sotuvchida qoladi.

Lisenziya shartnomasini imzolashda umumiy to'lovlar royalti yoki paushal to'lov ko'rinishida amalga oshiriladi. Royaltida umumiy to'lov lisenziya bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot birligidan amalga oshiriladi, paushal to'lovda esa umumiy summa bo'lib-bo'lib (masalan, 20 foizi shartnoma tuzilganda, 30 foizi texnik hujjatlar imzolanganda, 30 foizi mahsulot chiqa boshlaganda, 20 foizi kafolat to'lovlari ko'rinishida) to'lanadi. Litsenzion bitimlarning amal qilish muddati odatda 10 yildan oshmaydi, o'rtacha 5-7 yil.

Axborot-texnologiyalar ayirboshlashning rivojlanishini so'nggi yillarda nou-naulardan foydalanishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Nou-xau patentlashtirilmagan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlaridir. Nou-xau oldi-sotdisi patensiz lisenziyalar deb ataluvchi savdo sxemasida amalga oshiriladi. Bunday bitimlarning muddati 3-7 yilga teng bo'ladi. Patentli-litsenzion ayirboshlashdan farqli ravishda nou-xauni sotib olish va undan foydalanish asosini tijoriy sir tashkil etadi. Bunda raqobatchilar texnologiyalarni ana shunday nou-xau asosida mustaqil ravishda ishlab chiqish imkoniyatiga egadirlar.

JATB sohasida injiniring, franchayzing va konsalting keng tarqalgan. Injiniring ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish va xizmat ko'rsatishni bildiradi. Franchayzing bir kompaniya tomonidan boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan

foydalanish bilan bog'liqdir. Konsalting konsalting firma tomonidan har qanday iste'molchiga keng ko'lamdagi maslahat xizmatlari ko'rsatishni bildiradi.

JATBni kuzatish Umumjahon savdo tashkiloti (UST), Umumjahon intellektual mulk bo'yicha tashkiloti (shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan, 156 mamlakat a'zo), Yevropada esa Yevropa patent tashkiloti kabilar tomonidan amalga oshiriladi. Yevropa patent tashkiloti, Yaponiya patent boshqarmasi va AQSh patent va tovar belgilari byurosining uch tomonlama hamkorligi 1983 yildan beri amalga oshirilib kelmoqda, unda dunyodagi 90 foiz kashfiyotlar qayd etilgan.

Intellektual mulkni himoya qilish sohasida xalqaro va milliy muassasalar oldida turgan eng muhim muammo «qaroqchilik» va sanoat josusligiga qarshi kurash hisoblanadi.

2. Koreya Respublikasidagi modernizatsiyalash sharoiti va dastlabki shartlari

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab 90-yillariga qadar Koreya Respublikasida modernizatsiyalash masalalari bo'yicha keng tarixiy solnoma yaratilgan. Biroq hozircha Koreya Respublikasini sifat jihatidan butunlay boshqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishini ta'minlagan sabablar, vositalar va mexanizmlar to'g'risida o'zil-kesil javob berish mumkin emas. Shuning uchun ham Koreya Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilish masalalarini eng oqilona tashkil qiladigan usullari, milliy manfaatlar bilan uzviy kesishadigan yo'llari davlat boshqaruvining o'ziga xos usullari va shu kabi holatlar atroflicha o'rganib chiqishni taqozo etadi.

Koreya Respublikasiga kolonial o'tmishdan va 1950-1953 yillardagi koreys urushidan keyin nimalar meros bo'lib qolganligini, boshqa mamlakatlarning Koreya Respublikasi xalq xo'jaligining tiklanishiga qanday ta'sir o'tkazganligini tasavvur qilish qiyin emas.

Modernizatsiyalash jarayoni boshlanguniga qadar mamlakatda yengil sanoatning atigi uchta — paxta tolasini yigirish, uni ishlab chiqarish va shakarqand ishlab chiqarish tarmoqlarigina ishlab turgan xolos. Koreyslar ularga "Sambeek

konop" (ishlab chiqarishning uch oq tarmoqlari) degan obrazli nom berganlar. Asosan chetdan keltiriladigan xom ashyo bilan ishlovchi bu tarmoqlar qaysidir darajada mamlakat ehtiyojlarini qondirib turar edi. Ushbu ishlab chiqarishning hajmi va xususiyati o'n minglab ishsiz odamlarni to'liq ish bilan band qila olmas edi.

Mamlakatda ishsizlik darajasi tinimsiz o'sib, nazorat ostidan chiqib ketadigan darajaga yetib qolgan edi. Qishloq aholisining shaharlarga ommaviy qochib kelishlari ijtimoiy taranglikni yanada oshirib yubordi. Shahar aholisining sun'iy ravishda tez ko'payib ketaverishiga o'tkazilgan yer islohotlarining oqibatlari sabab bo'ldi va u qanchalik radikal hususiyatga ega bo'lmasin, barcha dehqonlarni yer bilan ta'minlay olmas edi. Eslatib o'tamiz: yer islohoti to'g'risidagi qonun 1949 yilning 22 aprelida e'lon qilingan, 1950 yilning 3 aprelida esa iqtisodiyotning agrar sektorida islohotlar boshlangan edi.¹²

Ma'lumki, mamlakat ozod etilganidan keyin kolonial hukmdorlik yillarida yaponlar tasarrufidagi mulkning anchagina qismi, ya'ni infratuzilma tarmoqlari: katta miqtorda sarmoya talab qiladigan sug'orish va suv ta'minoti tizimlari, port inshootlari, energetika, transport, tog'-kon korxonalari, pochta va shu kabilar Koreya Respublikasi hukumati ixtiyoriga o'tib qolgan. Davlat tamaki, jenshen va oziq-ovqat mahsulotlariga monopolist bo'lib qoldi. Bundan tashqari, 1948 yilda qabul qilingan konstitutsiya xususiy tadbirkorlik ishlariga bevosita aralashish huquqini mustahkamlab qo'ygan edi.

Umuman olganda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan, bozor munosabatlari yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatiladi. Bunday aralashuv mamlakatning yangilanishiga va ildam taraqqiy etishiga nisbatan qo'llaniladigan bir qurol sifatida qabul qilinadi. Gap shundaki, bunday mamlakatlarda iqtisodiyotga davlat nazoratining o'rnatilishidan ko'zlangan maqsad o'z samarasini bera boshladi. Koreya Respublikasiga keladigan bo'lsak, ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar nihoyatda to'planib qolib, murakkab vaziyat yuzaga kelgan edi.

¹²К.Х.Абдурахмонов,А.Н.Аллаяров,Р.В.Абдуллаев,Ю.Т.Дадобоев Корея республикаси:сиёсати,иқтисодиёти.маданияти.Тошкент2006й. 36 б.

Shunday sharoitlarda hukmron oliy tabaqa o'zining hukmronlik mavqeini har tomonlama, shu jumladan konstitutsiyaviy huquq yordamida mustahkamlashga asosiy e'tiborni qaratdi. Li Sinman rejimi hukm surgan davr ichida, aniqroq aytadigan bo'lsak, 1952 yilning 4 iyunidan 1954 yilning 27 noyabriga qadar ikki yarim yil ichida Koreya Respublikasi konstitutsiyasi ikki marta qayta ko'rib chiqildi va unga anchagina tub o'zgarishlar kiritildi. Birinchi o'zgartirish kiritilganda prezidentni saylash tartibi tubdan qayta ko'rib chiqilgan: agar avvallari u Milliy majlis tomonidan saylangan bo'lsa, endilikda to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan saylanadigan bo'ldi.

Konstitutsiyaga ikkinchi marta o'zgartirish kiritilganda prezidentning ikkinchi muddatga saylanishini cheklovchi modda bekor qilingan, natijada Li Sinman davlat boshlig'i sifatida umrbod qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ikkinchi tuzatishda bu kabi o'ta muhim qonun loyihasini tasdiqlash uchun qonun chiqaruvchilarning kam deganda 2/3 qismi ovozi berishi shart edi. O'sha parlament majlisida ishtirok etgan deputatlar soni 203 kishini tashkil qilgan. Konstitutsiyani qayta ko'rib chiqishni yoqlab yetarli ovoz berilmasa-da, spiker hech ikkilanmay natijani o'zgartirgan va qonun loyihasi qabul qilindi, deb e'lon qilib yuboravergan.

Natijada ochiqdan-ochiq o'zboshimchalik bilan murosqa qilishni istamagan muxolifatdagi partiyalar deputatlari 1954 yilning 30 noyabrida konstitutsiyani himoya qilish jamiyati tuzilgan.

Konstitutsiyani qayta ko'rib chiqish davlat manfaatlarini ko'zlab emas, faqat prezident Li Sinmanni nima qilib bo'lsa ham o'z hokimlik muddatini o'zaytirib olish maqsadidan kelib chiqqan edi. Shu maqsadda 1948 yilning 1 dekabrda, mustaqil davlat tuzilganidan keyingi birinchi oylarda qabul qilingan "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonun prezidentni himoya qilishga qaratilgandi.

Mamlakat parchalanib ketishi mumkin bo'lgan sharoitda bu kabi «qattiq qo'l»ning zarurati biror-bir shubha uyg'otmagan: yosh davlat o'zining xavfsizligini ta'minlab olishi zarur edi, boz ustiga Shimoliy Koreyadan va boshqa taraflardan Koreya Respublikasi tuzumining qonuniy emasligi to'g'risidagi bayonotlar e'lon

qilinib turar edi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonunning samaradorligi masalalariga hokimiyat birinchi darajadagi ahamiyatni qaratganligi va vaqti-vaqti bilan unga o'zgartirishlar kiritib turilganligi ham bejiz emas edi.

“Milliy xavfsizlik to'g'risida”gi qonun qabul qilinganidan deyarli 10 yil o'tgach, 1958 yilning 24 dekabrda Milliy xavfsizlik to'g'risida yangi qonun qabul qilingan. Shu kuni muxolif partiyalardan saylangan deputatlar qonunning qayta ko'rib chiqilishiga norozilik bildirish maqsadida Milliy majlis kengashi zalini egallab olganlar. Ular yangi qonun, birinchi navbatda, matbuotni bo'g'ib tashlashidan xavfsiragan edilar. Biroq hukmron Liberal partiyasidan saylangan deputatlar muxolifatchilarni kengashlar zalidan chiqarib yuborishgan va shoshilinch tarzda qonun loyihasini tasdiqlaganlar.

Ushbu qonunni qo'llash ko'lami ancha keng bo'lib, aholining turli qatlam vakillari uning ta'siri ostiga tushgan edi. Qonunni pesh qilgan holda hokimiyat o'zlariga yoqmagan ommaviy axborot vositalarini berkitavergan, qonun moddalarini ko'rsatib, muxoliflik kayfiyatidagi Milliy majlis a'zolarini qamoqqa olavergan va bunda konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan deputatlik dahlsizligini pisand ham qilmagan.

Bunday holatlardan norozi bo'lgan mashhur siyosatchi Cho Bonam tomonidan 1956 yilning noyabrida tuzilgan Progressiv partiyasi dasturidagi eng dolzarb vazifalar: ikki mamlakatning tinch yo'llar bilan birlashishi va davlat siyosatining yangilash deb qo'yilgan. Bu moddalarda biror-bir kishiga tahdid soluvchi yoki haqorat qiluvchi gaplar bo'lmagan.

Mamlakatning ikkiga parchalanganligi butun koreys xalqining dardiga aylangan, o'tkazilayotgan siyosat esa mamlakatni qashshoqlik girdobiga va adolatsizlikka giriftor qilgan edi.

Progressiv partiya quvg'inga uchradi. 1958 yilning yanvarida yalpi qamoqqa olishlar boshlandi, birinchi navbatda u partiya rahbarlariga qaratildi, fevral oyida partiyaning ro'yxatdan o'tganligi bekor qilindi. Natijada u qonunga xilof deb tan olindi, uning barcha provinsiyalaridagi tashkilotlari ishi to'xtatib qo'yildi va partiyaning faoliyat yuritishi butunlay cheklab qo'yilgan.

Pirovardida 1959 yilning 17 fevralida Oliy sud Cho Bonamga KXDR foydasiga josuslik qilganlik va milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonunni ataylab bo'zganlikda ayblov qo'ydi va uni qatl qilishga hukm chiqardi. Hukm 1959 yilning 31 iyulida ijro etildi, Progressiv partiyaning boshqa rahbarlari ikki yildan uch yilgacha qamoq jazosiga hukm qilindilar.

1960 yilning 3 martida muxolifatdagi Demokratik partiya hukmron Liberal demokratik partiyaning bo'lajak saylovlar natijalarini soxtalashtirish yuzasidan ishlab chiqqan rejalarini, jumladan, Ichki ishlar vazirligining bu xususidagi yo'riqnomasini fosh etadi. Muxolifat tomonidan topilgan ma'lumotlar turli matbuot organlariga, shu jumladan ommaviy nashrlardan hisoblangan eng keksa va ta'sirchan gazetalardan biri bo'lgan «Tona ilbo»ga berilgan edi.

1960 yilning 15 martida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovi xalqning sabr kosasini to'ldirib yubordi. Berilgan ovozlarni firibgarlarcha soxtalashtirib hisoblab chiqilgan va qalbakilashtirilgan hisob natijalariga qaraganda bu safar ham (to'rtinchi marta) Li Sinman va vise prezident lavozimiga nomzodini qo'ygan uning itoatkor maslakdoshi Li Gibun g'alaba qozongan edilar.

Muxolifat Demokratik partiya halollik bilan o'tkazilmagan saylovlar natijalarini bekor qilish uchun keng ko'lamli kampaniyani boshlab yubordi. Uni Koreya Respublikasi ommasi yakdillik qo'llab-quvvatladi. Butun mamlakat bo'ylab ommaviy yig'inlar va namoyishlar bo'lib o'tdi, ularning ishtirokchilari qat'iyat va murosasizlik bilan prezidentning va uning vise-prezidentining iste'fosiga chiqishini talab qila boshladilar.

Talabalarning chiqishlarini bostirish maqsadida hokimiyat polisiyaga o'q otar qurollarni qo'llashga buyruq berdi. Namoyishchilar o'rtasida o'ldirilganlar va yaradorlar bo'ldi.

Barcha chora-tadbirlar va va'dalar yordam bermagach Li Sinman prezidentlik vakolatini zimmasidan soqit qilgan va shoshilinch ravishda Gavay orollariga (AQSh) qochib qolgan. Vise-prezident Li Gibun oila a'zolari bilan birga o'z joniga qasd qilgan.

Eng ko‘p sonli a‘zolarga ega bo‘lgan Demokratik partiya oldida hokimiyat tomon yo‘l ochildi. Parlament bir qator muhim qarorlar qabul qildi. Birinchidan, 10 iyunda u o‘zining Milliy xavfsizlik to‘g‘risidagi qonunni qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi qarorini e‘lon qildi va bunda juda ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan moddalarini birmuncha yumshatishni nazarda tutilgan. Ikkinchidan, 1960 yilning 15 iyunida parlament amaldagi konstitutsiyani qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi qonun loyihasini ma‘qullagan: boshqarishning prezidentlik shakli o‘rniga parlament boshqaruvi kiritiladigan bo‘ldi va bu bilan takroran diktatura o‘rnatilishining oldini olmoqchi bo‘lishdi. Nihoyat, yangi (ikki palatali) parlamentga — vakillar palatasiga va maslahatchilar palatasiga saylovlar o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

1960 yilning 29 iyunida saylov o‘tkazildi va Demokratik partiya g‘alabaga erishib, 23 avgustda o‘zining Vazirlar Mahkamasini tuzdi. Ikkinchi Respublikaning tug‘ilganligi e‘lon qilindi, biroq uning umri juda ham qisqa ekan.

Davlat boshqaruvi tepasida eski tuzumda ishlagan, avvaldan mo‘tadil konservativ qarashlarni tan olib, biron yangilikka intilmaydigan kishilar ishlar edi. Qolaversa, muxolifchilik kayfiyatidagi rahbarlarning ko‘pchiligi Li Sinman ma‘muriyatida katta lavozimlarni egallagan kishilar edi.

Avval olib borilgan iqtisodiy yo‘nalish biror-bir o‘zgarishsiz qolavergan, nima qilganda ham rasmiy manbalar ularni bekor qilmagan, iqtisodiyotdagi nochor ahvolni izga solish uchun intilmaganlar ham. Biroq milliy valyuta kursining tushib ketaverishini oldindan qayd etib qo‘yganlar — 1960 yilning 1 yanvarida 1000 xvan 1 dollarga teng bo‘lgan bo‘lsa, 1961 yilning 1 fevralida 1250 xvanga tenglashtirilgan.¹³

Yangi siyosiy rahbariyat ichidagi qarashlarda nomuvofiqlikning borligi Demokratik partiyaning parchalanib ketishidan ham ko‘rinib turibdi. Uning tarkibida bir-birlari bilan raqobat qiluvchi ikki — «yangi» va «eski» fraksiyalar shakllangan bo‘lib, ularning zaminida ikki mustaqil partiya vujudga kelgan.

¹³К.Х.Абдурахмонов,А.Н.Аллаяров,Р.В.Абдуллаев,Ю.Т.Дадобоев Корея республикаси:сиёсати,иқтисодиёти.маданияти.Тошкент2006й.476

Hukumatning o'z zimmasidagi vazifalarini va biror-bir masalani professionallik va halollik bilan bajara olishiga ishonch yo'qotgan reformatorlikka intilgan partiyalar va ularni qo'llab-quvvatlab turgan radikal kayfiyatdagi talabalar tashabbusni o'z qo'llariga olishga urinib ko'rdilar

Shunday qaltis damda siyosiy sahnaga harbiylar ko'tarildi. 1961 yilning 16 may kuni tongda ular davlat to'ntarishini amalga oshirib, boshqaruv jilovini o'z qo'llariga oldilar. Yashin tezligida va deyarli hech qanday qarshiliksiz hokimiyatni qo'lga kiritgan harbiylar darhol favqulotda holat e'lon qildilar, Milliy majlis tarqatib yuborildi, barcha siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlar faoliyati to'xtatib qo'yildi. Shu bilan birga harbiylar o'zlarining kuchlarini namoyish qilishga va o'zlari boshlagan ishning istiqbolli ekanligiga xalqni ishontirishga intilishdi. Harbiy-inqilobiy qo'mita nomidan (dastlabki paytlarda unda sud hokimiyati ham jamlangan edi) jamoatchilikka qaratilgan ommaviy bayonot e'lon qilindi. Bayonot tuzuvchilari «inqilobiy va'dalar» deb nomlagan ushbu rasmiy xujjatda quyidagilar to'g'risida so'z yuritiladi:

1. Aksilkommunizmni milliy siyosat oldida turgan birinchi galdagi vazifa deb hisoblangan holda, biz avvallari faqatgina quruq gaplardangina iborat bo'lgan aksilkommunistik kurashga qaratilgan qarashlarimizni qayta ko'rib chiqishimiz va uni mustahkamlab olishni maqsad qilib olamiz.

2. Biz quyidagi majburiyatlarni zimmamizga olamiz:

- BMT Ustaviga qat'iy amal qilishni, davlatlararo bitimlarga aniq rioya etishni, erkin, do'stona davlatlar bilan, birinchi navbatda Amerika Qo'shma Shtatlari bilan aloqalarni mustahkamlashni;

- sog'lom ruh qaddini rostdashi va bu bilan korrupsiya koreys jamiyatidagi eski nuqsonlarni tag-tomiri bilan qo'porib tashlashni, fuqarolik ahloqini va milliy xususiyatni sog'lomlashtirishni;

- nochorlik va afsus-nadomatlar iskanjasida ezilib yotgan xalqning ehtiyojlarini tezda qanoatlantirishni va barcha kuch va imkoniyatlarni mustaqil milliy iqtisodiyotni qayta tiklashga qaratishni;

- millat ko'zlagan oliy maqsadni, shuningdek davlat hududini birlashtirishni

amalga oshirish uchun butun faoliyatni kommunizmga qarshi tura oladigan kuchlarni birlashtirishni;

•ushbu vazifalar bajarilganidan keyin biz istalgan paytda hokimiyatni yangi va halol siyosiy arboblarga qo‘liga topshiramiz, shundan keyin o‘zimizning asosiy majburiyatlarimizni bajarish uchun qaytishga tayyormiz.¹⁴

Harbiy-inqilobiy komitetning bayonoti va sodir etilgan harbiy to‘ntarish mamlakatning o‘zida va uning tashqarisida turlicha qabul qilingan edi. Aholining aksariyat katta qismi, birinchi navbatda kam ta‘minlangan qatlami, harbiylarning haraqatlariga yoki sipolik bilan yoki umid va ishonch bilan munosabatda bo‘ladilar. Harbiylarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish 1960 yil aprel voqealari davrida armiya faqat fuqarolik ishlarini emas, siyosiy barqarorlikni ta‘minlaganlaridan keyin ortib ketgan.

Aksincha, eski qolipda fikrlovchi siyosiy arboblarga va ziyolilarga doirasida, shu jumladan, jurnalistlarga orasida harbiy to‘ntarishni tashvish va hadiksirash bilan kutib oldilar. Bu voqea ayrimlar uchun hokimiyatni uzil-kesil boy berishni anglatgan bo‘lsa, boshqalarga birlari mamlakatda hali tomir otib, mustahkamlana olmagan demokratiya niholi tag-tomiri bilan yulib tashlanishi mumkin, deb hadiksiray boshladilar. Harbiy to‘ntarishni harbiylarning o‘zlari ham yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlamadilar.

Hokimiyat tepasiga kelgan harbiylarda tom ma‘noda davlat boshqaruvi yuzasidan ko‘nikmalar bo‘lmagan. Ular davlat siyosatining turli sohalarida kattagina bilim va tajriba talab qilinadigan talay muammolarga to‘qnash keldilar.

Ammo harbiylar hokimiyati bunday holatdan qutilishning samarali yo‘lini topishdi. 22 may kuni, ya‘ni to‘ntarish sodir etilganidan bir hafta o‘tgach, harbiy-inqilobiy qo‘mitani Davlatni qayta tuzish kengashi (ROK) deb nomladilar va uning tarkibiga Koreya Respublikasi fanining vakillarini — taniqli iqtisodchilarni, atoqli siyosatchilarni, yuristlarni va ijtimoiy fanlar vakillarini va mamlakatda chindan ham islohotlarni amalga oshirish zarurligini, inqiroz sharoitida davlat mavqeini

¹⁴К.Х.Абдурахмонов,А.Н.Аллаяров,Р.В.Абдуллаев,Ю.Т.Дадобоев Корея республикаси:сиёсати,иқтисодиёти,маданияти.Тошкент2006й.526

tubdan ko‘tarish kerakligini tushungan fidoyi shaxslarni kiritganlar. Shundan keyin Koreya Respublikasi hokimiyatning oliy organi — VSGR — barcha qarorlari yuqori darajada savodxonligi, strategik jihatdan oldinga intilganligi, mamlakatdagi amalda vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda kechiktirib bo‘lmas vazifalarni hal qilishga intilish va bu yo‘lda past-balandni hisobga olib ish qo‘rishni nazarda tutishi bilan ajralib turgan.

Bir yarim oy mobaynida qishloq xo‘jaligiga dahldor bo‘lgan bir qator keskin choralar ko‘rildi. 10 iyunda qishloq va baliq ovlash xo‘jaliklarining sudxo‘rlikdan to‘planib qolgan qarzlarini yengillashtirish to‘g‘risida Qonun, 27 iyunda — «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxlarini qo‘llab-quvvatlab turish to‘g‘risida»gi Qonun, 29 iyulda esa — «Qishloq xo‘jalik kooperatsiyalari to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu choralarning barchasi dehqonlar va baliqchilar zimmalaridagi qarz yukini yengillashtirishga, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini har tomonlama rivojlantirish uchun ko‘mak berishga, eng muhimi — qishloqda pul-tovar munosabatlarning normal rivojlanishi uchun yo‘l ochib berishga qaratilgan edi.

Harbiylar tomonidan qabul qilingan choralar amalda natijalar keltira boshladi. 60-yillarning o‘rtalariga kelib dehqon xo‘jaliklarida olingan o‘rtacha daromad shaharliklar oladigan o‘rtacha daromad darajasidan ortib ketganligining o‘zi shundan dalolat berib turibdi. Shaharlik tadbirkorlar ham unutilgan emasdi: 1 iyulda «Kichik va o‘rta korxonalarni Bank krediti bilan ta‘minlash to‘g‘risida» qonun e‘lon qilindi.

Qishloq xo‘jaligi sohalariga va kichik hamda o‘rta tadbirkorlik uchun bank kreditini soddalashtirish choralari bilan bir qatorda; harbiylar hokimiyati bir vaqtning o‘zida iqtisodiy taraqqiyotning keng ko‘lamdagi bir butun dasturini ishlab chiqishdi. 1961 yilning 18 iyulida iqtisodiyot sohalaridagi favqulodda choralar, to‘rt kun o‘tgach 22 iyulda besh yillik rejalar zaminida kompleks (bir butun) rivojlanish dasturi loyihalari e‘lon qilindi. Dasturda mamlakatni 20 yilga mo‘ljallangan industrlash istiqboli qo‘zda tutilgan. Ushbu loyiha harbiy

to'ntarishdan keyingi e'lon qilingan bir qator iqtisodiy tadbirlarni tugallangan natijasi bo'ldi.

Harbiy rahbarlar Yaponiyada amalda qo'llanib kelingan va shubhasiz VSGR tarkibiga kirgan Koreya Respublikasi olimlari tomonidan sinchiklab o'rganib chiqilgan rejalashtirishga o'xshab ketadigan tizimni tanladilar. Koreya Respublikasi sharoitida rejalashtirish faqatgina bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib, boshqarib turish vazifasi, tartibga solib turish vositasi sifatida yuklatilgan va aslo ma'muriy-buyruqbozlikni nazarda tutmagan.

Mamlakatni industrlash dasturini e'lon qilar ekan, harbiy rahbarlar uning boshlangich bosqichida ishlab chiqarish korxonalari son-sanoqsiz ishchi kuchlari talabini tezda qondira olmasligini anglab yetganlar. 1962 yilning 9 martida chet elga ko'chish to'g'risidagi qonun e'lon qilindi va shu yo'l bilan ishsizlik muammosini biroz bo'lsada ozaytirishga harakat qilganlar. Bundan tashqari, hokimiyatdagilar ikkinchi Respublika davrida hal etilmagan yoki poyoniga yetkazilmagan muammolarni ham hal qilishga kirishdilar. Jumladan, 14 iyunda «Qonunga xilof ravishda yig'ilgan mol-mulkni tasarruf qilish to'g'risida»gi Qonun, 22 iyunda — «Alohida jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jazolash to'g'risida»gi maxsus qonun e'lon qilindi. Keyingi qonun ta'siri ostida asosan islohot o'tkazishga uringan kuchlar vakillari (shu jumladan Sotsialistik partiyaning oliy rahbarlari, Sotsialistik va Birlashgan sotsialistik partiya rahbarlari), shular qatori mamlakatning birlashishi uchun harakat qilgan talabalar tashkilotlari vakillari tushganlar. Ushbu partiyalar sotsial-demokratik g'oyalarni targ'ib qildilar va oliy maqsadlari, umumiy bir bayroq ostida birlashdilar.

1962 yilning 17 dekabrda referendum o'tkazilgan bo'lib, unda harbiylar tomonidan tuzilgan, boshqaruvning prezidentlik shaklini qaytadan tiklagan yangi konstitutsiyaning loyihasi umumxalq ovozi bilan ma'qullangan.

1963 yilning boshida konservativ siyosiy partiyalar faoliyati qaytadan tiklangan. 26 fevralda iqtisodiy va siyosiy islohotlarning chinakam tarafdorlari tomonidan Respublika Demokratik partiyasi tuzilib va u hukmpon partiya bo'lib

qolgan. Birmuncha muddat o'tgach bosh muxolifatchi partiyalar: 14 mayda fuqarolik boshqaruvi partiyasi va 18 iyulda Demokratik partiyasi ham tuzilgan.

1963 yilning 15 oktyabrida prezidentlik saylovlari bo'lib, unda iste'foga chiqqan general Pak Chonxi davlat boshlig'i etib tayinlangan. 26 noyabrda Milliy majlisga ishi saylovlar o'tkazilgan va unda jami o'rinlarning 2/3 qismini Demokratik partiya vakillari egalladi.

Yangicha ish tutuvchi siyosatchilarning referendumda ham, saylovlarda ham g'alaba qozonishi bevosita harbiylar boshqargan bir yarim yil mobaynida o'tkazilgan bir qator iqtisodiy va siyosiy tadbirlar bilan zamin tayyorlagan edi. Saylovlar va referendumning natijasini, eng avvalo, o'z hayotlarida ro'y berayotgan ijobiy tomonlarni kundalik turmushida his qilayotgan ko'p millionli dehqonlar ommasi hal qilib qo'ygan edi.

Parlamentda aksariyat ko'pchilikni tashkil qilishlaridan foydalangan hukmron doira har qanday (hatto eng ommaviy bo'lmagan) qarorlarni o'tkaza olar edilar va umuman olganda, qonunchilik tartibida eskidan qolgan va juda mif rivojlangan bozor munosabatlaridan xozirgi zamon talablariga javob beradigan va rivojlangan bozor munosabatlariga o'tishni amalga oshira olar edilar, ya'ni ular qonun bilan juda jiddiy iqtisodiy va ularga mos keladigan siyosiy islohotlarni «joriy» eta olar edilar.

Moliya resurslari va zamonaviy texnologiyalar o'ta taqchil bo'lib turgan bir sharoitda Seul hokimiyati 1965 yilda ko'pchilik uchun unchalik ommaviy bo'lmagan juda mas'uliyatli va o'ta qaltis qadam qo'yishga — Yaponiya bilan munosabatlarni barqarorlashtirishga qaror qildi. Natijada Yaponiyadan o'sha davrda juda zarur bo'lgan pul mablag'lari va texnologiyalar kelib tusha boshladi. Xorijiy valyuta zahiralarini to'ldirishga intilib ish tutgan Koreya Respublikasi rahbarlari yana bir o'ta mas'uliyatli qarorni qabul qilib harbiylarni va ishchi kuchlarini Janubiy Vetnamga yubordilar.

Konstitutsiyaga ko'ra, iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi joriy etilgan edi. Davlat boshchiligida iqtisodiyotning hal qiluvchi, shu davrda birinchi

galda alohida e'tibor qaratilishi talab qiladigan sohalarda davlat korporatsiyalari tuzilgandi.

Keltirilgan dalillarga yakun yasar ekanmiz, Koreya Respublikasidagi hukmdorlarning siyosiy qarorlari iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoniga kattagina ulush qo'shgan, deb ta'kidlash mumkin bo'ladi.

Usha yillari Koreya Respublikasida 30 dan ortiq davlat korporatsiyalari tuzilgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligi va o'rmonchilikda, mashinasozlik, neft va kimyo sanoatida, energetika, toshko'mir va tog'-kon sanoatida, shuningdek, turizm, radioeshittirish va televidenie, turar joy va yo'l (birinchi navbatda avtostradalar yotqizishda), metropoliten qurilishida va shu kabi sohalarda ish ko'rar edilar.

Yuqorida keltirilgan qisqagina ro'yxatdan ham davlat korporatsiyalari iqtisodiyotning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarida, xalq xo'jaligining yuksalishiga va Koreya Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishiga imkon beradigan sohalarda tuzilganligi ko'rinib turibdi. Shunisi diqqatga sazovorki, bunday korporatsiyalar ustav jamg'armasidagi davlatning ulushi unchalik salmoqli bo'lmagan (qolgan mablag'lar xususiy firmalardan jalb etilgan), shunga qaramay har bir davlat korporatsiyasi 12 vazirlik ixtiyorida qolavergan va ular tomonidan nazorat qilib turilgan.

Odatda, davlat korporatsiyalari endi faoliyat boshlagan vaqtda oyoqqa turib olish uchun kompaniyalar tashkil qila olmagan, xususiy kapital bilan boshqariladigan tarmoqlarda tashkil etilgan, biroq bu korporatsiyalar oyoqqa turib va musthkamlanib olganidan keyin xususiy qo'llarga o'tkazib yuborilgan. Butun dunyoga mashhur bo'lgan KAL aviakompaniyasi ham ayni shunday taraqqiyotni boshidan kschirgan, ya'ni dastavval u hukumat nazoratida bo'lgan edi. Davlat xususiylashtirish jarayonini faol izga solib va muvofiqlashtirib turgan. Hukmron oliy tabaqa hech qachon mulkchilik munosabatlarini bir martaning o'zida o'zgartirishni, isloh qilishni xayoliga ham keltirmagan. U asta-sekinlik bilan, qadamma-qadam iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishga, mulkchilikning turli shakllarini joriy etilishiga imkon bergan.

Industriyalashtirish davrida sanoat komplekslarini va erkin iqtisodiy hududlarni yaratish bo'yicha davlat korporatsiyalari tashabbus bilan chiqdilar. Davlat korporatsiyalari faoliyati sohalari sanoatning biror tarmogini rivojlantirish yuzasidan tuzilgan davlat dasturlari bilan belgilab berilgan, biroq muayyan loyihani amalga oshirish uchun xususiy sarmoyalar jalb etilgan. Bunday amaliyot xususiy korporatsiyalarning shakllanishida va mustahkamlanib olinishida juda katta samara berdi.

Industriyalashning 20 yillik dasturi e'lon qilinganidan keyin, yangidan barpo etilayotgan xususiy firmalar hukumat tomonidan strategik jihatdan muhim deb belgilab berilgan tarmoqlarga intila boshlaganlar.

Xususiy korporatsiyalar davlatning bevosita qo'llab-quvvatlashi tufayli rivojlangan va taraqqiy eta boshlagan. Bu hukumatning ular uchun imtiyozli kreditlar berilishi, imtiyozli soliq belgilanishi, bojxona stavkalarining kamaytirilishi, shuningdek, xususiy firmalarning xorijdan olgan qarzlarini qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlanganligi bilan ifodalanadi. Hukumat bunday yordamlarni agarda xususiy firmalar belgilagan loyihalar chindan ham mamlakat iqtisodiyoti uchun xayotiy ahamiyatga ega, deb hisoblagan taqdirda bergan. Aksincha, industriyalash harakatiga qo'shilmagan, kelajak istiqbolida rivojlanishi kutilmagan loyihalar qo'llab-quvvatlanmadi. Xususiy kompaniyalarning jahon bozoriga chiqishlari mamlakatga xorijiy sarmoyalarni va zamonaviy texnologiyalarni olib kirishni ta'minlagan, bu esa mamlakat taraqqiyoti bilan xususiy kompaniyalarning yanada rivojlanishi uchun zamin tayyorladi.

Shu bilan birga, hukumat xususiy kompaniyalar o'rtasidagi raqobat ularning o'zlariga ham, davlat manfaatlariga ham zarar keltirmasligi ustidan nazorat o'rnatib turdi.

**Koreya Respublikasi ITTKI milliy loyihalarga ajratilgan investitsiyalar
(mln.doll.)**

Investorlar	1982-1991	1992	1993	1994	1995	1996
Davlat investitsiyalari	716,3	162,5	127,8	182,6	250,1	1439,3
xususiy investitsiyalar	489,1	100	180,6	179,0	271,6	1220,3
jami:	1205,4	262,5	308,4	361,6	521,7	2659,6

Manba: Koreya Respublikasi Fan va texnika vazirligi

<http://park.org/korea/pavilions/publicpavilions/government/policy2.htm>

Davlat va xususiy korporatsiyalarning ravon rivojlanganligi tufayli Koreya Respublikasining iqtisodiy taraqqiyoti anchagina yuqori darajaga ko'tarildi. Ular hamjihatlikda, bir-birlariga xalal bermay, aksincha vatan manfaatini ko'zlab, uyg'unlashgan holda harakat qilganliklarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

Davlat va xususiy kapitalning bir-biri bilan o'zaro kirishib ketishi natijasida davlat-xususiy moliya-sanoat guruhlarini vujudga kela boshladi. Qolgan boshqa sohalarda ham boshqaruvning tubdan yangi yo'nalishi qo'llanishi Koreya Respublikasining 30 yil ichida qoloq va qashshoq mamlakatdan sanoati taraqqiy etgan mamlakatlardan biriga aylanib ketishini hal qilib berdi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, harbiylar hokimiyatni qo'lga kiritganlaridan keyin ular o'zlari tuzgan hukumatdagi barcha yetakchi lavozimlarni egallab olgan edilar. Biroq, oradan ko'p o'tmay, ular harbiy bilim yurtlarida va kollejlarda olgan bilimlari mamlakatni boshqarish uchun yetarli emasligi ochiq va oshkor bo'lib qoldi. Aynan shuning uchun ham harbiy to'ntarishdan ko'p o'tmay harbiylar fuqarolarga hos bo'lgan ixtisosliklarni egallashlari tomon yo'l tanlangan. Generallarga va oliy martabali ofiserlarga davlatga qarashli yoki xususiy universitetlarning aspiranturalariga o'qishga kirish topshirig'i berilgan bo'lib, ular ommaviy ma'muriy va tadbirkorlik menejmenti bo'yicha ixtisosliklarni

egallaganlar. Bunday yangilikning joriy etilishi natijalarini ko'p kutishga to'g'ri kelmadi. Hukumat a'zolari o'rtasida fan doktori unvoniga ega bo'lish odatdagi bir holga aylanib qoldi. o'zi egallagan lavozimning asosiy vazifasi mazmunini chuqur anglab yetish, o'tkir zehn va professional fazilatlarga aylangan edi. Hukumat idoralari xodimlarining ahloqiy qiyofasiga ham alohida e'tibor qaratilgan edi.

Bundan tashqari, harbiy to'ntarishdan keyin taniqli olimlarni (iqtisodchilar, huquqshunos, siyosat bo'yicha mutaxassislar va shu kabilarni) davlat ekspertlari sifatida jalb qilish tobora keng miqyosda kundalik amaliyotga kirib bordi.

Yuqorida aytilganlarga yakun yasar eqanmiz, Koreya Respublikasidagi turmushning turli sohalarida islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qilingan ishlardan ibrat oladigan jihatlar ham oz emas edi. Hokimiyattepasida birining o'rniga ikkinchisi kelgan harbiy hukmdorlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning samarali yo'llarini topdilar. Iqtisodiyotni qaytadan tiklash va taraqqiy ettirish uchun aniq maqsadlarni qo'zlagan ishlarni tashkil qilish bilan bir qatorda, ular o'zlari amalga oshirayotgan qayta islohotlarni siyosiy jihatdan asoslash masalalariga ham katta e'tibor berganlar.

3.Koreya Respublikasi ta'lim tizimi va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlari

Koreya Respublikasida zamonaviy ta'lim tizimining qaror topishi 1945 yillardan, ya'ni mamlakatning yapon hukmronligidan ozodbo'lgan davrdan boshlanadi.1945 yildan 1970 yillargacha ta'lim tizimi, ayniqsa, jadal rivojlandi. 1950-53 yillardagi Koreya urushi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotishlar va vayronagarchiliklarga qaramay, Koreya Respublikasida savodsizlikni tugatishga qat'iy kirishildi. 1968 yilda qabul qilingan Milliy ta'lim xartiyasi koreys xalqi mentaliteti va vatanparvarligining o'ziga xos tomonlarini yorqin ifoda etadi¹⁵.

Koreya Respublikasida yaxshi ma'lumotga ega bo'lish har bir koreys fuqarosining muvaffaqiyatli karerasining qaror topishida hal qiluvchi ahamiyatga

¹⁵Becker G.S. The Human Capital. –Chicago: University of Chicago Press, 1964. –P. 153.

ega. Shuning uchun ham, oliy o'quv yurtiga kirish yuqori darajali nufuzga egadir. Koreya davlat ma'muriy organlari ta'lim sohasini tartibga solib va boshqarib turadilar. Koreya ta'limi tizimida matematika, koreys va ingliz tillariga, aniq va ijtimoiy fanlarga alohida e'tibor qaratiladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari mamlakatda ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Barcha ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi Internetga ulanish ta'minlangan. O'quv yili ikki semestrga bo'lingan bo'lib, birinchisi martda boshlanadi va iyul o'rtalarida tugaydi, ikkinchisi esa kech avgustda boshlanib, fevral o'rtalarida nihoyasiga yetadi. O'quv yili qat'iy tarzda belgilanmagan va bir muassasada boshqasidan farq qilishi mumkin.

Koreya Respublikasida ta'lim masalalari bilan Ta'lim Vazirligi shug'ullanadi. 2001 yildan Kim De Chjun ma'muriyati fuqarolarning sifatli ta'lim olishi va umuman inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni boshlab berdi, natijada avvalgi vazirlik zimmasiga yana bir qator qo'shimcha vazifalar yuklatilib, ularning vakolatlari kengaytirildi, ular inson taraqqiyoti bo'yicha barcha masalalar bilan shug'ullana boshladilar, maorif vaziriga bosh vazir o'rinbosari lavozimi berildi. Vazir prezident tomonidan qisqa muddatga (taxminan bir yil) tayinlanadi.

Koreyada Respublikasida bolalar bog'chalari umumiy ta'lim dasturining bir qismi hisoblanmaydi, ota-onalar bolalarni xususiy muassasalarga topshiradilar. Bolalar bog'chasiga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Olti yoshga to'lgan bolalar odatda maktabga boradi. 1980-yilda mavjud 901 ta bolalar bog'chalari va maktabgacha muassasalarga 66 433 bola borgan bo'lsa, 1987 yilda esa 7792 ta ana shunday muassasa mavjud bo'lib, ulardagi bolalar soni 397020 taga yetdi. O'z navbatida ulardagi tarbiyachi va o'qituvchilar soni ham ortdi, ularning katta qismini ayollar tashkil etdi.

Boshlang'ich maktabga bolalar 8 yoshdan 14 yoshgacha qatnaydilar (G'arb davlatlarida mos ravishda 6 va 12 yosh), ta'lim davomiyligi olti yil. Asosiy o'qitiladigan fanlar: koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyatshunoslik, tillar, tasviriy san'at, musiqa. Odatda, bu fanlarning barchasini bitta o'qituvchi o'qitadi, chet tillaridan tashqari. Ta'lim tizimining bosqichlari bo'yicha oliy maktabgacha ko'tarilish turli sinov imtihonlari orqali, biroq qat'iy yosh bo'yicha amalga

oshiriladi. XX asr oxirlariga qadar ingliz tili oʻrta maktablardan boshlab oʻqitilgan, biroq hozirda uchinchi sinfdan boshlanadi. Koreys tiliga oʻqitish grammatik jihatdan murakkab boʻlgani uchun, bir qator ota-onalar fanzandlarini qoʻshimcha tarzda xususiy maktablar – xagvonadaoʻqitadilar. Umumiy maktablaridan tashqari mamlakatda xususiy maktablar ham mavjud boʻlib, ularda oʻquv dasturi deyarli davlat dasturiga muvofiq kelsa-da, ancha yuqori darajalarda joriy etiladi: masalan, davlat maktablaridan farqli ravishda ularda oʻquvchilar soniga toʻgʻri keladigan oʻqituvchilar soni koʻproq miqdorni tashkil etadi, qoʻshimcha fanlar koʻproq oʻqitiladi va nisbatan yuqori taʼlim standartlari joriy etiladi. Shunday ekan, ota-onalar koʻproq xususiy maktablarni tanlaydilar, faqat xususiy maktabdagi narxlar bunga toʻsqinlik qiladi.

Boshlangʻich maktablar avvaliga koreyscha “chxodin xakkyo” deb atalgan.1996 yilda mamlakat hukumati bu nomni oʻzgartirdi, ular “gukmin xakkyo”, yaʼni “fuqarolar maktabi” deb atay boshlandi.

Koreyada maktab taʼlimi oʻrta va oliy bosqichga boʻlinadi. Oliy taʼlimning ahamiyati qanchalar yuqori ekanini eʼtiborga olgan holda, yildan-yilga oliy taʼlim olishga intilish kuchayib bormoqda.Barcha oʻquvchilarning 60 foizi oliy oʻquv muassalarida oʻqishni davom ettirsalar, maʼlum qismi kasb-hunar bilim yurtlariga oʻqishga kiradilar. Ularda quyidagi sohalar boʻyicha taʼlim beriladi:

- xoʻjalik ishlarini yuritish;
- baliqchilik;
- tijorat;
- savdo;
- kemasozlik;
- muhandislik ishlari;
- har turdagi sanʼat sohalari.

Oʻrta maktabga kirish imtihonlari 1968 yilda bekor qilingan. Biroq ushbu islohot maktablarni tenglashtirmadi.Sinflar 1 dan 12 gacha oʻsib boradigan AQShdan farqli ravishda, Koreyada boshlangʻich, oʻrta va oliy maktablar har safar birinchi sinfdan boshlanadi. Ularni farqlash uchun, masalan, “oʻrta maktabning

birinchi sinfi” – “chungxakkyo il xaknyon” deb nomlanadi.

Koreys tilida oʻrta maktab “chunxakyo” deb ataladi. Koreys oʻrta maktabi 3 sinfdan iborat. Koʻpchilik unda 12 yoshdan boshlab oʻqiydi. Mazkur uch yil Amerikaning 7-9-sinflariga toʻgʻri keladi. Boshlangʻich sinflarga nisbatan Janubiy Koreya oʻrta maktabi oʻquvchilarga ancha yuqori talablar qoʻyadi. Har bir fan alohida oʻqituvchi tomonidan oʻqitiladi. Oliy oʻquv yurtlaridan farqli ravishda oʻquv dasturi bir oʻrta maktabda boshqasidan farq qilishi mumkin. Oʻquv dasturi negizini matematika, koreys va ingliz tillari, shuningdek, aniq fanlar tashkil etadi. Qoʻshimcha fanlar sanʼatshunoslik, jismoniy tarbiya, tarix, xanchcha (xitoy ieroglifikasi), etika, uy xoʻjaliklari yuritish, kompyuter savodxonligi darslaridan iborat. Fanlar yildan-yilga oʻzgarib boradi. Oʻqish haftada besh kun davom etadi, oltinchi kuni oʻquvchilar biror bir toʻgarakka qatnashishlari shart. Yaqin kunlarga qadar maktablarda oʻgʻil va qiz bolalar alohida oʻqitilgan, biroq soʻnggi yillarda har ikki jins aralash oʻqitilmoqda.

Oʻquvchilar bahosidan qatʼiy nazar bir sinfdan ikkinchisiga koʻchirilaveradi. Baho faqat maktabning soʻnggi yilida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ular oʻquvchining oliy oʻquv muassasasiga oʻqishga kirishida katta rol oʻynaydi. Koʻpgina oʻquvchilar oʻrta maktab darslaridan soʻng qoʻshimcha kurslarga (xagvon) qatnaydilar. Ularda ingliz tili va matematikaga alohida eʼtibor qaratiladi. Koreyscha oliy maktab “kodinxakkyo” deb ataladi. Oliy maktabga 17 yoshda kirib, uni 19 yoshda tugatadilar. Maktablar u yoki bu talabaning qiziqishlariga va kelgusida uning kasbi uchun muvofiq keladigan ixtisoslashtirilgan boʻlimlarga boʻlinadi. Masalan, “ilmiy” oliy maktablar, xorijiy tillar vasanʼatshunoslik maktablari mavjud. Ularning barchasiga talaba kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgach qabul qilinadi.

Oliy maktablar umumiy va xususiy boʻladi. Bunday maktablar maʼlum bir mutaxassislik bermaydi, ular talabani kollejga kirishga tayyorlaydi. Maʼlum sabablarga koʻra kollejga kirish istagi boʻlmagan talabalar uchun maxsus kasb-hunar bilim yurtlari mavjud. Ular texnologiya, agro yoki moliya sohalariga ixtisoslashgan boʻladi. Oʻrta maktabdan farqli ravishda oliy maktabda oʻqish

majburiy hisoblanmaydi. Biroq shunga qaramay, 2006 yilda koreys yoshlarining 97% oliy maktabni tugalladilar. Bu esa barcha mamlakatlar orasida eng yuqoriko‘rsatkichdir.

1.3-jadval

Oliy ta’lim tuzilmasi

Muassasa	Olinadigan ma’lumot
Kollej	Kasbiy ta’lim
Universitet	Oliy ma’lumot
	Umumiy maktab
	Xususiy maktab
Aspirantura	Magistr (2 yil)
	Amaliy boshqaruv magistri (MBA) (1 yoki 2 yil)
	Fan nomzodi (P. D.) (4 yil)

Manba: Koreya Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi ma’lumotlari

Oliy maktab talabalarining katta qismi yil oxirida kollejlarga o‘qishga kiradilar. Talabalar “sunin” (4%) - standart test topshiradilar. Shuni ta’kidlashjoizki, ko‘pgina maktab o‘quv dasturlari kirish imtihonlari doirasi mazmunida bo‘ladi. Mazmuniga ko‘ra sunin Amerikaning SAT Reasoning testiga yaqin bo‘lib, uchta asosiy seksiyadan iborat: koreys tili, matematika va ingliz tili. Ulardan tashqari tanlov bo‘yicha bir qator ijtimoiy yoki tabiiy fanlardan iborat.

1980-yillar oxiridan universitetlarga kirish koreys yoshlari uchun eng muhim maqsadga aylandi. Universitetlarning eng nufuzlisi Seul milliy universiteti, Koreya Advanced Institute of Science and Technology, Pusan milliy universiteti, shuningdek, bir qator xususiy institutlar: Koreya universiteti, Poxang fan va texnologiyalar universiteti, Yonseyuniversiteti, Sogang universiteti, Anyang universiteti, Sungkyunkwan universiteti va Ewa ayollaruniversitetlari sanaladi.

Koreya Respublikasida oliy ma’lumot oluvchi talabalar soni 1960 yildagi 100 000 dan 1987 yilda 1,3 mln.ga etdi, bu natija bo‘yicha mamlakat dunyoda AQSh dan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Oliy o‘quv muassasalariga to‘rt yillik kollejlardan

va universitetlar, ikki yillik kichik kasb-hunar kollejlari, to'rt yillik o'qituvchilar kollejlari, shuningdek, aspirantura kiritiladi.

Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, Janubiy Koreyada universitetlarni tugatib diplomga ega bo'lish muvaffaqiyatli ish o'rni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash omili hisoblanadi.


Davlatning ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan islohotlari natijasida Koreya Respublikasi ba'zi bir ko'rsatkichlar bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Quyida keltirilgan jadvallar asosida Koreyada yarim asr davomida ta'lim tizimining naqadar rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Maktablar, pedagog va talabalarning o'sish sur'atlari davlatning ta'lim sohasida yuritayotgan siyosatini to'liq oqlaydi. Janubiy Koreya ta'lim tizimi yana bir umumjahon an'anasi - ta'lim va ilm-fanni integratsiyalashuvini amalga oshirmoqda. Jahon tajribasida bu kabi o'quv muassasasi bilan ilmiy tadqiqot institutlarini o'zida jo etgan konglomeratlar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bu holat fan va ta'limning integratsiyalashuvi uchun real asos bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta'lim siyosatini olib borishga imkon yaratadi. Integratsiyalarning eng samarali shakli bugungi kunda oliy o'quv muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlari birlashuvi hisoblanadi. Bu kabi eng yuqori rivojlanishga AQSh ilmiy tadqiqot universitetlari erishgan, ularning soni 104 taga etgan bo'lib, byudjeti 1 dan 3 mlrd.gacha o'zgarib turadi.

Koreya Respublikasi sanoati tuzilmasining texnologik yangilanishi jarayonini tahlil qilar ekanmiz, bu yangilanish 1985—1989 yillarda hukumatning narx-navolarni barqarorlashtirish siyosati birinchi ijobiy natijalar berayotgan davrda, ayniqsa, keng quloq yoya boshlaganligini ta'kidlab o'tish darkor. Aynan shu davrda qayta ishlash sanoatida qiyinchilik bilan jadallashadigan va ko'p bilimlarni talab etadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va joriy etish xususidagi tadqiqot ishlariga yirik sarmoyalarning sarflanganligi kuzatilgan. Shu yillarda yangi turdagi mahsulotlar (yarim o'tkazgichlar, videomagnitofonlar, avtomashinalar, shaxsiy kompyuterlar, tashkiliy texnikalarning, mikro to'lqinli pechlar, magnitofon tasmalari va shu kabilar)ning ishlab chiqarish sohalaridagi ITTKI ishlariga har

yilgi investisiyalar hajmi 82,5% dan ortgan. Ayni shu muddatichida avtomobilsozlik, elektron va elektrotexnik sanoatdagi ITTKIga kilingan xarajatlarning o'sish sur'atida 168,7 va 149,8% ga yetgan.

1.1-rasm

Ayrim mamlakatlarda fan va ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan xarajatlar (YAIM dan foizi)




Manba: Otchet_EUSPb_South-Korea.2012

Osiyo Tinchokean mintaqasida kelajakda 4-iqtisodiyot mamlakati maqomiga (Yaponiya, Xitoy, Hindistondan keyin) ega bo'lib, jahonda iqtisodiy darajasibo'yicha 10 o'ringa chiqib olish maqsadlarga erishish uchun KR asosan ilmiy texnikani rivojlantirib AQSh, Yaponiya,Xitoy, Yevropa ittifoqi, shuningdek Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik olib borishga harakat qilgan. Shundan kelib chiqib KR «577dasturini» ishlab chiqdi.Ilmiy texnika tadqiqodlari uchun 7 ta texnologik yo'nalishlar belgilanib, YaIM dan 5% aynan shu sohalarga ajratildi.

1. 2-rasm

Texnologiyalarni mamlakatlarda iste'mol qilish hajmi 2011 yil



Manba: Otchet_EUSPb_South-Korea.2012

Mamlakatda deyarli yana bir qator energiya saqlash texnologiyalari hozirgi kunda faoliyatni olib bormoqda. Xususan elektrostansiyalarda shamol va quyosh energiyasi orqali olinishi yo'lga qo'yilgan. 2030 yilga kelib rejaga ko'ra energiyani iste'mol qilish 13%gacha tashkil etlishi maqsad qilingan. Muqobil energiya manbalarini shakillantirish uchun KR hukumati tomonidan oxirgi yillarda 2 mlrd. doll pul mablagi ajratilgan.

1960 yillar boshida Janubiy Koreya hukumati fan va texnikaga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi eng muhim omili sifatida e'tiborini qaratgan. Fan va texnikani rivojlantirish rejalari iqtisodiy strategiyalar bilan birgalikda olib borildi. Sanoatlashishning fan va texnika sohasiga yordam berish masalasi 3 bosqichda amalga oshirilgan.

1960 yillar sanoatlashish, fan va texnikaning asosiy yo'nalishi fan va texnika darajasini ko'tarishga tayyorgarlik, texnik infrastrukturani tashkil etish va xorij texnologiyalariga yordam berishdan iborat bo'lgan. Bu davrda Fan va Texnika Vazirligi bu faoliyatni boshqarish yuzasidan chaqirilib, markaziy hukumat organi tashkil etilgan. 1967 yilda esa "Fan va texnikani rivojlantirish haqidagi" qonun qabul qilingan.

Ikkinchi bosqich 1970-yillarga to'g'ri kelib, asosiy e'tibor og'ir va kimyo sanoatining rivojlanishiga qaratilgan. Bu davrda davlatning yordami bilan

mashinasozlik, kemasozlik, okeanologiya, elektronika, elektr quvvati va boshqa sohalarga ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi. 1970-yillar "Texnikani rivojlantirish to'g'risidagi" qonun va "Injenerlik xizmatini rivojlantirish to'g'risidagi" qonun qabul qilingan.

Ilmiy tadqiqotlarning yirik samaradorligi uchun institutlar, universitetlar, akademik muassasalar va sanoat tashkilotlarining hamkorlikdagi harakatlari orqali alohida olingan yirik masshtabli loyihalar ustida ishlashni amalga oshirish bilan bir vaqtning o'zida ilmiy tadqiqot faoliyatini chet ellik mutaxassis va olimlar bilan hamkorlikda yordam berish va horijiy kapital bilan qo'shma tashkilotlarni tashkil etish kengaytirildi. Davlatlar orasida o'zaro bilim va tajriba almashish orqali ular o'z malakalarini oshirishdi va yangidanyangi ixtirolar kashf etishni yo'lga qo'yishdi.

Uchinchi bosqich.1980-yillarni o'z ichiga olib, hukumat iqtisodiyotning shaxsiy va davlat sektorlarida ilmiy tadqiqot va ularni qayta ishlash masalasi bo'yichatalabning tez sur'atlarda oshishini qondirish maqsadida yuqori malakali mutaxassis va olimlarni tayyorlash bo'yicha harakatlarni davom ettirgan. 1991 yilda mamlakatda 76252 nafar olim va muhandislar bo'lib, 10 ming aholiga 17,6 nafar ilmiy ishchilarga to'g'ri kelgan va davlat uchun ishchilarsoni yetarli darajada emas edi. 1990-yillarda Koreya hukumati 2000 yilgacha mamlakatni rivojlangan davlatga aylantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Koreya Respublikasida ilmiy-texnik tadqiqotlarni 5 ta yo'nalishini rivojlantirish siyosati olib borildi.

Birinchi yo'nalishga iqtisodiy foydani tez olish mumkin bo'lgan sohalarga yo'naltirilgan edi. Masalan, informatika, kimyo texnologiya va mashinasozlik sohalaridir. Ikkinchi yo'nalishga omad kelishini o'rtacha vaqt oralig'ida kutishmumkin bo'lgan biotexnologiya va yangi materiallarni ishlab chiqarish sohasi kirgan. Uchinchi yo'nalishda butun jamiyat uchun muhim rol o'ynaydigan ilm-fan sohasi va atrof muhitni himoya qilish, sog'lik va aholining osoyishtaligi bilan bog'liq masalalar joy olgan. To'rtinchi yo'nalishni o'rta yo uzoq muddatli natija berish sharti bilan okeanografiya va aeronavtika tashkil etgan. Beshinchi yo'nalish

iqtisodiy foyda olish muddatiga bogʻliq boʻlmagan holda fan va texnikaning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan edi.

1.4-jadval

Koreya Respublikasida fan va texnika sohasini moliyalashtirish va davlat dasturlari

Yil	Hozirginarx		YAMMdagi ush	YAIMdagi us
	Tad./Rivoj.xarajatlari	O'sish ko'rsatkichi		
2001	161,105	16,3	2.48	2.47
2002	173,251	7,5	2.40	2.40
2003	190,687	10,1	2.48	2.49
2004	221,853	16,3	2.68	2.68
2005	241,554	8,9	2.79	2.79
2006	273,457	13,2	3.00	3.01
2007	313,014	14,5	3.20	3.21
2008	344,981	10,2	3.35	3.37
2009	360,211	8,5	3,36	3,39
2010	402,108	10	3,46	3,48
2011	448,575	12,5	3,60	3,61

Manba: Otchet_EUSPb_South-Korea.2012

Koreya Respublikasida tadqiqot va rivojlanish sohasiga, fan va texnologiyalarni rivojlantirishga 2011 yilda YaIMning 3.60% nisarfladi. AQShda ushbu ko'rsatkich 2.68% nitashkilqildi.

1.5- jadval


Rivojlangan mamlakatlar fan va texnika rivojlanishiga sarf qilgan harajatlarning YaIMdagi ulushi.

Davlatlar	Riv./tadqiqot harajatlari (million dollar)	YaIMdagi ulushi(%)	Rivojlanish va tadqiqot harajatlarning kishi boshiga taqsimlangan YaIM bo'yicha
Korea(2011)	41,288	3.60	780
A.Q.Sh(2010)	369,799	2.68	1,321
Yaponiya(2010)	188,791	3.44	1,280
Germaniya(2010)	94,232	2.54	1,124
Fransiya(2010)	63,883	2.08	878
B.Britaniya(2010)	60,289	1.79	847
Finlandiya(2011)	10,442	3.46	1,877
Shvetsiya(2010)	17,336	3.60	1,886
Xitoy(2010)	49,771	1.49	47

Manda: Suslina S.S. Промышленность Республики Корея М.

1.3-rasm

YaIM ga nisbatan ilmiy tadqiqodlar xarajati




Manba: Otchet_EUSPb_South-Korea.2012

Koreya Respublikasida rivojlangan va sanoatlashgan jamiyat qurish rejalarini amalga oshirish uchun mamlakatga yaxshi tashkillashtirilgan ilmiy-texnik baza kerak edi. Shu maqsadda 1974 yilda Tedjon shahrida 28 kv.km lik Tedoka ilm-fan shahrining qurilishi boshlandi. Dastlab Tedok shahrida 12 ta davlat va 3 ta xususiy

institut va 3 ta universitet bo'lgan. Seuldan 150 km janubda joylashgan Tedjon shahrining shimoliy qismida yangi yo'llar qurilgan, suv va elektr energiyasi bilan ta'minlovchi tizim barpo qilingan va aloka tarmog'i o'rnatilgan. Vaqt o'tishi bilan u o'z ichiga 50 ta institut va taxminan aholisi 50 ming kishidan iborat qulay fan kompleksiga aylandi. Tedoka mutaxassislar ixtiroi, ma'lumotlar va asbob-uskunalaridan hamkorlikda foydalanish va o'zining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida davlat va xususiy ilm-fan idoralarini o'ziga jalb qilishga harakat qilmoqda.

1.6- jadval

Mamlakat ichida ilmiy tadqiqodlarga qilinadigan xarajatlar (aholi jon boshiga) 2010 yil



(1) 2009. (2) Excluding most or all capital expenditure. (3) 2008. (4) Provisional. (5) Estimate. (6) Partial data. (7) 2007, estimate.

Manba: Otchet_EUSPb_South-Korea.2012

2009 yil Ta'lim Vazirligi, fan va texnologiya va Kyongido viloyati tomonidan 450 mlrd. von hajmda mablag' yoki taxminan 340 mln. AQSh dollari ajratilgan. Muzeydagi yarimidan ko'p eksponatlar asosan tashrif buyuruvchilarni tabiat qonunlari va boshqa mavjud bo'lgan narsalar bilan tanishtiradi. Kvanjon davlat muzeyi kompleksi 24 gektar uzunlikda joylashgan. Muzey binosining umumiy maydoni 49 ming kv. metrni tashkil etadi va u bitta yer osti va uchta yer usti qavatiga ega. Muzeyda ko'rgazmaga ko'yilgan doimiy narsalar va biror mavzuga

oid vaqtinchalik ko'rgazmalar bo'lib o'tadi. Shuningdek, muzey binosi ichkarisida amaliyot mashg'ulotlari uchun 8 ta laboratoriyasi mavjud.

2009 yil Koreya Iqtisodiyot Vazirligi tashabbusiga ko'ra, Koreya Respublika byudjetidan 12 trln. 300 mlrd. von (8 mlrd 300 mln .doll) ITTKI ga ajratilib, u asosan quyidagi fundamental tadqiqodlarga ajratilishi kerak edi, bular 20% energiyasqlash va ekologik toza va chiqindsiz ishlovchi texnologiyalarni yaratish, 20% aerokosmik tadqiqodlarnimoliyalashga xarajatlar amalga oshirilishi belgilangan.

I bob bo'yicha xulosa.

JATBning ob'ektlari - bu moddiy (qurilmalar) va nomoddiy (turli ko'rinishdagi axborotlar, ishlab chiqarish tajribalari va bilimlar) ko'rinishidagi intellektual faoliyat natijalaridir. JATBda davlat tuzilmalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, xususiy kompaniyalar va jismoniy shaxslar-mutaxassislar qatnashadi.XX asrning asosiy xususiyatlaridan biri fan va texnikaning misli ko'rilmagan darajada rivojlanishi bo'ldi. So'nggi yuz yil davomida XIMning yangi axborot-texnologiya tuzilmasi vujudga keldi va shakllandi. Uning negizini Jahon axborot va texnologiyalar bozori (JATB) tashkil etadi.

Koreya Respublikasi 50 yil ichida sust rivojlangan, qoloq agrar davlatdan zamonaviy, sanoati rivojlangan davlatga aylandi. Ko'pgina ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan qolishmaydi. 1996-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development, OECD) ga a'zo bo'ldi va ko'pgina rivojlangan davlatlarda bir asrdan ortiq davom etgan sanoat islohoti bosqichlarining davomiyligini keskin qisqartirdi.

Koreya Respublikasida ilmiy-texnik tadqiqotlarni rivojlantirish siyosati 5 ta yo'nalishda olib bordi.

- Birinchi yo'nalish iqtisodiy foydani tez olish mumkin bo'lgan sohalar,masalan, informatika, kimyo texnologiya va mashinasozlik;

- omad kelishini oʻrtacha vaqt oraligʻida kutish mumkin boʻlgan sohalar, mas. biotexnologiya va yangi materiallarni ishlab chiqarish sohasi;
- butun jamiyat uchun muhim rol oʻynaydigan ilm-fan sohasi va atrof muhitni himoya qilish kabilar;
- oʻrta yoki uzoq muddatli natija berish sharti bilan okeanografiya va aeronavtika sohasi;
- iqtisodiy foyda olish muddatiga bogʻliq boʻlmagan holda fan va texnikaning barcha sohalari.

II BOB. KOREYA RESPUBLIKASIDA TEXNOLOGIK RIVOJLANTRISH SIYOSATINING ASOSIY OMILLARI

1. Hozirgi davrda koreya respublikasining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni

Koreya Respublikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanayotgan Sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiy o‘rishining jo‘shqinlik timsoli bo‘lib kelmoqda. Ushbu davlat hech qanday tabiiy resurslarga ega bo‘lmay va dunyo aholisi soni (7 mlrd.) ning 0,71% (48,4 mln.)¹⁶ iga ega bo‘lib, jahon yalpi mahsuloti (63,256 mlrd. AQSh dollari) ning 1,58% (1,014 mlrd. AQSh dollari)¹⁷ ni ishlab chiqaradi. Mamlakatda xo‘jalikni sanoatlashtirish amalga oshirilgan va uning tuzilmasida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Koreya Respublikasi rivojlangan pul-tovar munosabatlari bo‘lgan iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga kirgan.

Butun dunyoni qamrab olgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Koreya Respublikasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Koreya Respublikasi iqtisodiy pasayish oqimiga tushib qoldi. Koreya Respublikasining iqtisodiy o‘rish sur‘atlari ancha pasaydi va 2008-yilda atigi 2,3% ni tashkil qildi. Bu daraja 2008-yilgacha bo‘lgan 4 yil ichida eng past edi. Ko‘pgina mutaxassislar fikri bo‘yicha jahon va Osiyo bozorlaridagi vaziyat ta‘siridagi bu pasayish tendensiyasi kelgusi davrda kuchayishi mumkin deb ta‘kidlangandi. Biroq Koreya Respublikasi nafaqat inqirozgacha bo‘lgan holatini tiklab oldi, balki u darajadan oshib ketishga ham erishdi.

2009-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yilga nisbatan 4,4% ga tushib ketdi. 2008-yil kuzidan boshlab eksport operatsiyalari ko‘lami ham pasaydi. 2002-yildan boshlab bu ushbu davlat eksportyorlari uchun muhim Xitoy yo‘nalishidagi birinchi bora qayd etilgan pasayish edi.

¹⁶United Nations Statistics Divisions – Demographic and Social Statistics, 2012.

¹⁷World Bank national accounts data, and OECD National Accounts data files.
Catalog Sources World Development Indicators, 2011


Koreya Respublikasi biznesi yo‘qotgan katta yo‘qotishlar koreys vonasining amerika dollariga nisbatan pasayishi bilan bog‘liq. 2008-yil boshidan vona 35% dan ko‘proqqa pasaygan. Shu sababli 2008-yilda mamlakat 30 ta yirik kompaniyalarining mahsulot uchun valyuta hisob-kitoblaridagi ziyoni 10 trln. vondan (6,8 mlrd. dollarga yaqin) oshdi.

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 2008-yilda 2,3% ga oshdi (2.1-rasm). 2007-yilda YaIM o‘sishi 5%ga yetgan. 2008-yil bo‘yicha eksport o‘tgan yilgi 12%ga nisbatan atigi 4,6% ga o‘sd¹⁸.

2.1-rasm.

1991-2011-yillarda Koreya Respublikasi yalpi ichki mahsuloti

(mlrd. AQSh dollari miqdorida va % o‘zgarishlarida)



Manba: Jahon banki / www.tradingeconomics.com

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar yomonlashuvining asosiy sababi – mamlakat YaIM ida 60%ga yetadigan eksportning pasayishidir. 2008-yilning IV choragida sanoat ishlab chiqarishi III chorakka nisbatan bir vaqtning o‘zida 12% ga tushib ketdi. Bunday holat Koreya Respublikasi Markaziy banki shunday statistikasi yig‘ishni boshlagan zamonaviy tarixida hali bir marta ham kuzatilmagan. Nihoyat, iste’mol xarajatlari o‘sha davrda 4,8% ga qisqardi.

¹⁸World Trade Organization – Economic Outlook, 2009

2008-yilning noyabrida Koreyadan eksport hajmi o'tgan yilgiga nisbatan 19% ga tushib ketdi. Mamlakatning yirik bozori Xitoyga bo'lgan yuk tashish 2007-yil darajasidan 30% ga pasaydi. Markaziy bank 2009-yilda Osiyo to'rtinchi yirik iqtisodiyotining o'sishi atigi 2% ni tashkil qiladi deb ta'kidlagan edi. Lekin bashorat qilingandan ancha past ko'rsatkich qayd etildi. Oktabr oyi boshidan Koreya Banki umumiy 2,25% punkt, rekord 3% minimumgacha hisob stavkasini qisqartirdi. Shu bilan birga bank iqtisodiyotni mustahkamlash uchun moliyaviy tizimga kerakli kapital kiritish majburiyatini oldi.

Iqtisodiyot vazirligi ham 2009-yilda mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar oqimini 6% ga 12,5 mlrd. dollargacha oshirish bo'yicha rejalari to'g'risida habar berdi. 2008-yilda xorijiy investorlardan investisiyalar hajmi 11,8 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Koreya Respublikasi iqtisodiyoti 2009-yilda Xalqaro valyuta fondi bashorat qilgan 4%ga qisqargan, 2010-yilda esa 6,2% ga o'sgan va "katta yigirmatalik" ning boshqa davlatlariga nisbatan anchagina yuqori sur'atlar bo'yicha tiklanib boradi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanish sur'atlari bo'yicha Xitoy (8%) va Hindistondan (6,5%) keyingi uchinchi bo'lgan¹⁹.

Li Myon Bak ma'muriyati inqirozni yengib o'tish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun iqtisodiyotni hom ashyo va energiya manbalari bilan ta'minlash sohasida bir qator muhim choralarni belgilab qo'ygan. "Korea National Oil Corporation (KNOC)" davlat kompaniyasi 2009-yilda yoqilg'i tashishning yangi manbalarini ta'minlash uchun bir yoki bir nechta o'rta darajadagi xorijiy neft kompaniyasini sotib olishni rejalashtirgan edi.

Koreya Respublikasi hukumati 22 tarmoq kirgan ro'yxatni e'lon qilishdi. Unga ko'ra joriy tarmoqlar mamlakat iqtisodiyoti o'sishining yangi manbalariga aylanishi kerak. Ular qatorida yarim o'tkazgichlar, displeylar, keyingi avlod mobil aloqasi, diodli lampalar, hamda radioto'lqinli identifikatsiya (RFID) va keng tarqalgan sensor tarmoqlar (USN) ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yangi informasion texnologiyalar bilan bog'liq 5 tarmoq bor. Bu iqtisodiyot

¹⁹International Monetary Fund – Statistical Appendix, 2008-2009.

tarmoqlarining rivojlanishi Koreya Respublikasi dunyoda eng yaxshi texnik imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, ba'zi bir sohalarda o'zining asosiy texnologiyalari yo'qligi sababli kerakli uskunalarni import qilishga majbur bo'lishdek tuzilmaviy cheklovlarni bartaraf etishga imkon beradi.

Mamlakat 2013-yilgacha yangi o'sish manbalarining rivojlanishiga 99 trln. vona yoki 86 mlrd. dollar investisiya kiritishni rejalashtirgan. Shu tufayli 2013-yilga kelib ko'shilgan narx ishlab chiqarishining o'sishi 253 trln. vonani tashkil qilishi kutilmoqda. 2018-yilga kelib esa bu ko'rsatkich ikki baravariga oshishi mumkin. Bundan tashqari, tanlangan tarmoqlarning rivojlanishi 5 yildan keyin 880 mingta yangi ish o'rinlarini yaratishga, 2018-yilga kelib ularning sonini 2 mln. 260 mingtaga yetkazishgaimkon yaratadi.

Koreya Respublikasi hukumati moliya bozori va milliy valyuta kursini barqarorlashtirish bo'yicha bir qator choralarni qabul qildi. Birinchi navbatda, 2008-yil 20-oktyabrdan 2009-yil 30-iyungacha bo'lgan davrda davlat banklari yoki ularning xorijiy filiallari tomonidan xorijiy qarzlar bo'yicha 3 yil muddatga kafolat berishini e'lon qilgan. Kafolatlarning umumiy hajmi 100 mlrd. dollargacha bo'lishi mumkin. Bu mablag' 2009-yil iyuni oxiriacha to'lanishi lozim bo'lgan mamlakat banklarining tashqi qarzlarini 80 mlrd. dollargacha yetishi mumkinligini hisobga olgan holda aniqlangan.

Hukumat va Koreya Banki qabul qilmoqchi bo'lgan boshqa choralar qatorida quyidagilar bor: banklarga davlat valyuta zaxiralari hisobiga 30 mlrd. dollargacha miqdorda dollar likvidligini taqdim etish; vona likvidligining tegishli darajasini ta'minlab turish, davlat qarz majburiyatlarini sotib olish va tezkor ravishda barqarorlashtiruvchi davlat qarzlarini qayta sotib olish; vona almashinuv kursining keskin o'zgarishlarini oldini olish maqsadida valyuta birjasida intervensiya o'tkazish.

Xalqaro valyuta fondi mutaxassislari Koreya Respublikasi uchun ijobiy bashoratni mamlakat rivojlanishi deyarli to'liq eksportga bog'liqligi bilan izohlashmoqda. Bunday iqtisodiy inqiroz sharoitlarida eksport boshida keskin tushib ketadi, ichki xarajatlar esa sust bo'lib qolaveradi. Biroq jahon xo'jaligi

holatining yaxshilanishi bilan eksportga bog'liq davlatlar iqtisodiyoti boshqa davlatlar iqtisodiyotiga nisbatan tez sur'atlarda tiklanmoqda.

2011-yilning boshiga kelib Koreya Respublikasi iqtisodiyotining o'sishi mutaxassislar bahosi bo'yicha oxirgi 8 yildagi eng yuqori ko'rsatkich 6,3% ni tashkil qildi va qiymat ifodasida 1,417 mlrd. dollardan oshdi. Bu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin milliy iqtisodiyotning nisbatan tez tiklanishi, hamda aholining iste'mol faolligi o'sishi va mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil qiluvchi eksport hajmining o'sishi tufayli mumkin bo'ldi²⁰.

Investisiyalardagi eng katta o'sish ishlab chiqarish (25%), sanoat (14,8%) va xususiy iste'molga xarajatda (4,1%) kuzatilgan. Qishloq xo'jaligi (-4,3%) va qurilish sohasida (-1,4%) salbiy ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Mamlakat aholisi daromadining o'rtacha darajasi 2011-yilning birinchi choragiga ko'ra 4,2% ga o'sgan va 1 dollarga 1156,3 vona o'rtacha kursi bo'yicha 3429,5 dollarni tashkil qilgan.

Inflyatsiya hisobot davrida 2009-yila nisbatan 0,1 foiz punktga ko'tarilib 2,9% ni tashkil qilgan. 2010-yilda eng katta iste'mol narxlari indeksi oktabr oyida qayd etilgan²¹.

Koreya statistik informatsiya xizmati (*Korean Statistical Information Service* – KOSIS) ning ma'lumotlari bo'yicha 2011-yil boshida 3,7% (920 ming kishi) ni tashkil qildi. Hisobot davri yakuni bo'yicha iqtisodiy faol aholi 61,0% yoki 24,748 mln. kishi bo'ldi. Bandlar soni 23,829 mln. kishi, shulardan 76,4% xizmat ko'rsatish sohasida, 17,0% ishlab chiqarish sohasida, 6,6% qishloq xo'jaligi tarmog'ida bo'lgan.

2011-yil boshidagi Koreya Markaziy Banki ma'lumotlariga ko'ra, Koreya Respublikasining oltin valyuta zaxiralari o'tgan yilda 21,58 mlrd. AQSh dollariga o'sib, 291,57 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. 2010-yilda mamlakat valyuta zaxiralari hajmi tarixiy maksimum 293,4 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Koreya Banki mutaxassislari fikriga ko'ra, bunday o'sish xorijiy qimmatli qog'ozlarga

²⁰Bank of Korea – Economic Bulletin, 2012 April

²¹Korean Export-Import Bank – Economic Review, 2011

kiritilgan investisiyalardan daromadlarning oshishi tufayli mumkin bo'ldi. Shu bilan birga, yevro va funt sterling kursining zaiflashuvi, hamda hukumat tomonidan AQSh dollariga nisbatan vona kursini saqlash uchun qo'llanilgan valyuta intervensiyasi 2010-yilning fevral, may, avgust va noyabr oylarida valyuta zaxiralarining qisqarishiga olib keldi. Shu sababli 2010-yilning may oyida 8,7 mlrd. dollarlik rekord qisqarish qayd etilgan.

2010-2011-yillarda Koreya Respublikasi oltin valyuta zaxiralarining asosiy ulushini qimmatli qog'ozlar – 91,9% va bank qo'yilmalari – 6,5% egallaydi. Oltinning ulushi atigi 0,3%²².

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2011-yilda Koreya Respublikasi dunyoda 6-o'rinda edi. Oldinda XXR (2648,3 mlrd. AQSh dollari), Yaponiya (1096,2 mlrd. dollar), Rossiya (479,4 mlrd. dollar), Tayvan (382 mlrd. dollar) va Hindiston (297,3 mlrd. AQSh dollari).

2011-yilning o'rtasida mamlakat tashqi qarzдорligi o'tgan yilga nisbatan 14,6 mlrd. AQSh dollariga oshdi, va 360 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Ulardan Koreya Respublikasi uzoq muddatli majburiyatlari – 225 mlrd. AQSh dollari (o'sish 28,8 mlrd. AQSh dollari) va qisqa muddatli – 135,0 mlrd. AQSh dollari (14,2 mlrd. AQSh dollariga qisqarish). Hisobot yilida tashqi qarzlarning asosiy ulushi bank tarmog'ining qisqa – 28,2% va uzoq muddatli – 20,1% majburiyatlariga to'g'ri keldi.

2011-yilda mamlakatning xorijdagi tashqi aktivlari 2010-yilga nisbatan 37,6 mlrd. dollarga o'sdi va 448,3 mlrd. ga yaqin dollarni tashkil qildi. Uzoq muddatli kreditlar 79,2 mlrd. AQSh dollarini (o'sish 7,6 mlrd. AQSh dollari), qisqa muddatli esa – 369,1 mlrd. AQSh dollarini (o'sish 30,1 mlrd. AQSh dollari) tashkil etdi. 2010-2011-yillarda Koreya Respublikasining tashqi aktivlarida asosiy ulushni moliya-kredit muassasalariga – 65,8% va banklarga – 11,2% qisqa muddatli kreditlar tashkil etgan.

2008-yil yakuniga ko'ra, Koreya Respublikasi tashqi savdo aylanmasining hajmi 700 mlrd. dollardan oshdi, va mamlakat tashqi savdo aylanmasining hajmi

²²Ministry of Strategy and Finance of Korea - mosf.go.kr, database, 2011

bo'yicha dunyoda 11-o'ringa chiqdi. 2007-yil ko'rsatkichi 600 mlrd. dollarni tashkil qildi. Agar 1964- va 1971-yillardagi tarixiy ko'rsatkichlar bilan solishtiradigan bo'lsak, ko'rsatilgan yillarda tashqi savdo aylanmasi hajmi 100 mln. va 1 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Hozirda davlatdan eksport hajmi kuniga 1 mlrd. dollarni tashkil etadi²³.

Koreya Respublikasi 2008-yilda bir qator muammolarga duch keldi. Milliy valyuta kursi AQSh dollariga nisbatan doimiy o'sdi, energiya vositalariga bo'lgan jahon narxlari o'sishda davom etdi. Xitoy va boshqa yangi industrial davlatlar Koreya bilan tafovutni tobora qisqartirib borishdi. Yaponiya, AQSh, Germaniya va boshqa yetakchi davlatlar esa oldinda borishni davom ettirishardi. Koreya Respublikasi brendlari mashhurligining ortishi va yangi bozorlarni doimiy qidirish hisobiga og'ir vaziyatdan chiqish mumkin edi. Masalan, eksportda mahsulotlari yetakchi bo'lgan mamlakatning ko'pgina kompaniyalari eksport tovarlar xususiyatini yaxshilash uchun bor imkoniyatlarini sarflashdi. Iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sayotgan rivojlanayotgan davlatlar bozorlariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

2008-yilda milliy valyutaning ayirboshlash kursi AQSh dollariga nisbatan deyarli 900 vonagacha tushib ketdi. Bu oxirgi 10 yil ichidagi eng past ko'rsatkich edi. Shunday qilib, mamlakat eksportyorlarining serdaromadligi ikki omil ostida pasaydi: milliy valyuta narxining o'sishi va energiya vositalariga bo'lgan narxlarning o'sib borishi. Shunday bo'lsa-da, hamma qiyinchiliklarga qaramay, mamlakat ishlab chiqaruvchilari rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarida yanada mashhur bo'lib borayotgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun bor imkoniyatlarini sarflashda davom etishardi. Natijada mamlakat kompaniyalari yangi sanoat gigantlari deb nomlangan – Polsha, Slovakiya, Turkiya, V'etnam va Malayziyaga 15 mlrd. 600 mln. dollar qiymatidagi tovarlar eksport qilishgan. Koreya Respublikasi eksporti neft eksport qiluvchi davlatlar va MDH davlatlariga 50% ga oshdi. Xitoy Koreya Respublikasining eng yirik savdo hamkori bo'lib qolmoqda.

²³Korea International Trade Association – Trade data, 2011

Mamlakat eksporti tuzilishida bir qancha muammolar mavjud. Birinchidan, Koreya Respublikasi eksportning umumiy hajmida ulushi 22% ni tashkil qilgan Xitoy bilan savdoga ortiqcha tayanishda davom etmoqda. Boshqa muammo hozirda mamlakat savdo balansi Xitoy bilan savdodagi foyda sababli ijobiyligida. Biroq agar uni umumiy hisobdan chiqarib tashlaydigan bo'lsak, Koreya savdo balansi 1,5 mlrd. dollarlik defisitni ko'rsatadi. 2010-yilda 30 mlrd. dollarni tashkil qilgan Yaponiya bilan savdoda ham doimiy defisit muammosi mavjud. Yaponiya va AQShga mamlakat eksporti tobora susaymoqda. Bu esa Koreya mahsulotlariga to'g'ri keladigan bu davlatlar bozorining ulushi pasayishiga ham olib kelyapti.

2.1-jadval.

Koreya Respublikasi savdo aylanmasi

(yillar bo'yicha)

Yillar	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
1960	\$376,354 mln.	\$32,837 mln.	\$343,527 mln.
1970	\$2,819 mlrd.	\$835,185 mln.	\$1,983 mlrd.
1980	\$39,796 mlrd.	\$17,504 mlrd.	\$22,291 mlrd.
1990	\$134,859 mlrd.	\$65,015 mlrd.	\$69,843 mlrd.
1997	\$280,780 mlrd.	\$136,164 mlrd.	\$144,616 mlrd.
1998	\$225,594 mlrd.	\$132,313 mlrd.	\$93,281 mlrd.
1999	\$263,437 mlrd.	\$143,685 mlrd.	\$119,752 mlrd.
2000	\$332,748 mlrd.	\$172,267 mlrd.	\$160,481 mlrd.
2007	\$728,334 mlrd.	\$371,489 mlrd.	\$356,845 mlrd.
2008	\$857,282 mlrd.	\$422,007 mlrd.	\$435,274 mlrd.
2009	\$686,618 mlrd.	\$363,533 mlrd.	\$323,084 mlrd.
2010	\$891,595 mlrd.	\$466,383 mlrd.	\$425,212 mlrd.
2011	\$1,079 trln.	\$555,213 mlrd.	\$524,413 mlrd.

Manba: Koreya Xalqaro Savdo Assotsiatsiyasi(Korea Trade International Association)

Oxirgi yillarda Koreya Respublikasi asosiy hamkorlari bilan erkin savdo to'g'risida shartnomalar imzolash bo'yicha uzoq va serhosil muzokaralar olib bormoqda. Shu masala bo'yicha Koreya Respublikasi va AQSh o'rtasidagi muzokaralar bir yil davom etdi. Mol go'shti importi qoidalari va qishloq xo'jaligi

va avtomobillar bozoriga kirishda eng ko‘p kelishmovchiliklar kelib chiqdi. AQSh va Koreya Respublikasi bir-biri uchun eski va muhim savdo hamkorlari hisoblanadi. Jahonning eng yirik savdo davlati bilan mustahkam ittifoqni shakllantirish 70% korxonalari eksportga bog‘liq bo‘lgan Koreya iqtisodiyoti rivojlanishi uchun ijobiy omil hisoblanadi. AQSh bilan muzokara jarayoni bilan bir vaqtda xuddi shunday shartnomalar Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Fors ko‘rfazi davlatlari bilan tayyorlangan.

Koreya Respublikasi tashqi savdo aylanmasi yuqori darajada bo‘lsa-da, mamlakat ishlab chiqaruvchilari Xitoyga eksportdan bog‘liqlikni kamaytirish va Yaponiya bilan savdoda defisit o‘lishini bartaraf etish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni qo‘llashlari kerak. Milliy valyuta kursining dollarga nisbatan o‘lishi yana bir muammo bo‘lib qolmoqda. Bu omillarning salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun nimalar qilish kerakligi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rish zarur. Mamlakat hukumati davlat savdo aylanmasini 2010-yilga kelib 1 trln. dollarga yetkazishni rejalashtirgan edi. Biroq 2010-yilda savdo aylanmasi 891 mlrd. dollarni tashkil qilib, qo‘yilgan maqsadga 2011-yilda 1079 mlrd. dollar (2.1.2-jadval) miqdoridagi savdo aylanmasiga erishildi. Jahonda savdo aylanmasi 1 trln. dollardan oshadigan 5 davlat AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Fransiya bor.

2011-yil yakunlariga ko‘ra, Koreya Respublikasi avtomobil mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmi o‘tgan yilga nisbatan 9,0% ga oshgan va qiymat ko‘rsatkichida 4,657 mln. donani tashkil qilgan.

Xalqaro avtomobil ishlab chiqaruvchilar tashkilotining dastlabki ma‘lumotlari bo‘yicha 2011-yilda jahon avtosanoatidagi mamlakat ulushi 5,8% ni tashkil qilib, Koreyaga jahon reytingida 5-o‘rinni ta‘minlagan²⁴.

2005-yildan boshlab Koreya Respublikasi jahonda doimiy 5-avtomobil ishlab chiqaruvchi davlat bo‘lib kelmoqda (2.2-jadval).

²⁴Organisation Internationale des Constructeurs d’Automobiles – OICA, Production Statistics

Jahonning 5 yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlari

(ma'lum yillar bo'yicha)

2000	1.AQSh - 12,799,857	2. Yaponiya - 10,140,796	3. Germaniya - 5,526,615	4. Fransiya - 3,348,361	5. Koreya - 3,114,998
2005	1.AQSh - 11,946,653	2. Yaponiya - 10,799,659	3. Germaniya - 5,757,710	4. Xitoy - 5,708,421	5. Koreya - 3,699,350
2008	1. Yaponiya - 11,575,644	2. Xitoy - 9,299,180	3. AQSh - 8,693,541	4. Germaniya - 6,045,730	5. Koreya - 3,826,682
2009	1. Xitoy - 13,790,994	2. Yaponiya - 7,934,057	3. AQSh - 5,731,397	4. Germaniya - 5,209,857	5. Koreya i - 3,512,926
2010	1. Xitoy - 18,264,761	2. Yaponiya - 9,628,920	3. AQSh - 7,762,544	4. Germaniya - 5,905,985	5. Koreya - 4,271,741
2011	1. Xitoy - 18,418,876	2. AQSh - 8,653,560	3. Yaponiya - 8,398,654	4. Germaniya - 6,311,318	5. Koreya - 4,657,094

Manba: Xalqaro Avtomobil Ishlab Chiqaruvchilar Tashkiloti(Organisation Internationale des Constructeurs

d'Automobiles – OICA)

Koreya Respublikasi yirik dengiz savdo kemalari, neft va gazni qazib olish, saqlash va yuklash uchun mo'ljallangan suzib yuruvchi qurilmalar (FPSO) va chuqur suv osti burg'ilovchi kemalarni ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 1-raqamli davlat hisoblanadi. 2010-yili jahonda suyultirilgan tabiiy gazni tashish uchun tankerlar va yirik konteyner tashuvchi kemalarga bo'lgan buyurtmalarning 60% idan ortig'i, hamda dengiz neft-gaz konlariga xizmat ko'rsatadigan suzib yuruvchi qurilmalarga bo'lgan global talabning 63% i ushbu mamlakatga to'g'ri kelgan. Jahon bo'yicha buyurtma berilgan yirik 12 ta (birlik quvvati sutkasiga 2 mln. barreldan ortiq) FPSO dan 7 tasi "Hyundai Heavy Industries" ga va 3 tasi "Daewoo Shipbuilding & Marine Engineering" ga to'g'ri kelgan. O'z o'rnida "Samsung Heavy Industries" 14 ta kichik quvvatli FPSO ga buyurtmalar olgan. 300 kemasozlik korxonalari (sudoverf) dan 30 tasi 10 ming tonnadan ortiq suv sig'imli kemalar ishlab chiqara oladi. Koreya Respublikasida kemasozlik xizmatlari bozorining asosiy ulushini Koreya kemasozlar assotsiatsiyasi KOSHIPA (Korea Shipbuilder's Association) ga kiruvchi 9 ta kompaniya egallaydi:

- "Hyundai Heavy Industries Co., Ltd.";
- "Samsung Heavy Industries Heavy Co., Ltd.";
- "Daewoo Shipbuilding & Marine Engineering Co., Ltd.";

- “STX Shipbuilding Co., Ltd.”;
- “Hyundai Samho Heavy Industries Co. Ltd.”;
- “Hanjin Heavy Industries & Construction Co., Ltd.”;
- “Hyundai Mipo Dockyard Co., Ltd.”;
- “SLS Shipbuilding Co., Ltd.”;
- “Dae Sun Shipbuilding & Engineering Co., Ltd.”.²⁵

2.3-jadval.

Uchta yirik kemasozlik davlatlari ko‘rsatkichlari

(2009-2011-yy.)

	Yangi buyurtmalar (% da)			Buyurtmalar portfeli (% da)		
	2009	2010	2011	2009	2010	2011
Yaponiya	25,3	14,5	12,1	17,3	16,3	16,0
Koreya Respublikasi	25,4	33,9	56,4	34,7	34,3	35,0
Xitoy	44,5	43,8	22,3	37,0	39,5	39,1
Qolgan davlatlar	4,4	7,8	9,2	11	9,9	9,9

Manba: Yaponiya Kemasozlar Assotsiatsiyasi (The Shipbuilders' Association of Japan)

Mamlakat kemasozlik mahsuloti eksporti 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 10,0% ga oshdi va 46,7 mlrd. AQSh dollarini (Koreya Respublikasi umumiy eksportining 10,02%) tashkil qildi. Joriy tarmoqda hisobot davrida 110 ming kishi band bo‘lgan.

Umuman savdo kemalarini olib qaraydigan bo‘lsak, Koreya Respublikasining 2010-yili jahon yuk tashish, oqimi va buyurtmalar portfeli tegishli ravishda 33%, 21% va 34,3% ni tashkil qildi (2.3-jadval).

2009-yilda Xitoy Xalq Respublikasi kemasozlik hajmi bo‘yicha oxirgi 20 yil ichida yetakchi bo‘lib kelayotgan Koreya Respublikasidan oldinga o‘tib ketishga va shu bilan jahonda birinchi o‘ringa chiqib olishga muvaffaq bo‘ldi. 2009-yil yakunlari bo‘yicha Xitoyga 44,4% buyurtmalar portfeli, Koreya Respublikasiga

²⁵Korea Shipbuilding Association – Shipbuilders’ list, 2011

esa 40,1% buyurtmalar portfeli tegishli edi. Yaponiya uchinchi o‘ringa chiqqan. “Clarkson Plc.” London agentligining statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2009-yilda Xitoy umumiy tonnaji 53,2 mln. CGT (to‘ldirilgan yalpi registr tonnaji) bo‘lgan kemalar qurishga buyurtmalar, Koreya esa umumiy tonnaji 52,8 mln. CGT bo‘lgan kemalar qurishga buyurtmalar olgan. Xitoyni yetakchi pog‘onalarga chiqishining asosiy sababi yangi buyurtmalarga bo‘lgan nisbatan past narxlar hisoblanadi.

Biroq Koreya Respublikasi 2010-yilning boshidayoq kemasozlikda yangi buyurtmalar soni bo‘yicha birinchi o‘ringa qaytib oldi. “Clarkson Plc.” London agentligining ma’lumotlari bo‘yicha 2010-yilda Koreya Respublikasi kemasozlik kompaniyalari olgan buyurtmalarning umumiy hajmi jahon kemasozlik bozorining 56,7% idan oshib ketdi.

Kemasozlik jahon yetakchiligini saqlab kolish maqsadida mamlakat hukumati yuqori qo‘shimcha qiymat darajasiga ega yuqori texnologik kemalar qurishni eng asosiy yo‘nalish deb belgiladi. Shunday qilib, Koreya Respublikasining kemasozlik sohasidagi maqsadi yangi texnologiyalarni rivojlantirish va tadqiq qilish hisoblanadi. Faoliyati sohasiga sanoatning turli xil tarmoqlarini qo‘llash kiradigan Koreya Respublikasi Bilimlar iqtisodiyoti vazirligi kemasozlikni rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlarini tanladi:

- Suzib yuruvchi burg‘ilash qurilmalari va muzyoralar uchun mavjud texnologiyalarni sotib olish va yangi texnologiyalarni rivojlantirish;
- Yuqori informasion texnologiyalar bilan jihozlangan kemalarning yangi modellarini yaratish.

Koreya Respublikasi kemasozligining shiori “Jahon birinchiligi, yuqori texnologiyalar va obro‘, xavfsizlik, atrof muhit himoyasi” hisoblanadi. Mamlakat “yashil” siyosat doirasida 2020-yilga kelib jahonda bu tarmoq bo‘yicha nafaqat yetakchilikni saqlab qolish, balki ekologik kemasozlikning peshqadami bo‘lishni rejalashtirmoqda.

Koreya cho‘yan va po‘lat assotsiatsiyasi – KOSA (Korea Iron & Steel Association) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda po‘lat ishlab chiqarish 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 16,3% ga oshgan va 68,519 mln. tonnani tashkil qilgan.

Shunday qilib, jahon po‘lat ishlab chiqarish hajmida Koreya Respublikasining ulushi 4,1% ni tashkil qildi, va bu mamlakatga eahon po‘lat ishlab chiqaruvchi davlatlari orasida (Xitoy, Yaponiya, AQSh, Rossiya, Hindiston) 6-o‘ringa chiqishga imkon berdi.

Koreya Respublikasi po‘lat eksporti 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 21,1% ga oshdi va 24,881 mln. tonnani tashkil qildi. Mamlakatga bo‘lgan po‘lat importi 2009-yilga nisbatan 21,9% ga o‘sgan va 25,089 mln. tonnani tashkil qilgan. Eksportning qiymat hajmi 37,9 mlrd. AQSh dollari va import qiymat hajmi 46,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan²⁶.

Mamlakat moliya vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2011-yilda YaMM ga nisbat bo‘yicha Koreya tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga yordam dasturiga ajratilgan pul vositalarining o‘zaro nisbati 0,12% ga teng bo‘ldi. Shunday qilib, Koreya bu ko‘rsatkich bo‘yicha Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development, OECD) ga a‘zo davlatlar orasida 22-o‘ringa chiqdi.

Koreya Respublikasining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ularni rivojlantirish maqsadida sarflagan mablag‘lari 2011-yilda 1,32 mlrd. AQSh dollariga yetdi, bu esa mamlakat YaMM ining 0,12% ini tashkil qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga bo‘lgan mablag‘lari va Koreya Respublikasi yalpi milliy mahsulotining o‘zaro nisbati mamlakatni Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining barcha a‘zo-davlatlari orasida 22-o‘ringa olib chiqdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘rsatilgan yordamning umumiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha Koreya Respublikasi Rivojlanishga ko‘mak qo‘mitasi (Development Assistance Committee) da bo‘lgan 23 davlat orasida 17-o‘rinda turibdi. Koreya har bir ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan oldina chiqib olgan.

Rivojlanishga ko‘mak qo‘mitasi a‘zo-davlatlari tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga ko‘rsatilgan umumiy moliyaviy yordam 2011-yilda 135,5 mlrd. dollarni tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 2,7% ga kamroq bo‘ldi. Rivojlanayotgan

²⁶Korea’s Steel Industry - www.kosa.or.kr

davlatlar uchun yordamga ajratilgan mablag'larning Qo'mitaga a'zo barcha mamlakatlarning YaMM iga umumiy nisbati 0,31% darajasida qayd qilingan. Bu esa BMT tomonidan belgilangan 0,7% li maqsaddan deyarli ikki marta kam.

Koreya tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan moliyaviy yordam 2010-yilga nisbatan 7,7% ga oshib, 1,044 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Bir nechta davlatlar ishtirokiga mo'ljallangan qo'shma yordamlar loyihasiga xarajatlar 350 mln. dollarni tashkil qilib, 28,5% ga oshgan.

Yordam ko'rsatish usullari nisbatida ajratilgan grantlar hajmi 2,8% ga qisqardi. Foizsiz ssudalar hajmi esa misli yo'q 26,2% ga ko'tarilib ketdi.

2012-yilda mamlakat hukumati YaMM ga ko'rsatilgan yordam nisbatini 0,15% ga, 2015-yilga kelib esa 0,25% ga oshirishni rejalashtirgan.

Yuqorida keltirib va tahlil qilingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Koreya Respublikasi jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarga ega bo'lib olgan. U o'zining tarixidagi ikki o'tgan jahon inqirozlariga qaramay, o'z mavqeini yo'qotgani yo'q. Aksincha, jadal rivojlanishda davom etmoqda.

2. Koreya Respublikasidagierkin iqtisodiy hududlar ilg'or texnologik markazlari sifatida.

Ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida turli xildagi hududlarni tavsiflash uchun «erkin iqtisodiy hududlar» atamasi ishlatiladi. Biroq bu atamahodisaning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Chunonchi, bu hududlarning ko'pchiligida qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, dastaklar, maxsus ma'muriy qonunlar ma'lum huquqiy va xo'jalik rejimidan ozod qilmaydi, balki uni yengillashtiradi, xolos, tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi imtiyozlar beradi. Bu bilan amalda davlat o'zining iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kamaytiradi.

Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishda ikkita konseptual yondoshish mavjud: hududiy va nuqtaviy. Birinchi holatda erkin iqtisodiy hududga barcha rezident-korxonalar xo'jalik faoliyatining imtiyozli rejimidan foydalanadigan maxsus territoriya sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa, erkin iqtisodiy hudud

- bu firmalar mamlakatning qaysi qismida joylashishidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turiga qo'llaniladigan imtiyozli rejimdir.

Birinchi yondashuvni amalga oshirishga Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus» hududi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'plab eksport sanoati hududlari misol bo'la oladi. Ayrim korxonalar (offshor firmalar, «dyuti fri» magazinlari) tomonidan taklif etilgan «nuqtaviy» hududlar ikkinchi yondashuvning natijasidir.

Erkin iqtisodiy hududlarning eng sodda ko'rinishlaridan biri erkin (bojsiz) bojxona hududlaridir (EBH). Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan beri mavjud. Bunday hududlar eksportga mo'ljallangan tovarlarni saqlash, qadoqlash va kichik hajmda qayta ishlash uchun xizmat qiladigan tranzit yoki konsignatsion omborlardan iboratdir. Bu hududlarni ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona territoriyalari ham deb atashadi. Erkin bojxona hududlarida tovarlarni olib kirish va chiqish bojxona bojlaridan ozod qilinadi. Ular juda ko'p mamlakatlarda mavjud.

2.4-jadval.

Erkin iqtisodiy hududlarning turlari

1. Savdo hududlari	2. Sanoat-ishlab chiqarish hududlari	3. Texnikaviy ilmiy ishlab chiqarish hududlari	4. Servis xizmat ko'rsatish hududlari
Erkin bojxona hududlari Bond omborlari Erkin portlar Erkin savdo hududlari	Importning o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish hududlari Eksport sanoati hududlari Sanoat parklari Ilmiy-sanoat	Texnopolislar Texnoparklar Yangi va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish hududlari	Offshor hududlar Moliya markazlari Bank xizmati hududlari Turizm xizmati hududlari Ekoparklar

	parklari Makiladoras (Meksika)		
5. Kompleks hududlar		6. Xalqaro hududlar	

Turli xildagi erkin iqtisodiy hududlarga xos umumiy xususiyato`z ichiga bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlarini oluvchi qulay investitsiya muhiti hamda u yoki bu mamlakatdagi tadbirkorlar uchun mavjud xo`jalik rejimiga nisbatan ustunliklardir.

Imtiyozlarni to`rtta asosiy guruhga bo`lish mumkin:

- Tashqi savdo imtiyozlari.
- Soliq imtiyozlari.
- Moliyaviy imtiyozlar.
- Ma'muriy imtiyozlar.

Sanab o`tilgan imtiyozlar turli kombinatsiyalarda qo`llanilishi mumkin. Erkin iqtisodiy hududlarda beriladigan imtiyozlar har doim ham xorijiy kapital jalb qilishga rag`bat bo`lavermaydi. Bu jihatdan qaraganda, siyosiy barqarorlik, investitsiya kafolatlari, infratuzilma sifati, ishchi kuchining malakasi, ma'muriy protseduraning osonlashtirilganligi va boshqa omillar ko`proq ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday bo`lsa-da, barcha sharoitlar bir xil bo`lganda hududda taklif etiladigan imtiyozlar birinchi o`ringa chiqadi.

Yaponiyaning Kioto shahrida 1973 yil 18 mayda qabul qilingan «Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg`unlashtirish bo`yicha Xalqaro konventsia» ga muvofiq erkin hudud deganda mamlakatning shunday hududi tushuniladiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi.

Ko`pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun erkin hududlar amalda hududdagi ishchilarning turmush tarzi, ishlab chiqarish salohiyatining kontsentratsiyalashuvi kabilarga ko`ra eksterritoriallik jihatdan maxsus

hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday hududlarga «maxsus iqtisodiy hududlar» atamasi mos keladi.

Koreya Respublikasining erkin iqtisodiy hududlari ilg'or texnologik rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega. Janubi-Sharqiy Osiyoda iqtisodiy, moliyaviy va logistik markaz tashkil qilish va chet el investisiyalarini jalb qilish maqsadida Koreya Respublikasi huqumati 2003 yilda Erkin Iqtisodiy savdo hududlarini, ya'ni Erkin iqtisodiy hududlarini tashkil qildi va rivojlantirmoqda. EIH xorijiy investorlar uchun qiziqtiruvchan bo'lishi uchun bu hududlarda turli imtiyozlar va qulayliklar yaratilgan va Koreya Respublikasi hukumati qonun va normativ hujjatlarni o'zgartirib turadi, shuningdek infrastrukturasiga ham investisiyalar kiritadi. 2020 yilda Janubiy Koreya EIHlari jahondagi eng e'tiborga loyiq EIH bo'lishi rejalashtirilmoqda. Global tarmoq markazlari - EIH inson resurslari, ma'lumot va texnologiyalardan foydalanish va tarqatishning eng yuqori darajada amalga oshiruvchi markazlarni birlashtiradi, xorijiy kompaniyalarning rivojlanishi va yashashi uchun qulay sharoit yaratib beradi.

Shimoliy Sharqiy Osiyodagi yangi logistik markazlar

EIHning Shimoli- Sharqiy Osiyoning eng yuragida joylashgani, aeroport va portlarning yaqinligi, yuqori darajadagi logistik infrastrukturaning mavjudligi EIH Shimoli- Sharqiy Osiyoning logistik markazi ekanligiga kafolat beradi.

EIHlarning milliy korporatsiyalarning shtab-kvartiralarini joylashtirish, shuningdek yirik yuridik kompaniyalar, auditor firmalari, IT kompaniyalariva konsalting kompaniyalarini xalqaro moliyalashtirishning global markaziga aylanmoqda. Bu kosmosiyosiy ta'lim markazi, bu yerda yuqori rivojlangan infrastruktura- medicina xizmatlari, maginlar, turizm va dam olish uchun sharoitlar mavjud.

Ilg'or bilim industriyasi markazlari.

EIH o'z hududida xorijning birinchi darajadagi inson resurslarini jalb qilish uchun Koreyaning eng ilg'or texnologiyalarini IT, BT, NT, CT, ilmiy sanoat markazlarini joylashtirmoqda.

Haqiqatda, Koreya Respublikasi EIHning asosano'ziga jalb qiladigan tarafi alohida strategik tarmoqlar, ayniqsa ITTKI va innovatsiya sohasida ishlaydigan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlaridir. EIH o'zini xalqaro kompaniyalarning korporativ shtab-kvartiralarini bazalashtirish, Osiyo –Tinchokean regionidavlatlarining operatsion sentrini joylashtirish uchun eng zo'r joy sifatida namoyon qilmoqda va «Aqilli shahar» modelini rivojlantirmoqda. EIH bir qator soliqlarni kamaytirishni, jumladan tijorat solig'i, korporativ daromad solig'i va ta'riflarini kamaytirishni taklif qiladi, ayrim korporatsiyalar soliqlardan 10 yilga ozod qilingan.

Inchxon EIH (169,5 kv.m. taxminan 2020 y. ga)

Inchxon EIH (IFEZ) - 2003 yil avgust oyida 169,5 kv.m. da tashkil qilingan birinchi Koreya EIH bo'lib, uning hududiga Inchxon Xalqaro aeroporti, Inchxon Porti, Congdo, Yeongjong va Xalqaro shahar Chungnalar kiradi. Koreya hukumati IFEZni erkin iqtisodiy faoliyat yuritishning global biznes forposti etib tayinladilar. IFEZ o'ziga jalb etuvchi shahar infrastrukturasini muvofaqqiyatli yaratdi; EIH qurilishi nihoyasiga yetganda IFEZ keng tijorat rayonlari, dam olish markazlari va komfortli turarjoy massivlariga ega «mega-Siti» ga aylanadi.

EIHning maqsadlari: Investisiyalarni jalb qilish, korporatsiyalarni taklif qilish, yuqori kvalifikatsiyali ishchi kuchini jalb qilish hamda turizmni rivojlantirish.

Shahar qurilishi: U-City va Eco-City 3 rejalarini tadbiq qilgan holda ixcham shahar yaratish, medisina, ta'lim va madaniy hordiq chiqarish manbaalarini infrastukturasini yaxshilash, mahalliy va xorijiy korporatsiyalarni jalb qilish.

Investorlarni qo'llab-quvvatlash strategiyalari: soliqlarni bekor qilish va byurokratik holatlarni soddalashtirish.

IFEZ shunday tijorat-muhitini yaratishga asos soladiki, u yerda butun dunyodan kelgan insonlar komfortda yashaydilar, kompaniyalar esa o'z faoliyatlarini qulay sharoitda, soliq va broker imtiyozlaridan foydalangan holda amalga oshiradilar. Erkin iqtisodiy hudud ana shu maqsad uchun bunyod etiladi. Bu esa Koreya Respublikasining dunyodagi 4ta xalqaro moliyaviy-iqtisodiy markazlar Gongkong, Singapur va Niderlandiyalardan biriga aylanishiga yordam beradi.

IFEZda xorijiy tadbirkorlar uchun do'stonamuhityaratish uchun institutlarni qabul qilishni alohida amalga oshirilgan. IFEZo'ziga to'k rayon hisoblanib,zavodlar,xalqaro aeroport, port,logistik xalqaro markaz,global biznes kompleksi,ta'lim tashkilotlari va turar joy rayonlariga ega bo'ladi.Bulardantashqari IFEZturli administrativ masalalarni soddalashtirishni ta'minlaydi, xorijiy fuqorolaning turmushi uchun yaxshi muhit yaratishni ta'minlaydi,ingliz tilidagi kommunikatsiya, xorijiy ishchilar uchun bojxona va immigratsiya xizmatlarini yaxshilash, xorijiy ta'lim maskanlari, kasalxona va aptekalarni tashkil qilishni amalga oshiradi.

3ta rayon - Songdo, Yeongjong, Cheongna dan tashkil topgan EIH2003y. o'zining barpo etilgan kunidan boshlab jami \$395mln.ni investisiyani 39 loyihaga jalb qilgan.

Xalqaro shaharSongdo yuqoritehnologik tarmoqlarga asoslangan, Yeongjong oroli esa turizm,dam olish va tijoratga moslashtirilgan. Cheongnaasosanko'ngilochar joylar va parklaga mo'ljallangan joybo'lib rivojlanmoqda.

EIHning eng oxirigi proektlaridan biri Songdoda 151 qavatli osmono'par bino (neboskreb)ningqurilishidir.

BusanEIHi/chinxeBusan/JinhaeFEZBJFEZ (2020yilga 83,1kv.km.)Shimoli-Sharqiy Osiyoning o'zgacha markazi bo'lib regionga kirish darvozasihisoblanadi.Bu EIH xorijiy investirlar uchun eng yaxshi sanoat,boshqaruv va yashash sharoitlarini yaratib beradi. U Koreyada xalqaro tijoratni forpostini yaratish uchun barpo etilgan. Busan/ChinxeEIHidayangi, dunyo buyicha 5 o'rindagiyuklarni qaytaishlovchi port quriladi. EIH eng ilg'or industrial parklarga, xalqaro tijorat rayoniga,xorijiy maktab va kasalxonalarga, shuningdek, turistik va ko'ngilochar komplekslarga ega bo'lgan maskan bo'ladi.

Busan-chinxe EIHi: maydoni 83,1kv.km., kutilayotgan aholii -243,000 kishi, rivojlanish davri – 2003-2020y, ishlabchiqish sxemasi – Newport (Logistika,distributsiya «Xalqaro biznes») Myunji (xalqaro biznes, medisina ta'lim

xizmatlari), Jisa (Ilg'or bilimlar, R@D markazlari) Dudong (Residence/Supportilg'or qismlari) Ungdong (dam olish,kurort.)

Busan-chinx EIHining maqsadlari: korporatsiyalarni jalb etish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish, xalqaro medisina kompleksini joylashtirish, R@D markazlarini rivojlantirish, xorijiy ta'lim tashkilotlarini taklif qilish, xorijliklar uchun yoqimli turar-joy maskaniniyaratish.

Degu EIH/Geongbuk/Daegu/GyeongbukDGFEZ (2020yilga 34.1kv.km)ning ichki qismi hisoblanib,bilimlarningindustriyasiga moslashadi. U sanoat va xizmat ko'rsatish korporatsiyalari asosidagiilm markaziga aylanishga harakat qiladi. U o'ziga jalb qiluvchi tijorat muhitini ta'minlaydi,ishchi kuchiga boy,sifatli medisina xizmati va bazasiga ega. U xalqaro biznes va korporativ boshqaruv uchun eng zo'r maskan hisoblanadi.

Koreya yarimoroli 2 ta mega bozor,ya'ni Yaponiya va Xitoy o'rtasida strategik o'rin egallaydi. 2 soat uchish radiusida joylashgan 41chi shahar bir milliondan ko'proq aholiga egadir.Bu degani, Koreya ta'minotning keng bozoriga ega.

BusanPortva GwangyangPortIncheonInternational kabi yirik dengiz yo'llarining kesishgan joyida joylashgan. Aeroporti aviayuktashish hajmi bo'yicha 2 u'rinda turadi.Aeroportyuklarni tez va logistik sistema bo'yicha o'tkazib, qulay tijorat muhitini yaratishga harakat qilmoqda.

2011 yilda bir kunlik passajirlar soni 120mingdan oshdi, yillik passajiroqimi 35,062,000 ni tashkil qildi va yillik aviayuktashish hajmi 2,539,000 tonnaga oshdi.2010 yilga nisbatan IIA aeroporti xalqaroaviatashish bo'yicha jahonda 2 o'rinni egalladi va oxirigi 6 yil ichida jahondagi eng zo'r aeroport nomini oldi.

Koreya Yevropa,Osiyo va Shimoliy Amerikani birlashtiruvchi asosiy degiz yo'llarining kesishgan joyida joylashgan.Temir yo'l xizmatidan foydalanilganda Koreya kelajakda Xitoy,Rossiya,Mongoliya,Markaziy Osiyo va Yevropani yukoqimini ta'minlashimkoniyatiga ega.

Koreya hukumati EIHni maxsus soliqqonunchiligiga asosan xorijiy investorlarga juda ko'p soliq imtiyozlari berishni ko'zda tutmoqda.Jumladan bu

qonun quyidagilarni ko'za tutadi:tijorat faoliyatiga tegishli dividend ko'rinishidagi daromad , lisenziya va texnologiyalar uchun to'lovlarga korporativ soliqlar va foyda soliqlarinikamaytirish va ozod etishni ko'zda tutadi. ShuningdekEIHda xorijiy investorlarni ko'chmas mulkni sotib olish va ijaraga olishdagi ko'chmasmulk soligining kamaytirilishini ko'zda tutmoqda.Maxsus soliq imtiyozlari:

- milliy soliqlar (daromad soligi va foyda soligi): operasion daromad soliqlaridan 3yilga 100% ozod etish, 50% 2 yil davomida.keyinchalik prolongatsiya.
- kapitalni importi soligi:5 yil davomida 100% ozod etish,
- mahalliy soliqlar (sotib olish,mol-mulk soligi): 3 yil davomida 100%,2 yil davomida 50% keyinchalik prologatsiya.
- xorijiy firmalarning Koreyadagi filiallarida ishlovchi xorijiyishchilar va rahbarlari soliq imtiyozlariga ega bo'ladilar.Ular yoki umumiy daromad soligidan 30% ozod bo'ladilar,yoki belgilangansoliqning 17 foizini to'laydilar.

EIHda xorijiy investorlarning erkin iqtisodiy faoliyat yuritishlari uchun, hukumat barcha byurakratik talablarni ayrimlarini butunlay yo'k qildi,ayrimlarini minimalizatsiyalashtirdi.

- vakant joylarni qo'shimcha yuritgan invalidlar, qariyalar va «ayrim millat vakillari» uchun hech qanday majburiyatlar yo'q.
- Davlat ishi bilan bog'liq bo'lgan kichik va o'rta korxonalar uchun preferensial rejim berilgan.
- Seulning markaziy rayonida to'libketganlikni nazorati siyosatida chegaralashlar yo'q.
- Xodimlarni haq to'lanadiganoylik ta'tillari bilan bog'liqhech qanday majburiyatlar yo'q.
- davlat mulkini va qurilishini ijaraga olishda 50 yillik ijaraning mumkinligi.
- EIHda barpo etilgan firmalarning aksiyalariga egalik qilishda hech qanday chegaraning yo'qligi,xorijiy investisiyali firmalar pullarini xorijiy valyutada jo'natishlari mumkin (S10000 miqdorida).
- moliyaviy va infrastrukturali tayanch.

Faol iqtisodiy faoliyatni ragbatlantirish uchun Koreya hukumati inventorlarnimoliyaviy qo'llab-quvvatlaydi.Hukumat mahalliy byudjetdan xorijiy investorlarni ijaraga qo'yish uchun yer uchastkalari olish va ularni qurilishiga mablag ajratadi.Xorijiy investorlarga moliyaviy yordam zavodlar yoki ta'lim markazlari qurilishi uchun beriladi. Talablari: Yangi qurilishva zavodni kengaytirish, investisiyasi S10mln. yoki 10 tadan ko'p ilmiy xodimga egaR@Dmarkazlar.

Davlat yoki jamoat mulkini ijaraga olgan xorijiy investorlar arenda to'lovining pasaytirilishi va boshqa imtiyozlar oladilar.

Markaziy yoki mahalliy boshqaruv organlari yo'l qurilishi,aeroport,park va boshqa infrastruktura qurilishixarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga oladilar.

EIH xorijliklarni ko'ngilli sharoitlarda yashashga,tabiiy,madaniy va tarixiy obidalaridan bahramand bo'lishga taklif qiladi.

EIHlardaryolar,tog'lar va dengizlardan uzoqda bo'lmagan,chiroyli tabiiylandshaftlarga ega bo'lgan,yoqimli klimatga ega bo'lgan regionlarda joylashgan. Turistik va turar joy komplekslari mehmonlarni zeriktirmaslik uchun turli imkoniyatlar yaratib qo'yganlar.

Koreya Respublikasi EIHidaminglab xorijiy korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi. Masalan:

1. Samsung Tesco- Samsung vaUK retailer Tesco in 1999bilanqo'shmakorxona.
2. Kumbo Mitsui Chemicals- yapon-koreya qo'shmakorxonasi50.
3. Dow Chemical xalqaroximiyakorxonasi,1897yilAQShdatashkil qilingan 3,400 danortiQmaxsulotishlabchiqaradivaxizmatko'rsatadi.
4. BASF Koreazavod The Yeosu MDI, TDI kuniga 24 soatishlaydiva 160000 tonnaishlabchiqaradi.
5. GSCaltex - birinchi Koreya neftni qaytaishlash kompaniyasi. Lucky andCaltexin bilan hamkorlikda tashkil etilgan
6. POSCOGwangyangStpo'lat quyish zavodi.
7. Nakamura-Tome Precision Industry(Yaponiya) zavodni 7 oyichidaochishdi.

Xulosa qilib aytganda erkin iqtisodiy hududlar – bu Koreya milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qoʻllanilmaydigan oʻziga xos imtiyozlar va ragʻbatlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Koreyadagi erkin iqtisodiy hududlarning tashkiliy-funksional tuzilmasi yetarli darajada turli-tumandir. Baʼzan u yoki bu erkin iqtisodiy hududlarni bir soʻz bilan guruhlariga ajratib boʻlmaydi, chunki ular koʻplab hududlarning xususiyatlarini oʻzida jamlashi mumkin. Erkin iqtisodiy hududlar mutaxassislar tomonidan hududda xoʻjalik yurituvchi koʻplab firmalarning faoliyat sohasiga - xoʻjalik yuritishning ixtisoslashuviga koʻra taxminiy guruhlashtirilgan.

3. Koreya Respublikasining texnologik rivojlanishidagi “yashil texnologiyalar” strategiyasining roli

Koreya Respublikasining oxirgi 30-40 yil ichidagi iqtisodiy oʻsishi uni asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlar boʻyicha nafaqat Osiyoda balki jahonda ham eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqdi. Janubiy Koreya bozor iqtisodi yoʻlini tanlab olgan. Hozirda mamlakat nominal YaIM boʻyicha dunyoda 15-oʻrinda va Harid qobiliyati boʻyicha 12-oʻrinni koʻrsatib, jahonning sanoatieng rivojlangan 20ta mamlakat (G20) qatoridan joy olmoqda. Bu yuqori daromadli rivojlangan mamlakat oʻzining koʻzga koʻringan sanoati bilan “Rivojlangan mamlakatlar Iqtisodiy Rivojlanishi va Hamkorlik Tashkiloti” (OECD) ga ham aʼzodir. Shu bilan birga Koreya Respublikasi 1996-yilda Butun Jahon Savdo Tashkiloti (WTO)ga aʼzo boʻlgan, Osiyo–Tinch Okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) da faol ishtirok etadi. Bu bilan birga Koreya Respublikasi Osiyoda Yaponiyadan keyingi 2-davlat nomiga ham sazovor boʻldi. Deyarli resurslarga ega boʻlmagan va territoriyasiga nisbatan koʻp aholiga ega boʻlgan Koreya Respublikasi katta ichki harid bozorini yaratib va keyinchalik eksportga asoslangan siyosatni olib brogan Koreya 2009-yilda dunyoning 8-katta eksport qiluvchi va 10-katta import qiluvchi mamlakatga aylandi.

Xalqaro hamjamiyat tavsiya qilganidek, Koreya Respublikasi ham boshqa rivojlangan mamlakatlar kabi mamlakat iqtisodini o'sishini ta'minlash maqsadida yangi "Yashil texnologiyalar" strategiyasini ishlab chiqdi. 2009-yil Koreya Respublikasi hukumati bu dasturni boshladi.

Bu strategiya o'zida 4 asosiy tarmoqni mujassamlashtiradi. Ularga:

- Energiya tejovchi iqtisodiyotni o'rnatish uchun energiyani qayta ishlab undan yangi toza energiya yaratish;
- Ekologik toza transport tarmoqlarini yaratish va yashash sifatini oshirish va atrof-muhitni yaxshilash uchun toza suv;
- Uglerod chiqindilarini kamaytirib, suv resurslarini himoya qilish;
- Samarali energiya ishlatuvchi texnologiyalar yaratish va sanoat, axborot texnologiyalarini yaratish kiradi.

Buning uchun esa energiya tejovchi texnologiyalar, gibrid dvigatelda ishlovchi avtomobillar, suv va sun'iy suv havzalarini, hamda atrof-muhitni kam ifloslantiruvchi texnika-texnologiyalar yaratish rejalashtirilgan.

Bu dastur doirasida Koreya hukumati besh yil mobaynida 72,6mlrd.doll.investitsiya qilishni rejalashtirilgan. Bu sohadagi investorlarga va faoliyat ko'rsatuvchilarga davlat tomonidan bir qancha qulayliklar yaratildi: soliq imtiyozlari, korporativ soliq va daromad solig'idan 7 yilga ozod qilinishi, kompaniyalarning 3yil ko'rsatilgan soliqning 50%i chegirib tashlanadi.

BMTning atrof-muhitni himoyalash dasturi Koreya Respublikasi tabiatni muhofaza qilish tajribasini boshqa mamlakatlarga bermiqchi. Yangi ming yillikda Koreya Respublikasi "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dunyoda yetakchi bo'ldi.

Seulda bo'lib o'tgan "Katta yigirmatalik" sammitining asosiy elementi ramziy jihatdan oddiy yashil o't bo'ldi. O'tgan yili sammit ilk bor "Katta yettitalik"ga kirmaydigan mamlakatda ya'ni Koreya Respublikasida bo'lib o'tdi. Bunday katta xalqaro tadbirning bo'lib o'tishi Koreya Respublikasi diplomatlari uchun tarixiy hodisa bo'lib, Koreya Respublikasi "yashil" o'sish bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri bo'ldi.

Koreya Respublikasi prezidenti Li Myon Bak tomonidan taklif qilingan “yashil o’sish” startegiyasiga mamlakat 2008-yildan o’tishni boshladi. Mamlakat dasturi “3” deb nomlangan paradigmani o’zida aks ettiradi, u shunday tarmoqlarni rivojlantirishga yo’naltirilganki, bir vaqtning o’zida ekologiya, energetika va iqtisodiy o’sish masalasini hal qila oladi

Koreya Respublikasida besh yillik rejalar an’anasi asosida yangi “yashil o’sish” dasturi ishlab chiqildi. Yana shunisi muhimki, mamlakat milliy dasturlari faqat saylov oldi hujjatlardagina amalga oshmaydi. Yaqin besh yilda Koreya Respublikasi “yashil” iqtisodiyotda 53 milliard AQSH dollarini investitsiya qilishni rejalashtirmoqda. Davlat budjeti rag’batlantiruvchi rolni kasb etadi – bu startegiya iqtisodiyotda reforma yuz berishini ko’zda tutadi ya’ni ekologik masalaga oid biznes faoliyatlariga imtiyozli shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Buning natijasi shuki - hozirda yirik Koreya korporatsiyalari yangi texnologiyalarga: quyosh energetikasi, aqlli tarmoqlar, kam uglerodli plastic va boshqalarga yirik investitsiyalar kiritayabdi. “Hyundai” va “Samsung” kabi global kompaniyalar esa dunyoning “yashil” liderlariga aylanmoqda. Hukumat “ekologik” kichik va o’rta tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashni jiddiy ravishda kengaytirdi. “Yashil tarmoqli” venchur kompaniyalar soni 2009-yilga nisbatan 40%ga oshdi, 2010-yilning faqat o’zida 800dan ortiq tadbirkorlik ro’yhatdan o’tdi. Hukumat tomonidan qabul qilingan “yashil sertifikatsiyalash” tizimi yordamida 2010-yil 400dan ortiq “yashil texnologiyalar” dastur va kompaniyalari attestatsiya ishlari olib borildi. Koreya hukumati “yashil” iqtisodiyotda 2012-yilga qadar 100 000 dan ortiq, 2030-yilga kelibesa 950 000 ish o’rinlarini yaratishga umid qilmoqda.

Inqiroz sharoitida mamlakat kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash uchun bir qator chora tadbirlarni qo’lladi. Jumladan, banklar tomonidan kreditlarni berishni osonlashtirildi. Davlat banklari tomonidan kreditlash uchun qo’shimcha 14 trl. von berilib, umumiy kredit hajmi 68. trl. vonga yetkazildi. Davlatga qarashli bo’lmagan banklar tomonidan beriluvchi kreditlarni kafolatlash uchun qo’shimcha 12 trl. von ajratildi. Shu bilan birga davlat banklarga kichik korxonalarga berishda

ko'mak ko'rsatish bilan birga, sinish arafasida bo'lgan korxonalarni qutqarmaslik kerakligini ta'kidlagan. Korxonalar likvidligi bo'yicha qarorlar qabul qilish muddati qisqartirilib, u 3 oydan 15 kunda yetkazildi. Korxonalar likvidlik darajasiga ko'ra to'rtta guruh – A, B, C, D guruhlariga ajratilib, birinchi guruhdagi korxonalar ishonchli. Ikkinchi guruhdagi korxonalar holati qisman xavfli bo'lib, bu ikki guruhga kiruvchi korxona qo'llab-quvvatlanishi kerak bo'ladi. Uchinchi guruhga xavf darajasi katta. Lekin faoliyatni tiklash mumkin bo'lgan korxonalar kiradi, bunday korxonalarni sog'lomlashtirish ko'zda tutildi. D guruhga kiruvchi korxonalarni tiklash mumkin emas. Ular bankrot deb e'lon qilindi.

Koreya Respublikasi hukumati inqirozga qarshi dasturining asosini 2008 yilning avgustida qabul qilgan “Davlat korxonalarini isloh qilish: boshqaruvning samarali tarkibini yaratish rejasi” («The Reform Plan for Public Firms: Creating a More Efficient Management Structure») tashkil etdi. Ushbu rejaning asosiy vazifalari qatoriga 105 ta kompaniyani xususiylashtirish va birlashtirish, 69 ta kompaniya boshqaruvini yaxshilash, 132 ta kompaniyalarning filiallarini tarkibiy qayta qurish, korporativ boshqaruv sifatini oshirish, informatsiyalarni ochish, ish haqining tabaqalashgan tizimini qo'llash, ish haqi fondiga xarajatlarni qisqartirish vazifalari kiritildi.

Qabul qilingan rejaning asosiy talablari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- 2009 yil davomida xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirish va aktivlarni sotish;
- reja asosan amalga oshiriluvchi, manfaatdor tomonlarning faol qatnashuvi asosida korxonalarni birlashtirish;
- 2012 yilgacha ish o'rinlarini va ish haqiga xarajatlarni qisqartirish;
- Dasturda qatnashuvchi kompaniyalarning amalga oshirilgan ishlar bo'yicha har hafta Moliya va strategiyalar vazirligiga hisobot berib borish.

Koreya Respublikasi prezidenti Li Men Bak tomonidan “747” dasturiga inqiroz tufayli o'zgartirishlar kiritish zaruriyati vujudga keldi. Natijada Koreya Respublikasining inqirozga qarshi choralar va 2018 yilgacha rivojlanishi dasturi «New Growth Engines Initiative» (“Yangi o'sish bosqichlari tashabbuslari”)

shakllanib, u “747” dasturi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga yangi dasturni amalga oshirish uchun davlat tomonidan 5,48 mlrd. dollar ajratildi. Inqirozga qarshi dastur doirasida xususiy sektorga 68,4 mlrd dollr investisiyalar kiritish ko‘zda tutildi, bunday investisiya xususiy sektorda ishlab chiqarish hajmini 2008 yildagi 116 mlrd. dollardan 2013 yilga kelib 253 mlrd.doll.ga o‘rtishi kutildi. eksport hajmi 2009 yildagi 120,8 mlrd.doll.dan 2013 yilga kelib 306,9 mlrd.doll.ga, 2018 yilda 795,4 mlrd. dollarga yetishi kerak.

Dastur bo‘yicha 22 ta tarmoqdagi ustuvor loyihalar 6 ta guruhga birlashtirildi: energetika va tabiiy muhitni himoya qilish; transport tizimi; yangi axborot texnologiyalari; integratsiyalashgan sanoatda yangi ishlanmalar; biosanoat; innovation faoliyat.

Birinchi ushbu guruhlarning o‘zi bir qancha yo‘nalishlarni o‘z ichiga olib, birinchi guruhga toza ko‘mirni iste‘mol qilish, okean bioresurslaridan bioyong‘i ishlab chiqarish; quyosh energiyasidan foydalanish, kislorod angidrididan tozalash, yangi avlod muqobil energiya manbalarini topish, atom energetikasini rivojlantirish. Energetika va bioyong‘i ishlab chiqarish sohasiga dastur bo‘yicha 22,9 mlrd.doll. kiritish ko‘zda tutilib, bu sohada yiliga 80 mln. barrel bioyong‘i ishlab chiqarish, 150 mingta yangi ish o‘rinlarini yaratish, 2018 yilga kelib neft mahsulotlarini istemol qilishni 43,3%ga qisqartirish ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi guruhga biologik toza transport ishlab chiqarish, kemasozlik va okean tizimlarini rivojlantirish vazifalari qo‘yilib, transport tizimini rivojlantirishda avtomatlashtirilgan tizimlar va texnologiyalarni shakllantirish, dengiz kemalarining qirg‘oq infratuzilmasi bilan o‘zaro aloqasini rivojlantirishga qaratilgan yangiliklarni qo‘llash ko‘zda tutilgan. Transportni rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalari 5 yil ichida 1 mlrd.dollarni tashkil etadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, avtomobilsozlik va kemasozlik davlat iqtisodiy siyosatida yetakchi tarmoq bo‘lib hisoblanib, hozirgi paytda dunyo kemasozligining 40%ni tashkil etadi.

Kemasozlik va dengiz industriyasini qo'llab-quvvatlash, yirik tonnajli flot chuqur mobil prichallar qurishuchun davlat tomonidan 500 mln. dollar ajratildi.

Umuman shuni ta'kidlash lozimki, Koreya Respublikasi hukumatining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish va ta'sirini kamaytirishga qaratilgan dasturining muhim yo'nalishi – davlatning faol investisiya siyosatidir. Har bir yo'nalish – yangi o'sish va yashil o'sish dasturlarida investisiya ustuvorliklari aniq belgilangan va amalga oshirilmoqda. 2009 yilda investisiyalarning o'sishi 3,7%ni tashkil etdi. Natijada davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari boshqa mamlakatlarga nisbatan yaxshi bo'lganligini kuzatish mumkin. Masalan, davlat xarajatlarining katta bo'lganligiga faramay, faqat byudjet kamomadi ko'rsatkichini olsak, 2009 yilning boshida mamlakat byudjeti aktiv saldoga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Koreya hukumati mamlakat ichida inqiroz oqibatlarini bartaraf etish bilan birgalikda, dunyoning yirik 20 ta mamlakati bilan hamkorlikni mustahkamlash yo'lida ham ish olib bordi, shuningdek mintaqaviy hamkorlik – Xitoy va Yaponiya bilan mintaqaviy hamkorlikni muhtahkamlashga qaratilgan tadbirlarni belgiladi. Bu yerda avvalo 20 lar guruhidagi mamlakatlar bilan ikki tomonlama svop operatsiyalarining sxemasini yanada kengaytirish bo'lsa, ikkinchisi Osiyo –Tinch okeani mintaqasida“Chiangmay tashabbusi” doirasida faoliyatni davom ettirish bo'ldi.

II bob bo'yichaxulosa.

Butun dunyoni qamrab olgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Koreya Respublikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Koreya Respublikasi iqtisodiy pasayish oqimiga tushib qoldi. Koreya Respublikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari ancha pasaydi va 2008-yilda atigi 2,3% ni tashkil qildi. Bu daraja 2008-yilgacha bo'lgan 4 yil ichida eng past edi. Ko'pgina mutaxassislar fikri bo'yicha jahon va Osiyo bozorlaridagi vaziyat ta'siridagi bu pasayish tendensiyasi kelgusi davrda kuchayishi mumkin deb ta'kidlangandi. Biroq jadvaldan ko'rinib turibdiki,

Koreya Respublikasi nafaqat inqirozgacha bo'lgan holatini tiklab oldi, balki u darajadan oshib ketishga ham erishdi.

Koreya Respublikasining erkin iqtisodiy hududlari ilg'or texnologik rivojlanisida juda kata ahamiyatga ega.

Xalqaro hamjamiyat tafsia qilganidek, Koreya Respublikasi ham boshqa rivojlangan mamlakatlar kabi mamlakat iqtisodini o'sishini ta'minlash maqsadida yangi "Yashil texnologiyalar" strategiyasini ishlab chiqdi. 2009-yil Koreya Respublikasi hukumati bu dasturni boshladi.

Bu strategiya o'zida 4 asosiy tarmoqni mujassamlashtiradi. Ularga:

- Energiya tejovchi iqtisodiyotni o'rnatish uchun energiyani qayta ishlab undan yangi toza energiya yaratish;
- Ekologik toza transport tarmoqlarini yaratish va yashash sifatini oshirish va atrof-muhitni yaxshilash uchun toza suv;
- Uglerod chiqindilarini kamaytirib, suv resurslarini himoya qilish;
- Samarali energiya ishlatuvchi texnologiyalar yaratish va sanoat, axborot texnologiyalarini yaratish kiradi.

BMTning atrof-muhitni himoyalash dasturi Koreya Respublikasi tabiatni muhofaza qilish tajribasini boshqa mamlakatlarga bermochi. Yangi ming yillikda Koreya Respublikasi "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dunyoda yetakchi bo'ldi.

Seulda bo'lib o'tgan "Katta yigirmatalik" sammitining asosiy elementi ramziy jihatdan oddiy yashil o't bo'ldi. O'tgan yili sammit ilk bor "Katta yettitalik"ga kirmaydigan mamlakatda ya'ni Koreya Respublikasida bo'lib o'tdi. Bunday katta xalqaro tadbirning bo'lib o'tishi Koreya Respublikasi diplomatlari uchun tarixiy hodisa bo'lib, Koreya Respublikasi "yashil" o'sish bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri bo'ldi.

Koreya Respublikasi prezidenti Li Myon Bak tomonidan taklif qilingan "yashil o'sish" startegiyasiga mamlakt 2008-yildan o'tishni boshladi. Mamlakat dasturi "3" deb nomlangan paradigmani o'zida aks ettiradi, u shunday tarmoqlarni

rivojlantirishga yo'naltirilganki, bir vaqtning o'zida ekologiya, energetika va iqtisodiy o'sish masalasini hal qila oladi.

III BOB KOREYA RESPUBLIKASINING TEXNOLOGIK RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

1. Koreya Respublikasining postindustrial davrda rivojlanish istiqbollari

Ilmiy-texnik taraqqiyot Koreya Respublikasi iqtisodiyoti tuzilmaviy qayta qurilishining ajralmas omili hisoblanadi. Ma'lumki, industrial texnologiyalar o'zlari ilk bor yaratilgan jamiyatning kodini olib yuruvchi genetik moddaga o'xshaydi. Shuning uchun texnologiyalar yetkazish – bu ishlab chiqarishni boshqarish, haridorning bozorda o'zini tutishi to'g'risidagi ijtimoiy ma'lumotlarni yetkazish hamdir.

Mamlakat ishlab chiqarishda texnologik almashinuv va o'z tadqiqot natijalaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqda. "Samsung", "Hyundai", "LG" Koreya konglomeratlari xalqaro darajadagi fan talab mahsulot ishlab chiqaruvchilariga aylangan. Koreya Respublikasi ko'pdan beri yetakchi kapitalistik davlatlar bilan texnologik poygaga qo'shilgan. Oqibatda, mikroelektronika va informatika, yuqori texnologiyalar orqali kelib chiqadigan yangi bozorlarni shakllantirish uchun tuzilmaviy raqobatga ham qo'shilgan.

Texnologiyalar – o'ziga xos bo'lsa-da, ishlab chiqarishning mustaqil omili. Texnologiyalarda ma'lumot o'zini mehnat va kapital singari iqtisodiy resurs sifatida qabul qilinadi. Ma'lumot keng, ilmiy, texnik, boshqaruv, bozor, bashorat ma'nolarida tushuniladi.

Mamlakat iqtisodiyotida elektron texnologiyalarning o'zlashtirilishi – o'rni bosish mexanizmi omadli ishlayotganining misolidir. 80-90-yillar oralig'ida yetakchi kapitalistik davlatlarning bojxona proteksionizmi, xalqaro raqobatning murakkablashuvi, ishchi kuchi narxining oshishi Koreya Respublikasining eksportga yo'naltirilgan rivojlanishini yo'q qilish xavfi bor edi. Eksport tuzilishining diversifikatsiyasi, mikroelektronika va informatikani tatbiq etish orqali buning oldi olindi. Yuqori texnologiyalardan foydalanish oldinga ilgarilab ketish emas edi. Elektron texnologiyalarni o'zlashtirish uchun muhandis kadrlar,

doimiy malaka oshirishga qodir malakali ishchi kuchi va umuman mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiyotning zamonaviy tarmog'idagi to'g'ri tuzilgan raqobat mexanizmi kerak.

Hozirgi davrda Koreya Respublikasi iqtisodiyotida fan talab tarmoqlar mehnat va kapital talab tarmoqlar bilan uyg'unlashib ketgan. Bozorlar uyg'unlashuvining yangi variantlari va davlat tuzilmaviy siyosatini modernizatsiyalash rejasini qidirish aktual bo'lib qolgan. Bu siyosatning tarkibini uning qismlarini sanab o'tish orqali aniqlash mumkin emas. Shubhasiz, investision dasturlar, narxlarni tartibga solish, tashqi savdo aylanmasi muvozanatda ushlab bo'yicha turli xil choralar, kredit siyosati, bozorni kontingentlash, soliq, antiinflatsion siyosat tuzilmaviy siyosatning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Tuzilmaviy siyosatning asosiy maqsadi – yaxlit, zamonaviy o'zini qo'llaydigan o'sish iqtisodiyotini yaratish, iqtisodiy rivojlanishning bozor-reja mexanizmini tuzish.

Oxirgi 30 yil davomida Koreya Respublikasi informasion-kommunikasion texnologiyalar sohasida rivojlanishning rekord darajadagi yuqori sur'atlarini ko'rsatmoqda va 2010-yilga kelib Hukumat tomonidan mamlakat iqtisodiyotining asosiy "lokomotiv" laridan biri sifatida ko'rilayotgan ushbu tarmoq xizmatlarining tarqalganlik va ulardan foydalana olish darajasi bo'yicha jahon peshqadamlari qatoriga mustahkam kirgan.

Mahalliy mutaxassislar bashorat qilishganidek, 2011-yilda Koreya Respublikasi YaIM ining 21% i va eksportning 32% i IKT sohasidan bo'lgan. Hozirgi paytda mamlakat enlik kabel aloqa tizimidan foydalanish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab turibdi, 78% (16 mln.) uylar Internetga yuqori tezlikda ulanish imkoniyatiga ega. Koreya Respublikasi mobil aloqa texnologiyalari tarmog'i bo'yicha yetakchi pog'onalarda joylashgan va jahonda birinchilardan bo'lib 3G va 3G+ texnologiyalaridan tijoratda foydalanishni boshladi. G'arbiy Yevropa va AQSh mutaxassislarining baholariga ko'ra, hozirda Koreya Respublikasi WiBro, WiMax va Wi-Fi simsiz aloqa protokollari bozorida jahondagi eng rivojlangani hisoblanadi. Rasmiy statistikaga ko'ra, 2010-

yili Koreya Respublikasida 19884 tijorat Wi-Fi-“hotspot” lari ishlagan, bu esa eng yuqori butunjahon ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. “SK Telecom”, “Hanaro”, “KT” Koreya kompaniyalari global bozorning ushbu segmentida yetakchi pog‘onalarni mustahkam egallagan.²⁷

Koreya Respublikasida Informasion-kommunikasion texnologiyalarni modernizatsiyalash maqsadida 4-avlod kommunikasion tarmog‘i va uskunalarini yaratishga qaratilgan faol ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari olib borilmoqda. Bunda ko‘proq e‘tibor simsiz enlik kabel aloqa (wireless broadband) segmentini rivojlantirishga qaratilmoqda. Bunday kommunikasion uskunalar va elektron qismlarning asosiy koreys ishlab chiqaruvchilari “Samsung Electronics”, “LG”, “Pantech” kompaniyalari hisoblanadi. Koreya Informasion-kommunikasion texnologiyalari segmenti uchun yetakchi texnologik g‘oyalarning asosiy donorlaridan: “Qualcomm” AQSh korporatsiyasi, Elektron texnologiyalar milliy ilmiy-tadqiqot instituti (Electronics Technology Research Institute), “Samsung” kompaniyasining korporativ ilmiy-tadqiqot instituti – “Samsung Advanced Institute of Technology” (SAIT).²⁸

Koreyada erishilgan aholining yuqori rekord darajadagi ma’lumotlilik, mamlakat ichida yetakchi aloqa xizmatlari va Internetdan foydalanishning yuqori darajasi ko‘pgina mutaxassislar tomonidan Koreya Respublikasi 2001-2010-yillarda ilmiy-texnik va iqtisodiy rivojlanishi yuqori sur‘atlarining asosiy omili sifatida ko‘rilmoqda.

Joriy yilda Kommunikatsiya va aloqa bo‘yicha koreys qo‘mitasi “Milliy informasion-kommunikasion tizimlarni modernizatsiyalash rejasi” ni tasdiqladi. Rejadan maqsad 2012-yilda butun mamlakat bo‘yicha Internet tezligini 10 martaga oshirish hisoblanadi. Bu esa milliy informasion-kommunikasion texnologiyalarning keyingi faol rivoji va ularni samarali amaliy qo‘llash uchun kerakli sharoitlarni yaratadi. Koreya Respublikasining aholisi uchun hozirda mavjud enlik kabel aloqasi tomonidan taklif qilinayotgan 50-100 Mb/s o‘rniga 1

²⁷ Korean Information & Communication Technology Statistics - unstats.un.org

²⁸ Ministry of Education, Science, and Technology (Korean) - <http://www.mest.go.kr/>

Gb/s gacha tezlikda va simsiz aloqaning oʻrtacha 10 Mb/s tezligi oʻrniga 1 Mb/s gacha tezlikda aloqaga chiqish imkoniyatini bildiradi.

3.1-jadval.

**2020-yilgacha boʻlgan davrda Koreya Respublikasi iqtisodiyotining
istiqbolli tarmoqlari**

Sanoat turi	Asosiy mahsulotlar
Yangi avlod yarimoʻtkazgichlarini ishlab chiqarish	Yangi avlod xotira platasi, anʼanaviy yarimoʻtkazgichlar
Biologik sunʼiy aʼzolar ishlab chiqarish	Innovasion biomedikament va bioorganlar
Aloqa tarmoqlari	Desimetrli chastotani kuchaytirgich, maʼlumotlarni uzatish va qayta ishlab birlashtiruvchi vosita, uy IKT tarmoqlari, yangi avlod uyali telefonlari
Yangi avlod koʻrgazmali texnologiyalari	Raqamli, LCD va OLED televizorlari, golografik navigatorlar
Yangi avlod kompyuterlarini ishlab chiqarish	Ixcham kompyuterlar, “intellektual” kompyuterlar
Transport vositalarining yangi avlodini ishlab chiqarish	Intellektual transport vositalari, yoqilgʻi elementli avtotransport, ekomashinalar
Madaniyat va dam olish	Madaniyat va koʻngilochar mahsulotlar, elektron va avtomatlashtirilgan oʻyinlar
Tibbiy xizmat	Tuzalishi qiyin boʻlgan kasalliklarni profilaktika qilish boʻyicha xizmatlar, qarilik kasalliklari va qariyalarga tibbiy yordam berish
Energiya manbalarining yangi avlodini ishlab chiqarish	Ikkilamchi batareyalar, quyosh batareyalari, vodorod energiyasi
Mexatronika (robot ishlab chiqarish)	Sanoat robotlari va xizmat sohasi uchun robotlar
Yuqori texnologiyalari kimyoviy vositalarni ishlab chiqarish	“Aqlli” polimerlar, elektron maʼlumotlar sohasi uchun rafinirlangan kimyoviy vositalar, ekologik toza kimyoviy materiallar, nanotekstil
Innovasion havo yoʻli va suv	Yuqori qoʻshilgan narxdagi suv yoʻli joʻnatmalari, yangi

yo'li orqali jo'natish	avlod aerokosmik mahsulotlari
Yuqori jihozlar uchun detallar ishlab chiqarish	Ultramikropriborlar, yuqori texnologiyali datchiklar, issiqlik datchiklari, biologik qo'shma mikrosxemalar
Yuqori texnologiyali mashinasozlik	Qayta ishlovchi intellektual moslashuvchan tizimlar, ko'p funksiyali ekologik sanoat moslamalari, foydali ish koeffisienti yuqori bo'lgan energiya generatorlari

Manba: Kim.Y.S. Regional Industrial Policy in Korea – its Outcomes and Implications// KIET Industrial Economic Review. 2008.No 2 P. 20.

2014-yilgacha bo'lgan muddatda "All-IP" uzatish texnologiyasi asosida yuqori enlik kabel aloqasi orqali Internetga chiqishning jahondagi eng yaxshi umummilliy tarmoqlaridan birini yaratish uchun 26 mlrd. ga yaqin dollar ajratildi. Shu bilan birga xarajatlarning asosiy qismi – 32 trln. 800 mlrd. vonani xususiy tadbirkorlik tomonidan, qolgan – 1 trln. 300 mlrd. vonasi esa davlat byudjetidan kelib tushadi. Mutaxassislar bahosiga ko'ra, rejaning amalga oshirilishi keyingi 5 yil davomida Seul uchun 1,7 mlrd. AQSh dollari miqdorida qo'shimcha qiymat va 120 ming kishini ish bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Rejaning amalga oshirilishidan keladigan umumiy iqtisodiy foyda 4,5 mlrd. AQSh dollarni tashkil qilishi bashorat etilmoqda.²⁹

Koreya Respublikasining informasion texnologiyalari va uskunalarining yuqori raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida 2005-yildan mamlakatda 2015-yilgacha milliy IKT tarmog'i rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va sur'atlarini aniqlaydigan "IT-839 strategy" strategik dasturi faol amalga oshirilmoqda. "IT839" dasturining asosiy maqsadlari:

- 2010-yilda 8 ta yangi simsiz aloqa xizmatlari, 3 ta yangi global informasion-kommunikasion tizimlarni keng ko'lamda tatbiq qilish;
- 9 ta innovasion "o'sish sur'atlari" rivojlanishining yuqori sur'atlarini ta'minlash;
- 2011-yilga kelib IKT sohasida ishlayotgan hodimlar sonini 1,6 mln. kishigacha oshirish;

²⁹Korean ICT development statistics - <http://english.mest.go.kr>

- 2012-yilga kelib IKT mahsulotlari eksportidan daromadni 15 mlrd. AQSh dollarigacha ko‘paytirish.

Hozirda IKT sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish uchun javobgar asosiy organlar Koreya Respublikasi Ta‘lim, fan va texnologiya vazirligi, hamda Kommunikatsiya va aloqa bo‘yicha qo‘mitasi (Korea Communications Commission) hisoblanadi. IKT sohasida tartibga solish vazifasini davlat bajaradi. Operator kompaniyalari faoliyatini lisenziyalash va ularga radioto‘lqin spektrda ishchi diapazonlarni ajratish to‘lov asosida Kommunikatsiya va aloqa bo‘yicha qo‘mita bilan birgalikda Koreya Respublikasi telekommunikasion texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Olinadigan mablag‘ tarmoqning rivojlanishiga qayta invetsiya qilinadi. Provayder kompaniyalari tomonidan ularga ajratilgan to‘lqinlardan foydalanganliklari uchun abonent to‘lovi sifatida kelib tushadigan moliyaviy ajratmalar “Information Promotion Fund” maxsus davlat fondida jamg‘ariladi:

1. Hukumat simsiz aloqa tizimi, davlat ob‘ektlari informasion infratuzilmasining jiddiy elementlarini yaratish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish.
2. Xususiy kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadigan telekommunikasion infratuzilmani mukammallashtirish va modernizatsiyalash.
3. IKT sohasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug‘ullanadigan asosiy ilmiy-tadqiqot tashkilotlar – “Electronics Technology Research Institute”, “National Cooperation Agency”, Telecommunications Technology Agency” ni qo‘llab-quvvatlash.

2005-yildan boshlab Koreya Respublikasida davlat va xususiy tadbirkorlik kuch sarflashi orqali “Intellectual robotlar industriyasini rivojlantirish strategik rejasi” amalga oshirilmoqda. Bu reja mamlakatni 2013-yilga kelib jahonda uchinchi yirik robototexnika ishlab chiqaruvchisiga aylantirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus 20 ming ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlash, poytaxt hududida innovasion robototexnik industrial markazni yaratish, hamda bu sohada turli xil sanoat tarmoqlari bilan hamkorlikni faollashtirishni o‘z ichiga oladi. Robototexnikaning informasion texnologiyalarini rivojlantirish davlat strategiyasi

o‘z oldiga ushbu segmentning jahon bozorida 15% ini egallash, yiliga 30 mlrd. AQSh dollari miqdorida ishlab chiqarish, 20 mln. dollari miqdorida yillik eksport va 100 ming yangi ish o‘rinlarini yaratishga erishish maqsadini qo‘yadi. 2012-yilda mamlakat hukumati birinchi marta “Intellectual robotlar milliy industriyasini rivojlantirish to‘g‘risida” gi maxsus qonunni tasdiqlashni rejalashtirgan.

O‘rtamuddatli istiqbolda Koreya Respublikasi strategik informasion texnologiyalarni keyinchalik rivojiga birinchi navbatda e‘tibor qaratishni mo‘ljallab qo‘ygan. Shu bilan birga iqtisodiy o‘shishning istiqbolli manbalari sifatida IKT ning bir qancha segmentlari ko‘rilmoqda. Bular qatorida simsiz aloqa, robototexnika, konvergent informasion tizimlar, eshittirish vositasi, radioto‘lqin identifikatsiya texnologiyalari va RFID/USN sensor tarmoqlar, yarimo‘tkazgichlar, displeylar, diodyorug‘i orqali yoritish; sanoat, tibbiyot muassasalari, davlat idoralari, bank sohasi, transortda ma‘lumot bilan ta‘minlash uchun maxsus dasturiy ta‘minotni yaratish mavjud.

Ko‘rib chiqilganidek, Koreya Respublikasi tomonidan tanlangan IKT ni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘pgina rivojlanayotgan, xususan O‘zbekiston tomonidan ham ikki tomonlama hamkorlikni tashkillashtirish, hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini innovasion rivojlanishga o‘tkazish maqsadida Koreya “nou-xau” va tajribasidan foydalanish bo‘yicha qiziqish uyg‘otishi mumkin.

2010 yilda Koreya Respublikasi kompaniyalari xorijda sanoat ob‘ektlarini qurishga buyurtmalar portfelinii to‘ldirish bo‘yicha yana bir bor yangi rekord ko‘rsatkichni o‘rnatishdi. Bundan tashqari Hukumat tomonidan qo‘yilgan 60 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi reja o‘rnatilgan muddatdan 1,5 oy oldin bajarildi. 2010-yil 16-noyabr holati bo‘yicha, buyurtmalar hajmi 60,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi (2009-yilda 49,1 mlrd. AQSh dollari). Koreya Respublikasi qurilish kompaniyalari 2006-yildan buyon beshinchi yil ketma-ket buyurtmalar hajmini oshirib borishmoqda. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha 2010-yilda 2003-yil ko‘rsatkichlaridan 17 marta oshib ketishi qayd etilgan. Koreya Respublikasi quruqlik va dengiz hududlari vazirligida ta‘kidlanishicha, bu joriy tarmoqning miqdoriy rivojlanayotgani to‘g‘risida guvohlik beradi.

Shu bilan birga Vazirlik tarmoq sifatli rivojlanishi bo'yicha o'zining cho'qqisiga yetdi deb hisoblaydi. Chunki qurilishga ko'pgina buyurtmalar Yaqin Sharqdan olingan.

Bunday natijalarga Seulning ushbu mintaqa bilan odatiy yaqin iqtisodiy aloqalari, hamda Koreya hukumatining ancha tabiiy resurslari zahirasiga ega davlatlar bilan aloqalarni kengaytirish maqsadi tufayli erishilgan. 2010-yil iyul holatiga ko'ra, Koreya Respublikasi kompaniyalari umumiy miqdorda 36 mlrd. AQSh dollariga teng shartnomalarni tuzishgan, shulardan 25% i Yaqin Sharq davlatlaridan bo'lgan. Bundan tashqari, faqatgina 2010-yilning iyul-avgustida 11 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi 26 ta shartnoma ro'yxatga olingan.

2010-yilning noyabr oyida 25 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi yirik qurilish loyihasi qurish masalasi bo'yicha "Hyundai", "SK" va "POSCO" kompaniyalaridan tashkil topgan konsorsium va Iroqning Davlat investisiya masalalari bo'yicha boshqarmasi o'rtasida hamjihatlik to'g'risida hujjat imzolanishi haqida e'lon qilindi.

Konsorsium Iroq hududida uy-joy infratuzilmasining 500 ming ob'ektlarini qurishda ishtirok etadi. Iroqda hozirda uy-joy masalasi jiddiy muammolardan bo'lib qolmoqda va bu holatni yaxshilash uchun 2-3 mln. ta uy qurish kerak.

Yaqin Sharq bozorining asta-sekin to'yinib borayotganligi va mintaqadagi siyosiy beqarorlikni hisobga olgan holda Koreya Respublikasi quruqlik va dengiz hududlari vazirligi xorijiy pudrat qurilish ishlari tarmog'ini sifatli rivojlantirishda davlat ko'magini kuchaytirishga qaror qildi. Hukumat tomonidan qo'yilgan 2014 yilga Koreya Respublikasini xorijda qurilish ishlarini olib borayotgan birinchi 5 ta davlatlar qatoriga ko'tarish vazifasini bajarish maqsadida quyidagilar rejalashtirilgan:

- Suv resurslari, atom energetikasi, shahar qurilish, transport va "yashil" energetikani boshqarish bo'yicha ob'ektlarni quriladigan inshootlar qatoriga qo'shish hisobiga bu qatorni kengaytirish;

- Koreya Respublikasi quruqlik va dengiz hududlari vazirligi Afrika, Lotin Amerikasi, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bozorlarida koreys

kompaniyalarini faolroq rivojlantirish yo‘li bilan pudratlar olish manbalarini diversifikatsiya qilishni taklif etmoqda va bu yo‘nalishda ma’lum bir ishlar qilinganini ko‘rsatmoqda.

Hisobot yilida Seul quyidagi loyihalarda ishtirok etishga qiziqish bildirdi:

- AQShning Kaliforniya shtatida tezyurar temir yo‘l qurilishi. Koreya Respublikasi va Kaliforniya shtati hukumatlari o‘rtasida maqsadlar to‘g‘risidagi muvofiq hujjat 2010-yilning fevralida imzolangan. Mutaxassislar ta’kidlashicha, ushbu hujjat koreys kompaniyalari aniq joriy buyurtmani qo‘lga kiritishlarini bildirmasligiga qaramay, biroq u AQSh tomonidan Koreya Respublikasi texnologiyalarining yuqori darajadiligini tan olinishini bildiradi. Dastlab Kaliforniya hukumati bilan maqsadlar to‘g‘risidagi hujjatlar tenderda g‘oliblik uchun kurashadigan Xitoy, Germaniya, Yaponiya va Italiya hukumatlari o‘rtasida imzolangan edi;

- Braziliya tezyurar temir yo‘lining qurilishi. “Koreys temir yo‘l qurilish korporatsiyasi”, hamda yapon va xitoy kompaniyalari tenderda ishtirok etish xohishlarini bildirishgan;

- Indoneziyaning Banten shahrida mahalliy “PT Krakatau Steel” po‘lat quyish kompaniyasi uchun to‘liq metallurgik siklga ega zavod qurish;

- Singapurda 20 qavatli mehmonxona, 8 va 11 qavatli ofis binolaridan tashkil topgan tijorat majmuasini qurish;

- Xitoyning Dalian shahri chetida uy-joy majmuasini qurish;

- Saudiya Arabistonida polisilikon va akrilbenzol ishlab chiqarish bo‘yicha zavod qurish;

- Janubiy Afrika Respublikasida elektr ta’minotida uzilishlarni oldini olish uchun 6 ta atom elektr stansiyasini qurish. Xitoy va Fransiya bu loyihada Koreya Respublikasining raqibi bo‘lib kelmoqda;

- Kanada uy-joy qurilishi.

Shunday qilib, Seul xorijda qurilish biznesi mamlakatga neft, gaz va boshqa tabiiy resurslarni yetkazishga uzoq muddatli shartnomalarni amalga oshirishda birga bo‘ladigan faoliyat sifatida ko‘rilgan oldingi strategiyasini asta-sekin

o'zgartirmoqda. An'anaviy energetika ob'ektlarining ulushi anchagina bo'lsa-da, biroq oxirgi vaqtda stagnasion tendensiya kuzatila boshlandi.

Koreya Respublikasi uchun MDH hududidagi infratuzilma loyihalari hali ham jozibasini saqlab kelmoqda.

2010-yilning dekabr oyida "KOGAS" koreys gaz korporatsiyasi "Uzbekneftegaz" davlat kompaniyasi bilan O'zbekiston hududida 50-55 ta gaz kompressor stansiyalari tarmog'ini qurish to'g'risida tegishli hujjat imzolagani ma'lum bo'ldi. Qurilish ishlari 2011-yilning ikkinchi yarmida boshlangan.

"Samsung" va "KEPCO" koreys korporatsiyalari Qozog'istonda Balxash issiqlik elektr stansiyasini qurishga tenderni yutdi.

Koreya Respublikasi intellektual tarmoqlar va yorug'lik diodi sanoati sohasida yetakchi pog'onalarni egallaydi. Bu tarmoqlar hozirgi davrda istiqbolli hisoblanadi va koreys hukumati ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari va bozorning ushbu segmentini rivojlantirishga pul va kuchini ayamayapti. Hukumat kelajakda faol rivojlanadigan bu sohalarni qo'llab kelmoqda.

"Yashil o'sish" bo'yicha prezident qo'mitasining 15-kengashida bosh vazir Kim Xvan Sik yorug'lik diodi sanoatining rivojlanish sur'atlarini yuqori baholadi va keyinchalik ko'mak uchun ko'rsatmalar berdi.

"Yashil texnologiyalar" intellektual tarmoqlar va yorug'lik diodi ishlab chiqarish kabi ekologik toza ishlab chiqarish o'sishining omili hisoblanadi.

Bundan tashqari intellektual texnologiyalar energiya iste'molini tejash maqsadida uni nazorat qilish imkoniyatini beradi. Intellektual texnologiyalar elektr iste'molini qisqartirishga imkon yaratadi va "yashil texnologiyalar" dan hisoblanadi. Hozirda Koreya Respublikasi butun dunyoda intellektual tarmoqlar sohasida raqobat afzalligiga ega va 2009-yili "Katta sakkizlik" Sammitida intellektual tarmoqlar rivojlanishi sohasida yetakchi davlat deb ta'kidlangan.

Mamlakat hukumati 2010-yilda ushbu sohani qo'llash milliy rejasini yaratib, "intellektual tarmoqlar" sanoatini faol qo'llab kelmoqda. Jahonda na'muna sifatida qaralayotgan "Intellektual tarmoqlarni yaratish va qo'llash to'g'risida" gi maxsus qonunni qabul qildi. Chejudo orolida "aqlli" texnologiyalardan foydalangan holda

biznes-modellarni ishlab chiqish va texnologik yangiliklarni tatbiq etish natijalarini baholash bo'yicha dunyodagi yirik stansiya qurilgan.

Hukumat jahon bozorida yetakchilikni ta'minlaydigan milliy kuch sifatida qaralayotgan "aqlli" texnologiyalar sanoatini qo'llashni kengaytirmoqda. Hukumat erishilgan natijalarda to'xtab qolmoqchi emas va yaqin tarmoqlarni rivojlantirishni rejalashtiryapti.

Rivojlangan o'lchov tuzilmasi real vaqt tartibida iste'molchilarni kompaniya bilan birlashtiradi va bu iste'mol qilingan energiyadan kelib chiqqan holda iste'mol qilingan elektr energiyasi miqdorini nazorat qilishga imkon beradi. Hukumat "smart-metr" ning sonini 2011-yilgi 720 mingdan 2012-yilda 10 mln. gacha ko'paytirishni rejalashtirgan.

Hozirda mamlakatda elektr mobillari batareya energiyasini to'ldirib olish uchun 500 tadan kam stansiya hisobga olingan, hukumat 2016-yilga kelib ularning sonini 150 ming tagacha kupaytirishni rejalashtirmoqda. Elektr to'ldirish stansiyalari tarmog'ini kengaytirish elektr transport vositalari bozorini kuchaytirishga olib keladi. Batafsil reja 2012-yil davomida qabul qilinadi.

Hukumat 2008-yildan boshlab yorug'lik diodi sanoatini rivojlantirish bo'yicha loyihani amalga oshirmoqda. Qilingan harakatlar tufayli tarmoqning texnik potentsiali to'xtovsiz oshirib kelinyapti. Mamlakat "gazofaz epitaksiya" ("Metalorganic vapour phase epitaxy") kabi yorug'lik diodi orqali yoritishning asosiy elementlarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, yorug'lik diodi mahsuloti tizimlarining akkreditatsiya tizimi yaxshilandi, 17 turdagi yorug'lik diodi mahsulotlari uchun yuqori samaradorlikning akkreditatsiya standartlari o'rnatilgan.

Yorug'lik diodi sanoatining savdo balansi doimiy o'sib kelmoqda. 2010-yilda Koreya savdo balansining saldosi 420 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan, 2011-yilda esa 1,114 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Yorug'lik diodi mahsulotlari eksporti 2008-yilgi 960 mln. AQSh dollaridan 2011-yili 3,5 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan.

Hukumat birinchi navbatda yorug'lik diodi sanoati bozorini kengaytirib, ushbu sanoatni qo'llab kelmoqda. 2012-yilda 2-3 shahar yorug'lik diodlarini foydalanadigan shahar modellari sifatida tayinlanadi. Hukumat avtomobil to'xtash va yashash joylari, kasalxonalar va yirik mahsulot do'konlari kabi turli xil joylarda yorug'lik diodlari qo'llanishini kengaytirish bo'yicha rejalarni ko'rib chiqmoqda.

Koreya hukumati jahon bozorida yetakchi o'rinlarini saqlab qolish uchun koreys kompaniyalarini rivojlantirish va qo'llashga katta e'tibor qaratmoqda. "aqlli" datchiklar bilan jihozlangan, inson uchun qulay yorug'lik sharoitini yaratadigan "yorug'lik tizimlarining yarim o'tkazgich texnologiyalari" dasturi alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, hukumat datchik qa o'tkazgich kabi yorug'lik diodi uskunalarini ishlab chiqarishning asosiy sakkiz segmentida kichik va o'rta korxonalarning ushbu loyihalardagi ishtirokini 40% gacha oshirishni rejalashtirgan.

Xalqaro hamjamiyat tavsiya qilganidek, Koreya Respublikasi ham boshqa rivojlangan mamlakatlar kabi mamlakat iqtisodiyotininig o'sishini ta'minlash maqsadida yangi "yashil texnologiyalar" strategiyasini ishlab chiqdi. 2009-yil Koreya Respublikasi hukumati bu dasturni boshladi.

Bu strategiya o'zida 4 asosiy tarmoqni mujassamlashtiradi. Ularga:

- 1) Energiya tejovchi iqtisodiyotni o'rnatish uchun energiyani qayta ishlab undan yangi toza energiya yaratish;
- 2) Ekologik toza transport tarmoqlarni yaratish va yashash sifatini oshirish va atrof-muhitni yaxshilash uchun toza suv;
- 3) Uglerod chiqindilarini kamaytirib, suv resurslarini himoya qilish;
- 4) Samarali energiya ishlatuvchi texnologiyalar yaratish va sanoat, axborot texnologiyalarini yaratish kiradi. Buning uchun esa energiya tejovchi texnologiyalar, gibrid dvigatelda ishlovchi avtomobillar, suv va sun'iy suv havzalarini hamda atrof-muhitni kam ifloslantiruvchi texnika-texnologiyalar yaratish rejalashtirilgan.

Ushbu dastur doirasida Koreya hukumati besh yil mobaynida 72,6 mlrd. AQSh dollari investisiya qilishi rejalashtirilgan. Bu sohadagi investorlarga va

faoliyat ko'rsatuvchilarga davlat tomonidan bir qancha qulayliklar yaratildi: soliq imtiyozlari, korporativ soliq va daromad solig'idan 7 yilga ozod qilinishi, kompaniyalarning 3 yil ko'rsatilgan soliqning 50% i chegirib tashlanadi.

Bu dasturga ko'ra, asosan avtomobilsozlik va energetika tarmoqlarida ko'plab o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Barcha sanoat strategiyalarida davlat bilan bir qatorda moliyaviy guruhlar yetakchi tarmoqlarni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqdalar. Ular orasida Yashil texnologiyalar dasturi bo'yicha "Hyundai" kompaniyasi 2010-yilda vodorod yoqilg'isida harakatlanuvchi "Tuscon" avtomobilini sotuvga chiqarishni aytgan. Bu yangi avtomobil AQShda 2009-yil tajribadan o'tkazildi. Avtomobil Yaponiyaning "Honda" avtomobillari bilan raqobatbardosh bo'lib, u Sel'siy bo'yicha 0 gradusda harakatlana oladi. Jahon bo'ylab bunday ekologik toza avtomobillar 2010-2012-yillardan keng ishlab chiqarila boshlaydi. Koreya Respublikasida ham "Hyundai" va "Kia" kompaniyalari bunday gibridd avtomobillar ishlab chiqarishni boshlashgan, birinchi avtomobil 2001-yil "Hyundai" kompaniyasi tomonidan yaratilib, u 1 litr yoqilg'ida 18,8 km yo'lni bosib o'ta oladi. 2010-yilda esa kompaniya butun ishlab chiqarish hajmidan 3-4% igina yoqilg'ida harakatlanuvchi avtomobil bo'lishi habar berilgan.³⁰

Shu bilan birga, bu dasturda energiya ko'p talab qiluvchi tarmoqlar, ya'ni neftkimyo, kimyo, sement, elektrotexnik, to'qimachilik, avtomobilsozlik va kemasozlik kabilar yangi toza texnologiyalar vositasida 2008-2012-yillar uglevodorod yoqilg'isini 1,9 mln. t (7,5% neft iste'moliga teng) tejab qolishlari mumkin bo'ladi. Bu sanoat tarmoqlariga 2008-2012-yillar mobaynida 1,75 mlrd. yevro investisiya qilinishi, 2012-yilda esa davlat tomonidan bu tarmoqlarga yangi energiya tejoychi toza texnologiyalarni joriy qilish uchun 8,4 mlrd. vona (5,27 mlrd. vona) mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

³⁰ Economic plans for future - www.koreaeconomy.org, 2010

2. O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida koreya respublikasi rivojlanish tajribasidanfoydalanish imkoniyatlari

Koreya Respublikasi 50 yil ichida sust rivojlangan, qoloq agrar davlatdan zamonaviy, sanoati rivojlangan davlatga aylandi. Ko‘pgina ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetakchi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan qolishmaydi. 1996-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development, OECD) ga a‘zo bo‘ldi va ko‘pgina rivojlangan davlatlarda bir asrdan ortiq davom etgan sanoat islohoti bosqichlarining davomiyligini keskin qisqartirdi.

Koreya anchagina qiyinchiliklarga qaramay, kuchli sanoat o‘shishiga erishdi. Mamlakat hech qanday tabiiy resurslar mavjud emas. Bundan tashqari, ozodlikdan (1945-y.) keyingi Koreya bo‘linishi siyosiy beqarorlikni keltirib chiqardi. Halokatli Koreya urushi (1950-1953-yy.) Koreya Respublikasini qashshoqlik, giperinflyatsiya va surunkali ishsizlikka olib keldi.

Ko‘plab tuzilmaviy va sifat ko‘rsatkichlar bo‘yicha 20-30 yil oldingi koreys iqtisodiyoti o‘zbek iqtisodiyotiga yaqin edi. Zamonaviy O‘zbekistonda bo‘lganidek, Koreya Respublikasida ham davlat rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish, resurslarni taqsimlashda muhim rol o‘ynagan va iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam ko‘rsatgan. Oqibatda davlatning roli va uning iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvi ko‘lami qisqarib bordi, bozor mexanizmlarining qo‘llanish sohasi ko‘paydi.³¹

Bunda bosqichma-bosqich islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash, hamda uni rivojlantirishning qulay va samarali strategiyasi muhim rol o‘ynagan. Natijada, oxirgi 30 yil ichida Koreya Respublikasi ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiyotning yuqori texnologik va fan talab tarmoqlari, uning raqobatbardoshligi o‘shishining yaxshilanishida sezilarli yuksalishga erishishga muvaffaq bo‘ldi. Iqtisodiyotning aynan shu sifatlari zamonaviy sharoitlarda iqtisodiy rivojlanishda yutuq kaliti bo‘lib bormoqda. Bu ma’noda zamonaviy koreys iqtisodiyotini

³¹Мелибаева Г.А., Чон Дэ Ван, Муминов Н.Г., Внешнеэкономические связи Республики Корея, Учеб. пос., Ташкент, 2012

yaratish tajribasi va uning O'zbekiston milliy iqtisodiyoti bilan o'zaro aloqalari rivojlanishining jiddiy tahlili O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish uchun qimmatli hisoblanadi.

O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yilning 29-yanvarida o'rnatilgan. Shu yilning o'zidayoq ikki tomonlama savdo, investisiyalar o'zaro himoyasi, ilmiy-texnik hamkorlik, viza ko'magi to'g'risida bayonnoma to'g'risidagi bitimlar tuzilgan.

1992-yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 3,361 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 1,718 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Koreya Respublikasi eksportinining asosiy qismini avtomobil, to'qimachilik sanoati tayyor mahsulotlari, po'lat, maishiy elektronika, telefon aloqasi uchun uskunalari tashkil qiladi. O'zbekistondan import xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar: paxta, qimmat baho metallar, teri, an'anaviy sharq tabobati va parfyumeriya uchun tabiiy komponentlar, sintetik matolar va kimyo sanoati mahsulotlaridan iborat. Koreya Respublikasi O'zbekiston bilan savdoda doimiy ijobiy saldogaga ega.

2011-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 2010-yilga nisbatan 19,5% ga o'sdi va 1,718 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi, shundan eksport – 142 mln. dollar, import – 1,576 mlrd. dollar (3.1-jadval).

3.1-jadval.

**1992-2011-yillarda O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasidagi
savdo aylanmasi ko'rsatkichlari**

Yil	Savdo hajmi (AQSh dollari)	O'tgan yilgan nisbatan % o'zgarishi
1992	3,361 mln.	0.0
1993	70,096 mln.	1,985.7
1994	237,281 mln.	238.5
1995	244,246 mln.	2.9
1996	493,833 mln.	102.2
1997	675,113 mln.	36.7
1998	383,974 mln.	-43.1
1999	341,422 mln.	-11.1
2000	230,413 mln.	-32.5
2001	345,687 mln.	50.0
2002	188,479 mln.	-45.5
2003	247,138 mln.	31.1
2004	359,048 mln.	45.3
2005	493,095 mln.	37.3
2006	649,302 mln.	31.7
2007	748,302 mln.	15.3
2008	1,122 mlrd.	50.0
2009	1,149mlrd	2.4
2010	1,438 mlrd.	25.1
2011	1,718 mlrd.	19.5

Manba: Koreya Xalqaro Savdo Assotsiatsiyasi(Korea International Trade Organization – KITA)

Koreyaga O'zbekiston eksporti majmui transport, turistik va yordamchi transport xizmatlari (55,9%), paxta tolasi (21,7%), oziq-ovqat mahsulotlari (2,2%) va boshqalardan iborat.

Importning asosiy manbalari turli xil mashina va uskunalar (81,5%), kimyo mahsulotlari (9,6%), qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (2,9%), transport, maslahat va kommunikasion xizmatlar (2,0%) hisoblanadi.³²

Koreya kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 359 tani tashkil qildi, shulardan 62 tasi 100% koreys kapitaliga ega. Ushbu korxonalarning faoliyati asosan savdo,

³²Министерство внешних экономических связей, инвестиций и торговли Республики Узбекистан/ Сотрудничество с зарубежными странами

yengil, togʻ-metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va metallsozlik, uy-joy kommunal xoʻjaligi, sogʻliqni saqlash, turizm va xizmat sohalariga qaratilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiya va savdo vazirligida faoliyati sohasi eksport-import operatsiyalarini oʻtkazish, transport xizmatlarini koʻrsatish, toʻqimachilik ishlab chiqarishi, elektronika servis xizmatini oʻz ichiga olgan 86 ta koreys kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiyadan oʻtgan. Hususan, ikki tomonlama hamkorlikning boshidan 2011-yilgacha boʻlgan davrida Koreya Respublikasining Oʻzbekiston iqtisodiyotiga umumiy 5 mlrd. AQSh dollari miqdorida investisiya kiritgan.

Xususiy investisiyalar bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Xususiy investorlarning yuqori faolligi kichik va xususiy biznesni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmogʻi Oʻzbekiston hukumatining doimiy nazorati ostida turadi. Oxirgi yillarda uni rivojlantirish boʻyicha son va sifat jihatlarini boʻyicha qoʻshimcha choralarni qoʻllanilgan. Xususan, kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq toʻlovi stavkasi 13 dan 6% ga tushirilgan, yangi mikrofirmalar ochish va mavjudlarini yopish boʻyicha tadbirkorlar xarajatlari kamaytirilgan, ular faoliyatini tekshiruvlari soni cheklangan.

Joriy tarmoqni rivojlantirish boʻyicha ushbu va boshqa choralarning ijobiy natijalari 2010-yilda kichik biznesning YaIM dagi 52,5% gacha ulushining oʻsishida koʻrindi. 2011-yilda esa 50,5% ni tashkil qildi. Tarmoqning rivojlanishi aholi bandligining oʻsishiga turtki boʻldi. 2010-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hisobiga 950 mingta yangi ish oʻrinlari yaratildi. 2011-yilda 956 mingta ish oʻrinlari yaratilgan.³³

Shu bilan birga erishilgan yutuqlar Oʻzbekistonda kichik biznes ega boʻlgan istiqboldan hali yiroq. Birinchi navbatda uning sanoat ishlab chiqarishi, tashqi savdo, yuqori texnologiyalar sohasidagi yetarli boʻlmagan ishtiroki toʻgʻrisida

³³Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг йил якунлари маълумотидаги маълумотини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма

ta'kidlab o'tish joiz. Investision resurslar manbalarida kichik biznesning roli past va mavjud istiqbolga to'g'ri kelmaydi.

Mavjud rezervdan oqilona foydalanishda Koreya Respublikasining kichik biznesni rivojlantirish tajribasi milliy iqtisodiyotning bu tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtiruvchi mexanizm va choralarni shakllantirgan holda muhim yo'nalish berishi mumkin.

Kichik va xususiy biznes uchun transaksion xarajatlarning o'lchami xususiy kapitalni aktivlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Katta xarajatlar va chegaralar xususiy investisiyalar darajasini kamaytiradi. Koreya Respublikasi iqtisodiyotida xususiy tarmoqni yaratish tajribasi ikki davlat kichik biznesini rivojlantirish yo'lida chegaralar o'rtasidagi farqlar kichik biznesni qo'llash shakli va rivojlantirish strategiyasidagi o'ziga xos xususiyatlardan keltirib chiqarilgan bo'lishi mumkin. Koreya Respublikasida kichik biznes dastlab tuzilmaviy o'zgarishlar muammolarini hal qilishdagi asosiy qurol sifatida qaralgan. Shu bilan birga kichik biznesning harakatchanligi, moslashuvchanligi, kichik korxonalar yaratishning past kapital talabligi kabi sifatleri muhim rol o'ynagan. Bundan tashqari korxonalar nafaqat qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida, balki sanoatda ham ochilgan.

Davlatning vazifalariga kichik biznes uchun nafaqat qulay sharoitlari (ma'qul soliq siyosati, past tranzaksion xarajatlar va boshqalar) ni real ta'minlab berish, balki tashqi raqobatni cheklash (ayniqsa bu tarmoqning dastlabki yaratilish bosqichida), kichik biznes uchun muhim (bank, moddiy-texnik, informasion, kadr) infratuzilmani rivojlantirish, kichik biznesni jahon bozoriga mahsulot eksportida qo'llash kirgan.

Aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda qulay biznes sharoitini yaratish va xususiy investisiyalarni jalb qilishda turtki bo'luvchi ba'zi bir choralarni taklif etish mumkin:

- mulkni ro'yxatdan o'tkazish uchun muhim bo'lgan tartiblar soni, eksport-import shartnomalarini tuzish bo'yicha hujjatlar sonini qisqartirish, tegishli normativ-huquq bazani soddalashtirish;

- xo‘jalik da‘volarini ko‘rib chiqish tartiblarini soddalashtirish, xo‘jalik munozaralarni ko‘rib chiqishda xarajatlarni qisqartirish, aksionerlar huquqlarini oshirish va ularga rioya qilish kafolatlarining amalga qilish mexanizmlarini yengillashtirish yo‘li bilan investorlar manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;

- tadbirkorlarning soliq organlariga majburiy murojaati sonini qisqartirish, tadbirkorlar uchun soliq to‘lovlari tartiblarini soddalashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes sub’ektlarining soliq yukini kamaytirish;

- mulkni ro‘yxatga olishda xarajatlarni kamaytirish;

- kichik biznes sub’ektlariga kreditlar ajratish sohasidagi joriy qonunchilikka tijorat banklar tomonidan rioya qilinish masalalarida tijorat banklari ustidan nazoratni kuchaytirish.

Kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi sohasidagi joriy qonunchilikka davlat organlarining so‘zsiz rioya qilinishida davlat organlarining majburiyatini oshirish, kichik biznes tarmog‘ining huquqiy darajasini kuchaytirish lozim. Shu maqsadda 1982-yilda Koreya Respublikasida Konstitutsiyaga kichik biznesni himoyalash va qo‘llash hukumatning majburiyati va mas‘uliyatiga aylantirib qo‘yadigan o‘zgartirishlar kiritilgan. Natijada esa tranzaksion xarajatlar va chegaralarning qisqarishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatilgan.

Hukumat, biznes va fan o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni tashkil etish uchun stimullar yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreya Respublikasida shu maqsad bilan Iqtisodiyot va texnologiya instituti asosida tadbirkorlarni muhim ma’lumot bilan ta’minlaydigan va ularga maxsus menedjerlik iqtisodiy va texnik bilimlar taklif qiladigan informasion-resurs markaz tashkil etilgan.

Kichik biznesning rivojlanishi uchun bank tizimi o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Bu yerda bank depozitlari ustidan nazoratda samarasiz vazifalar, naqd pullarni hisobdan olish va foydalanishda ortiqcha chegaralarni bartaraf etish, moliya bozorining holati, egalik shartlari tengligi, emissiyalar va kichik, o‘rta va yirik xo‘jaliklar aksiyalari sotuvi to‘g‘risida ma’lumot olish aktual masala bo‘lib qolmoqda.

Keltirilgan va boshqa bog‘liq choralarning amalga oshirilishi erkin iqtisodiy sanoat hududlarini yaratish sharoitlarida jiddiy kuchayishga imkon berishi mumkin. Shuning uchun O‘zbekiston iqtisodiyoti tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari va yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda O‘zbekistonda Sanoat hududlarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga oxirgi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan.

O‘zbekistonda Navoiy shahrida erkin industrial-iqtisodiy zonasini rivojlantirish hamda qit’alararo logistika markazini barpo etish loyihalarining Janubiy Koreya hukumati va ishbilarmon doiralari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani yuksak qadrlanadi. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasidagi dastlabki mahsulot aynan koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda ishlab chiqarilganida, shubhasiz, chuqur ma’no bor.

III bob bo‘yicha xulosa.

Ilmiy-texnik taraqqiyot Koreya Respublikasi iqtisodiyoti tuzilmaviy qayta qurilishining ajralmas omili xisoblanadi. Ma’lumki, industrial texnologiyalar o‘zlari ilk bor yaratilgan jamiyatning kodini olib yuruvchi genetik moddaga o‘xshaydi. Shuning uchun texnologiyalar yetkazish – bu ishlab chiqarishni boshqarish, haridorning bozorda o‘zini tutishi to‘g‘risidagi ijtimoiy ma’lumotlarni yetkazish hamdir.

Mamlakat ishlab chiqarishda texnologik almashinuv va o‘z tadqiqot natijalaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqda. “Samsung”, “Hyundai”, “LG” Koreya konglomeratlari xalqaro darajadagi fan talab mahsulot ishlab chiqaruvchilariga aylangan. Koreya Respublikasi ko‘pdan beri yetakchi kapitalistik davlatlar bilan texnologik poygaga qo‘shilgan. Oqibatda, mikroelektronika va informatika, yuqori

texnologiyalar orqali kelib chiqadigan yangi bozorlarni shakllantirish uchun tuzilmaviy raqobatga ham qo'shilgan.

O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yilning 29-yanvarida o'rnatilgan. Shu yilning o'zidayoq ikki tomonlama savdo, investisiyalar o'zaro himoyasi, ilmiy-texnik hamkorlik, viza ko'magi to'g'risida bayonnoma to'g'risidagi bitimlar tuzilgan.

1992-yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 3,361 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 1,718 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Koreya Respublikasi eksportining asosiy qismini avtomobil, to'qimachilik sanoati tayyor mahsulotlari, po'lat, maishiy elektronika, telefon aloqasi uchun uskunalar tashkil qiladi. O'zbekistondan import xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar: paxta, qimmat baho metallar, teri, an'anaviy sharq tabobati va parfyumeriya uchun tabiiy komponentlar, sintetik matolar va kimyo sanoati mahsulotlaridan iborat. Koreya Respublikasi O'zbekiston bilan savdoda doimiy ijobiy saldogaga ega.

2011-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 2010-yilga nisbatan 19,5% ga o'sdi va 1,718 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi, shundan eksport – 142 mln. dollar, import – 1,576 mlrd. dollar (2.3.1-jadval).

Koreyaga O'zbekiston eksporti majmui transport, turistik va yordamchi transport xizmatlari (55,9%), paxta tolasi (21,7%), oziq-ovqat mahsulotlari (2,2%) va boshqalardan iborat.

Importning asosiy manbalari turli xil mashina va uskunalar (81,5%), kimyo mahsulotlari (9,6%), qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (2,9%), transport, maslahat va kommunikasion xizmatlar (2,0%) hisoblanadi.

O'zbekistonda Navoiy shahrida erkin industrial-iqtisodiy zonasini rivojlantirish hamda qit'alararo logistika markazini barpo etish loyihalarining Janubiy Koreya hukumati va ishbilarmon doiralari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani yuksak qadrlanadi. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasidagi dastlabki mahsulot aynan koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda ishlab chiqarilganida, shubhasiz, chuqur ma'no bor.

XULOSA

Koreya Respublikasi 50 yil ichida sust rivojlangan, qoloq agrar davlatdan zamonaviy, sanoati rivojlangan davlatga aylandi. Ko'pgina ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan qolishmaydi. 1996-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development, OECD) ga a'zo bo'ldi va ko'pgina rivojlangan davlatlarda bir asrdan ortiq davom etgan sanoat islohoti bosqichlarining davomiyligini keskin qisqartirdi.

Koreya Respublikasida ilmiy-texnik tadqiqotlarni 5 ta yo'nalishini rivojlantirish siyosati:

- Birinchi yo'nalishga iqtisodiy foydani tez olish mumkin bo'lgan sohalarga yo'naltirilgan edi. Masalan, informatika, kimyo texnologiya va mashinasozlik sohalaridir.
- Ikkinchi yo'nalishga omad kelishini o'rtacha vaqt oralig'ida kutish mumkin bo'lgan biotexnologiya va yangi materiallarni ishlab chiqarish soxasi kirgan.
- Uchinchi yo'nalishda butun jamiyat uchun muhim rol o'ynaydigan ilm-fan sohasi va atrof muhitni himoya qilish, sog'lik va aholining osoyishtaligi bilan bog'lik masalalar joy olgan.
- To'rtinchi yo'nalishni – o'rta yo' uzun muddatli natija berish sharti bilan okeanografiya va aeronavtika tashkil etgan.
- Beshinchi yo'nalish iqtisodiy foyda olish muddatiga bog'lik bo'lmagan holda fan va texnikaning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Koreya Respublikasi tadkikot va rivojlanish sohasini amalga oshirishda YaIMning ulushini 2011 yilda 3.60%ni fan va texnologiyalarni rivojlantirishga sarfladi.

Koreya Respublikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanayotgan Sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiy o'sishining jo'shqinlik timsoli bo'lib kelmoqda. Ushbu davlat hech qanday tabiiy resurslarga ega bo'lmay va dunyo aholisi soni (7

mlrd.) ning 0,71% (48,4 mln.) iga ega bo'lib, jahon yalpi mahsuloti (63,256 mlrd. AQSh dollari) ning 1,58% (1,014 mlrd. AQSh dollari)ni ishlab chiqaradi. Mamlakatda xo'jalikni sanoatlashtirish amalga oshirilgan va uning tuzilmasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'lgan. Koreya Respublikasi rivojlangan pul-tovar munosabatlari bo'lgan iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga kirgan.

Butun dunyoni qamrab olgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Koreya Respublikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Koreya Respublikasi iqtisodiy pasayish oqimiga tushib qoldi. Koreya Respublikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari ancha pasaydi va 2008-yilda atigi 2,3% ni tashkil qildi. Bu daraja 2008-yilgacha bo'lgan 4 yil ichida eng past edi. Ko'pgina mutaxassislar fikri bo'yicha jahon va Osiyo bozorlaridagi vaziyat ta'siridagi bu pasayish tendensiyasi kelgusi davrda kuchayishi mumkin deb ta'kidlangandi. Biroq jadvaldan ko'rinib turibdiki, Koreya Respublikasi nafaqat inqirozgacha bo'lgan holatini tiklab oldi, balki u darajadan oshib ketishga ham erishdi.

Koreya Respublikasining erkin iqtisodiy hududlari ilg'or texnologik rivojlanisida juda kata ahamiyatga ega.

Xalqaro hamjamiyat tafsifi qilganidek Koreya Respublikasi ham boshqa rivojlangan mamlakatlar kabi mamlakat iqtisodini o'sishini ta'minlash maqsadida yangi "Yashil texnologiyalar" strategiyasini ishlab chiqdi. 2009-yil Koreya Respublikasi hukumati bu dasturni boshladi.

Bu strategiya o'zida 4 asosiy tarmoqni mujassamlashtiradi. Ularga:

- -Energiya tejovchi iqtisodiyotni o'rnatish uchun energiyani qayta ishlab undan yangi toza energiya yaratish;
- -Ekologik toza transport tarmoqlarini yaratish va yashash sifatini oshirish va atrof-muhitni yaxshilash uchun toza suv;
- -Uglerod chiqindilarini kamaytirib, suv resurslarini himoya qilish;
- -Samarali energiya ishlatuvchi texnologiyalar yaratish va sanoat, axborot texnologiyalarini yaratish kiradi.

Buning uchun esa energiya tejovchi texnologiyalar, gibrid dvigatelda ishlovchi avtomobillar, suv va sun'iy suv havzalarini, hamda atrof-muhitni kam ifloslantiruvchi texnika-texnologiyalar yaratish rejalashtirilgan.

Bu dastur doirasida Koreya hukumati besh yil mobaynida 72,6mlrd.doll.investitsiya qilishi rejalashtirilgan. Bu sohadagi investorlarga va faoliyat ko'rsatuvchilarga davlat tomonidan bir qancha qulayliklar yaratildi: soliq imtiyozlari, korporativ soliq va daromad solig'idan 7 tilga ozod qilinishi, kompaniyalarning 3yil ko'rsatilgan soliqning 50%i chegirib tashlanadi.

BMTning atrof-muhitni himoyalash dasturi Koreya Respublikasi tabiatni muhofaza qilish tajribasini boshqa mamlakatlarga bermiqchi. Yangi ming yillikda Koreya Respublikasi "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dunyoda yetakchi bo'ldi.

Koreya Respublikasi prezidenti Li Myon Bak tomonidan taklif qilingan "yashil o'sish" startegiyasiga mamlakat 2008-yildan o'tishni boshladi. Mamlakat dasturi "3" deb nomlangan paradigmani o'zida aks ettiradi, u shunday tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilganki, qaysiki bir vaqtning o'zida ekologiya, energetika va iqtisodiy o'sish masalasini hal qila oladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot Koreya Respublikasi iqtisodiyoti tuzilmaviy qayta qurilishining ajralmas omili xisoblanadi. Ma'lumki, industrial texnologiyalar o'zlari ilk bor yaratilgan jamiyatning kodini olib yuruvchi genetik moddaga o'xshaydi. Shuning uchun texnologiyalar yetkazish – bu ishlab chiqarishni boshqarish, haridorning bozorda o'zini tutishi to'g'risidagi ijtimoiy ma'lumotlarni yetkazish hamdir.

Mamlakat ishlab chiqarishda texnologik almashinuv va o'z tadqiqot natijalaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqda. "Samsung", "Hyundai", "LG" Koreya konglomeratlari xalqaro darajadagi fan talab mahsulot ishlab chiqaruvchilariga aylangan. Koreya Respublikasi ko'pdan beri yetakchi kapitalistik davlatlar bilan texnologik poygaga qo'shilgan. Oqibatda, mikroelektronika va informatika, yuqori texnologiyalar orqali kelib chiqadigan yangi bozorlarni shakllantirish uchun tuzilmaviy raqobatga ham qo'shilgan.

Koreya Respublikasida Informasion-kommunikasion texnologiyalarni modernizatsiyalash maqsadida 4-avlod kommunikasion tarmogʻi va uskunalarini yaratishga qaratilgan faol ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari olib borilmoqda. Bunda koʻproq eʼtibor simsiz enlik kabel aloqa (wireless broadband) segmentini rivojlantirishga qaratilmoqda. Bunday kommunikasion uskunalar va elektron qismlarning asosiy koreys ishlab chiqaruvchilari “Samsung Electronics”, “LG”, “Pantech” kompaniyalari hisoblanadi.

Oʻzbekiston va Koreya Respublikalari oʻrtasida diplomatik aloqalar 1992-yilning 29-yanvarida oʻrnatilgan. Shu yilning oʻzidayoq ikki tomonlama savdo, investisiyalar oʻzaro himoyasi, ilmiy-texnik hamkorlik, viza koʻmagi toʻgʻrisida bayonnoma toʻgʻrisidagi bitimlar tuzilgan.

1992-yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 3,361 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan boʻlsa, 2011-yilda bu koʻrsatkich 1,718 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Koreya Respublikasi eksportining asosiy qismini avtomobil, toʻqimachilik sanoati tayyor mahsulotlari, poʻlat, maishiy elektronika, telefon aloqasi uchun uskunalar tashkil qiladi. Oʻzbekistondan import xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar: paxta, qimmat baho metallar, teri, anʼanaviy sharq tabobati va parfyumeriya uchun tabiiy komponentlar, sintetik matolar va kimyo sanoati mahsulotlaridan iborat. Koreya Respublikasi Oʻzbekiston bilan savdoda doimiy ijobiy saldogaga ega.

2011-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 2010-yilga nisbatan 19,5% ga oʻsdi va 1,718 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi, shundan eksport – 142 mln. dollar, import – 1,576 mlrd. dollar (2.3.1-jadval).

Koreyaga Oʻzbekiston eksporti majmui transport, turistik va yordamchi transport xizmatlari (55,9%), paxta tolasi (21,7%), oziq-ovqat mahsulotlari (2,2%) va boshqalardan iborat.

Importning asosiy manbalari turli xil mashina va uskunalar (81,5%), kimyo mahsulotlari (9,6%), qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (2,9%), transport, maslahat va kommunikasion xizmatlar (2,0%) hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YHATI

O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

1. Karimov I.A. 2013-yil yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 18.01.2014 y.- Xalq So'zi 19.01.2014y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011.
3. Karimov I.A. "O'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlari". – Toshkent.«O'zbekiston», 2011
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011.
5. Karimov I.A. Vse nashi ustremeniya i programmi – vo imya dalneyshego razvitiya Rodini i povisheniya blagosostoyaniya naroda. Doklad Prezidenta Respubliki Uzbekistan Islama Karimova na zasedanii pravitelstva po itogam sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya strani v 2010 godu i vajneyshim prioritetam na 2011 god. Tashkent,: «Uzbekiston», 2011 g.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston. 1993. – 54 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston. 1993. – 128 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston. 1995. – 269 b.

Asosiy va Qo'shimcha adabiyotlar

- 9.** Amsden Elis X. Rezkiy rost rinochnoy moшi. / Elis X. Amsden. Sleduyushiy gigant Azii: Yujnaya Koreya i pozdnyaya industrializatsiya. - Nyu York: Izd-vo Oksfordskogo universiteta, 1989. gl. 5.
- 10.** Amsden Elis X. Sleduyushiy gigant Azii: Yujnaya Koreya i pozdnyaya industria-lizatsiya. - Nyu York: Izd-vo Oksfordskogo universiteta, 1989.
- 11.** Andrianov V.D. Rol gosudarstva v formirovanii mexanizmov ustoychivogo dinamicheskogo razvitiya v Respublike Koreya // Problemi Dalnego Vostoka. - 1995.-№1.-s. 80-91
- 12.** An ChungYong, JoXun Kim. Eksportoorientirovannaya trgovaya politika i industrialnoe razvitie Yujnoy Korei. /D. Cha, K. S. Kim, D. Perkins. Koreyskaya ekonomika 1945-1995: Ispolnenie i vzglyad na XXI vek. - KDI, 1997. gl. 8.
- 13.** Bubennikov A.A, Bubennikov. A.N., Mamarikin G. Vzlet yujnokoreyskogo drakona v stratosferu vysokix texnologiy. // Problemi Dalnego Vostoka. -1994.-№1.-s.54-65.
- 14.** Vestfal Lari Ye. Industrialnaya politika v eksportoorientirovannoy ekonomike: Uroki iz opita Yujnoy Korei. - Jurnal ekonomicheskix perspektiv, № 4 (3), 1990. s. 41-59.
- 15.** Vestfal Lari Ye. Opit Respubliki Koreya po razvitiyu eksportoorientirovannoy industrializatsii. - Mirovoe razvitie. № 6 (3), 1978. s. 347-382.
- 16.** Grishina O.A, Zvonova Ye.A. Regulirovanie mirovogo finansovogo rinka: Teoriya, praktika, instrumenti. – M.: INFRA-M, 2010. – 410
- 17.** DornbushRudiger, Yang Chul Park. Koreyskaya politika rosta. - Brukingskie chteniya po ekonomicheskoy deyatelnosti, 1987. s. 389-454.
- 18.** Jons Leroy P. Chaebol i konsentratsiya ekonomicheskoy vlasti v koreyskom razvitii: Stati, opit i alternativy. / II Sekong. Izdaniya po makroekonomicheskoy politike i industrialnomu razvitiyu. - Koreyskiy Institut razvitiya, 1987.

19. Jonson Chalmers. Kakova nailuchshaya sistema upravleniya nasionalnoy ekonomikoy dlya Korei? / L.J. Cho, Ya.X. Kim. Koreyskaya politicheskaya ekonomika: Institutionalniy rakurs. - San Fransisko: Izd-vo Vestvyu, 1994.
20. Innovatsionniy tip razvitiya ekonomiki. Uchebnik. / Pod obshchey redaksiei. A.N. Folomyev. – M.: RAGS, 2008. – 712 s.
21. Kim Yun Xang. Vvedenie v Koreyskuyu model politicheskoy ekonomiki. / II Sekong. Koreya v mirovoy ekonomike. - Vashington: Institut mejdunarodnoy ekonomiki, 1994. gl. 2.
22. Koreya: Vchera i Segodnya. (Doklad ispolzovanniy pri ofisialnom vizite prezidenta Respubliki Koreya Kim Yen Sama v Uzbekistan v mae 1994 goda) Seul 1994 god
23. Koreya: novie gorizonti. / dokladi, predstavleniye na IX nauchnoy konferentsii koreyevedov Rossii i stran SNG. Moskva, 2005g.
24. Li Jong Von, Li X.X., Yang D.Ya. Strukturnaya reforma v Koree: Protsessi i posledstviya. / Tran Van Xoa. Aziatskoe vosstanovlenie: Publikatsii i aspekti rosta, razvitiye, trgovlya i investitsii. - Cheltenham, Velikobritaniya: Edvard Elga, 2000. s. 15-33.
25. Li Jong Von. Vliyaniye Koreyskoy voyni na koreyskuyu ekonomiku. - Mejdunarodniy jurnal Koreyskix ucheniy, № 5 (1), Vesna/Leto 2001. s. 97-118.
26. Li Jong Von. Koreyskaya ekonomika. - Seul: Yulgok, 2002.
27. Li Jong Von. Udacha i provali koreyskoy ekonomiki i yee perspektivi. - «Rabochaya gazeta», 2000.
28. Li Men Bak. Chudes ne bivaet. Seul: izdatelstvo Yewhan, 2009 g. 312s.
29. Muminov N.G., Melibayeva G.A. Osobennosti finansovoy sistemi Respubliki Koreya // Ekonomika i finansi. №4, 2010, S. 68-70.
30. Modernizatsiya Rossii: usloviya, predposilki, shansi. /Pod redaksiei V.L.Inozemseva. Vip. 1. Strategicheskie problemi modernizatsii. - M.: Sentr issledovaniy postindustrialnogo obshchestva, 2009. S. 29.
31. Mansurov A.Yu., Mixeyev V.V. Finansovo-promishlennyye gruppi v ekonomike Respublika Koreya // Problema Dalnego Vostoka. -1988 -№4. S.39 -53.

32. Melibayeva G.A., Chon De Van, Muminov N.G. Vneshneekonomicheskie svyazi Respubliki Koreya. T.-2011 g.- 164 str.
33. Mirovaya ekonomika i mejdunarodniy biznes. Ekspress-kurs: ucheb. /Pod общ.red. V.V. Polyakova i R.K. Щенina. – M.: KNORUS, 2008. – 288 s.
34. Muminov N.G. Opit reformirovaniya gosudarstvennix finansov v Respublike Koreya. “Davlatmoliyasini islohetishning dolzarb muammolari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. O‘zbekiston Respublikasi Moliyavazirligi O‘quv markazi, Toshkent 2 dekabr 2009 yil
35. Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011.
36. Strani i regiony mira: ekonomiko-politicheskiy spravochnik /Pod red. A.S. Bulatova. – M.: Prospekt, 2010. – 704 s.
37. Suslina S.S. Promishlennost Respubliki Koreya. -M: Nauka, 1988. -216s.
38. Suslina S.S. Mirovye i natsionalnoye khozyaystvo //MGIMO, №1(4), 2008
39. Suetin A.A. Mejdunarodniy valyutno-finansovye otnosheniya. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2010. – 440 s.
40. Tkacheva N.V. Informatsionnye strategii stran Vostochnoy Azii v usloviya rinochnix reform. M. RIP – holding, 2003 – 152s.
41. Fedorov A.V. Analiz finansovix rynkov i trgovlya finansovimi aktivami. Posobie po kursu. – SPb.: Piter, 2009. – 240 s.
42. Fedorovskiy A., Dimitrov D. Razvitiye integratsionnix protsessov v ATR. Rol i prioritety Yu.Korei MO i ME 2002 №6, s55
43. Xazanovich E.S. Investitsionnaya strategiya: uchebnoye posobie / E.S. Xazanovich, A.M. Ajluni, A.V. Moiseyev. – M.: KNORUS, 2010. – 304 s.
44. Xodov L.G. Gosudarstvennoye regulirovaniye importa v RK. Vneshnyaya trgovlya 2001 - №5, 6 s.35
45. Хейфес В.А. Мировой опыт успешных модернизаций. //международная экономика, №6, 2011. С. 6..

Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

- 46.K.X.Abduraxmonov. A.N.Allayarov, R.V.Abdullaev, Yu.T.Dadoboyev Koreya respublikasi: siyosati, iqtisodiyoti madaniyati. Toshkent 2006y. 222 b.
- 47.XongVontak, Laurens V. Krauze. Torgovlya i rost razvitix stran v Tixookeanskoy regione. - Seul: Koreyskiy institut razvitiya, 1981.
- 48.XongVontak. Eksportoorientirovanniy rost Korei: Vozmojnyy put k razvitoy ekonomike. - Mejdunarodniy ekonomicheskij jurnal, № 4 (2), 1990. s. 97-118
- 49.Cha Dong Se. Vliyanie inostrannogo kapitala na koreyskuyu ekonomiku. - Koreyskiy institut industrialnoy ekonomiki i torgovli, 1983. (na koreyskom yaz.)
- 50.Chibrikov. O finansovo-promishlennix gruppax // Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal. -1994. -№2. S.82-86
- 51.Chon De Van. Ekonomicheskoe sotrudnichestvo mejdu Koreey i Uzbekistanom: tendensii i perspektivi // Ekonomika i finansi. №3, 2011, S. 70-77.
- 52.Chon De Van. Ekonomicheskoe sotrudnichestvo mejdu Koreey i Uzbekistanom: tendensii i perspektivi // Ekonomika i finansi. №10, 2011, S. 9-16.
- 53.ChunEn An. Otkritaya politika i promishlennoe razvitie Yujnoy Korei. V kn. Torgovaya politika i znachenie vstupleniya v VTO dlya razvitiya Rossii i stran SNG: rukovodstvo. Pod redaksiey D.Tarra. Vsemirniy Bank. Izdatelstvo «Ves Mir». Moskva, 2006.
- 54.Ekonomika regiona (texnologii delovoy aktivnosti) M, 1999
- 55.Trade Profiles 2011. WTO. Geneva, 2011. R. 85, 96, 109, 136,153,

Internet saytlar

- 56..www.korient.co.kr/
- 57.[www. Aziatimes.ru/](http://www.Aziatimes.ru/)
- 58.[www. finansy.ru/publ/mark/](http://www.finansy.ru/publ/mark/)
- 59.www.marketing.al.ru/index_0007.shtml
- 60.www.marketing.uef.ru/students-news.php

- 61.**www.marketologi.ru/docs/teaching.html
- 62.**www.marketologi.ru/lib/50books/50books1.html
- 63.**www.nber.org/papers/w7361
- 64.**www.finstat.ru/
- 65.**www.Korea.net
- 66.**<http://asiareport.ru/index.php/news/103-gosbyudzhetyuzhnoj-korei-na-2011-god-sostavit-270-mlrd-dollarov.html>
- 67.** Korean Trade and Business - Seoul & South Korea
<http://www.seoulkoreaasia.com/trade-business.htm>
- 68.**www.imf.org/external/pubs/ft/weo/2010/02/weodata,